

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
Xalq tabobati va kasb kasalliklari kafedrası**

**“Xalq tabobati” fanidan
o’quv uslubiy majmua**



Bilim sohasi: 500000 - Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi: 510000 - Sog'liqni saqlash
Ta'lim yo'nalishi: 5510100 – Davolash ishi
5111000 – Kasbiy ta'lim

Buxoro – 2020й

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

Xalq tabobati va kasb kasalliklari kafedrası

«Tasdiqlayman»

O'quv va tarbiyaviy ishlar

prorektori, dotsent

G.J.Jarilkasinova _____

**“Xalq tabobati” fanidan
o'quv uslubiy majmua**

Bilim sohasi: 500000 - Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot

Ta'lim sohasi: 510000 - Sog'liqni saqlash

Ta'lim yo'nalishi: 5510100 – Davolash ishi

5111000 – Kasbiy ta'lim

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligining 2016 yil tasdiqlangan o'quv dasturi asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar: Qayumov X.N – kafedra mudiri, dotsent
Tuksanova Z.I. – kafedra o'qituvchisi

Taqrizchi: K.J.Boltayev -Gospital va fakultet terapiya va laboratoriya ishi kafedrası
dotsenti, t.f.n.
A.B. Ragabov -Anatomiya kafedrası mudiri, t.f.n. dotsent.

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat Tibbiyot institutining o'quv metodik kengashining
2020 yil son majlisida muhokama etildi.

Xalq tabobati fani o'quv uslubiy majmuasi oily va o'ta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturi asosida tuzilgan bo'lib, 5 kurs davolash va tibbiy
pedagogika fakul'teti talabalari uchun mo'ljallangan.

Ushbu o'quv uslubiy majmua ma'ruza va amaliy mashg'ulot materiallari, fan uchun
mo'ljallangan rasmlar bilan boyitilgan. Talabalar bilimini baholash maqsadida mavzularga oid
vaziyatli masalalar, nazorat va test savollari kiritilgan.

MUNDARIJA

1. O'QUV MATERIALLARI.....	bet
2. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	bet
3. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	bet
4. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI.....	bet
5. GLOSSARIY.....	bet
6. ILOVALAR.....	bet
6.1.FAN DASTURI.....	bet
6.2. ISHCHI O'QUV DASTURI.....	bet
6.3.TARQATMA MATERIALL.....	bet
6.4.TESTLAR.....	bet
6.5.BAHOLASH.....	bet
6.6.FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR.....	bet

Ma'ruza №1

Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi

1-mavzu	Xalq tabobati (ignarefleksoterapiya) fanining rivojlanish tarixi.
----------------	--

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti -80daqqa	Talabalar soni:16-18 ta
Mashg'ulot shakli	Kirish - axborotli ma'ruza.
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Ignaterapiyaning rivojlanish tarixi. 2. Ignaterapiya haqida an'anaviy tasavvurlarining nazariy asoslari. 3. Ignaterapiya ta'sir mexanizmining hozirgi zamon nazariyalari
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Xalq tabobatining(ignarefleksoterapiya) rivojlanish tarixi haqida tushuncha berish. Igna bilan davolash ta'sir mexanizmining asosiy kontseptsiyalari bilan tanishtirish.	
Pedagogik vazifalar: O'quv fanining maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzular haqida tushuncha berish; ignaterapiyaning rivojlanish tarixi va uning hozirgi kundagi o'zni mohiyatini tushuntirish; hozirgi zamon muammolari va kelgusi rivojlanishi haqida an'anaviy va hozirgi davr tasavvurlarining nazariy asoslarini asoslash.	O'quv faoliyati natijalari: - O'quv fanining maqsadi va vazifalari, - ignaterapiyaning hozirgacha erishilgan yutuqlarini izohlab berish; - ignaterapiya haqida an'anaviy va hozirgi davr tasavvurlarining asosiy printsiplar mazmun-mohiyatini ochib berish; - ignaterapiyani ta'sir mexanizmini ta'riflovchi bir necha asosiy nazariyalarni aniq faktlarga asoslangan holda ta'riflab berish.
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, proektor, kompyuter
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob

1.2. "Xalq tabobati ((ignarefleksoterapiya)ning rivojlanish tarixi" ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
1 - mavzuga kirish (15 daqiqa)	Fan nomini aytadi. Mavzular ro'yxati beriladi. Birinchi mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida mavzu	Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob

	bo'yicha savollar beradi	beradilar
2 – asosiy bosqich (60 daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi. 2.3.Mavzuga oid videorolik namoyish etiladi. 2.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida bugungi mavzuga oid savollar beradi	Tinglaydilar, yozadilar. Talabalarga berilgan savollarga javob beradilar.
3- yakuniy bosqich (5 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2. O'tilgan o'quv materialini o'rganib kelish vazifasini beradi.	Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.

Ma'ruza №1

Mavzu: Fanning rivojlanish tarixi. Ignaterapiya haqida an'anaviy tasavvurlarining nazariy asoslari.

Reja:

1. Ignaterapiyaning rivojlanish tarixi.
2. Ignaterapiya haqida an'anaviy tasavvurlarining nazariy asoslari.
3. Ignaterapiya ta'sir mexanizmining hozirgi zamon nazariyalari

Ignaterapiyaning rivojlanish tarixi

Ignaterapiya (chjen) va kuydirish (tszyu) bundan taxminan 5000 yil oldin vujudga kelgan deb taxmin qilinadi. Chjen-tszyu terapiya birinchi bo'lib sharq mamlakatlarida: Tibet, Xitoy, Hindiston, Koreya, Yaponiya, Vetnam, Laos, Neapol, Egipet va boshqalarida vujudga kelgan. Bu usulning qadimiy davolash usuli ekanligini tosh davri arxeologik qazilmalari (kremniydan, kvarts - «byan-shi») va keyingi davrlarda ishlatilgan suyak va bambukdantayyorlangan ignalar isbotlab beradi. Keyinchalik ignalar metallardan: mis, bronza, temir, kumush va oltindan tayyorlangan. Ularni har xil o'tkir va surunkali kasalliklarni davolashda, yiringli jarohatlarni ochishda, qon chiqarishda va boshqa xirurgik muolajalar o'tkazishda ishlatishgan. Qadimiy vrachlar har xil kasalliklarda tanani ma'lum qismiga og'riqli ta'sir etilganda ijobiy natija olinishini kuzatishgan. Shunday qilib, tajriba va xatolar asosida to'plangan bilim asrlar osha bir avloddan ikkinchi avlodga berilib, ko'paytirilib, rivojlantirilib kelindi.

Mashhur xitoy xalqi tibbiyoti qonuni - «Xuandi Ney - Szin» (ichki a'zolar haqida) asari bizning eramizgacha bo'lgan III asrda yozilgan bo'lib, u ignaterapiyaga bag'ishlangan. Lekin ignaterapiya undan ancha avval vujudga kelgan hisoblanadi. Boshqa vrach So'ma-Tsyen (II-I asr bizgacha bo'lgan era) o'zining «Shi-Tszi» nomli kitobida mashhur tabib Byan-Tsyao (V asr bizgacha bo'lgan era) haqida gapirib, uni Chjen-tszyu terapiyani mukammal egallagani haqida yozib qoldirgan. Byan-Tsyao o'zining «Nan-Tszin» (Og'irlik haqida) nomli kitobida barcha nuqtalarni izohlab, turli kasalliklarda qo'llanilishini ko'rsatib bergan.

Keyinchalik Xitoyda ignaterapiyaga bag'ishlangan bir necha asarlar yaratilgan. Chjen-tszyu terapiya, ayniqsa, VI-VIII asrlarda keng rivojlandi vatarqaldi. XI-asrda birinchi

«Nuqtalar atlası» (Van-Veyi 1026 yil) yaratilgan. Bunga asoslanib kishini bo'yi barobar ikkita bronzadan figura qo'yilgan. Bu figurada u vaqtda aniq bo'lgan nuqtalar parmalanib ko'rsatilgan (1027y). Ko'p o'tmay Chjen-tszyu-terapiya ilmi boshqa sharq mamlakatlarida: Koreya, Yaponiya, Hindiston va Mangoliyada keng tarqaldi. Bu mamlakat tabiblari ham ignaterapiyani rivojlanishiga katta hissa qo'shishgan. Chjen-tszyu terapiya rivoji bir necha asr davom etdi. Bir necha avlod olimlari mehnatlari asosida 14 ta chiziq va 670 ta nuqta ko'rsatilgan figura va kartalar tuzildi, qaysiki shu nuqtalar topografiyasi hozirgi vaqtgacha mutaxassislar tomonidan ishlatilib kelinmoqda. Chjen-tszyu terapiya rivojlanish jarayonida muolaja uslubi va uni o'tkazishning texnik vositalari o'zgardi.

Chjen-tszyu terapiyani ilmiy asoslangan ravishda o'rganish maqsadida 1955 yilda Pekinda Xitoy tibbiyotini o'rganish Ilmiy tekshirish instituti ochildi. Bu institut olimlari chjen-tszyu terapiyaning xususiyatlarini ilmiy asoslash bo'yicha ish olib borishmoqda.

Evropa mamlakatlarida akupunktur davolash usullari haqida ma'lumot VIII asrda paydo bo'lgan. Bu vaqtda akupunktura Gollandiya, Frantsiya va Italiya mamlakatlarida keng qo'llanila boshlandi va rivojlandi. Ayniqsa, bu usul asosan Frantsiyada o'z rivojini topdi. XX asrda Parij akupunktura markazi tashqil qilindi va ilmiy izlanishlar olib borildi.

MDHgi mamlakatlarida akupunktura XX asrning ikkinchi yarmidan tarqala boshlagan. 1957 yildan CHJEN-TSZYU terapiya usulini o'rganish maqsadida klinik-fiziologik tadqiqotlar boshlab yuborildi. Bu davrda akupunktura mexanizmi haqida ma'lum tashvurga ega bo'lish, ignaterapiya effektini va uning ta'siridagi o'zgarishlarni o'rganish uchun tadqiqotlar olib borildi.

Ignaterapiya haqida an'anaviy tasavvurlarining nazariy asoslari

«IN – YAN» nazariyasi

Qadimiy davrda kishilar kasallikni paydo bo'lishini primitiv tasavvurlar asosida tushinishgan. Ular kasallikni kishi organizmiga «Yomon ruhni» kirishi natijasida kelib chiqadi deb tasavvur qilishgan va bu ruhni har xil duolar ta'sirida haydashga harakat qilishgan.

Qadimiy sharq tabib va ulamolari induktiv-sintetik fikrlashga asoslanib butun organizm funksiyasini yuqori kuzatuvchanlik bilan o'rganishgan, kamroq har bir organning tuzilishiga, ko'proq funksiyasiga e'tibor berishgan. Shunga asosan qadimiy sharq tabobatida bir necha nazariya va qontseptsiyalar vujudga kelgan.

Qadimiy sharq tabobatida quyidagi asosiy printsiplar dominantlik qiladi:

1. Kishining bir butunlikda o'rganilish printsiipi.

2. Kishi osmon va erga to'g'ri kelishi printsiipi, bu IN-YaN tushunchasini beradi (rasm 1).

3. Kishi hayotini besh element qontseptsiyasi bilan boshqarilishi qilinishi printsiipi.


Birinchi printsiipga asosan kishi tanasi va sezgisi o'zaro ta'sirda va uzviy bog'liqlikda bo'ladi. Har bir organ va uning funksiyasi boshqasi bilan bog'liq, muntazam rivojlanish nuqtai nazaridan o'zgaruvchanlikda. Kishitanasi bir butun hisoblanadi.

Ikkinchi printsiip – kishining osmon va erga to'g'ri kelishi, sharq filosofiyasi va tabobati holatiga asoslangan. Bunda kishi tabiatdan ajralmagan holda bir butunlikda, tabiat bilan birgalikda ko'riladi. Bu printsiipga asosan kishi organizmiga klimat, mavsum, quyosh nurlari, oy va er ta'sir etadi, kishi holati har xil kasalliklarta'siri ostida o'zgaradi, lekin koinotni tuzilishi va harakati kishi organizmiga to'liq tasvirlanadi, ayniqsa, uning hayotiy funksiyasida deb tushintiriladi.

Rasm 1.

Qadimiy falsafa va tabobat qonunlariga asosan kishi xuddi er yuzidagi barcha elementlar singari «Ikki lamchi umumiy almashinuv va to'ldirish katta qonuni» - IN-YaN ta'siriga bo'ysunadi.

IN-YaN nazariyasi hamma joyda va hamma narsada ikkita qarama – qarshilik mavjudligini ta'kidlaydi,



bular «IN» va «YaN» terminlari bilan belgilanadi. Tabiatdagi barcha predmet va hodisalar o'zining antipodlariga egadirlar. Ta'kidlanishicha osmon YaNga, er INga, kunduzi YaNga, kechasi INga, yuqori YaNga, past INga, tashqi taraf YaNga, ichki taraf INga, chap tomon YaNga, o'ng tomon INga tegishlidir va boshqalar.

YaN guruhiga quyidagi tushunchalar kiradi: harakatchanlik, kuchli, yaqqol ko'rinish, aktiv, yuqori, samets, tez, kuchli funktsiya va boshqalar.

IN guruhiga quyidagi tushunchalar kiradi: tinchlik, kuchsiz, yopiq, passiv, pastki, samka, sekinlik, pasaygan funktsiya va boshqalar.

Qadimgi olimlar hamma predmetlar va ularning ikki qarama-qarshi tomoni nafaqat qarama-qarshi, balkim o'zaro ta'sirda va o'zaro bog'liqlikdadir deb ta'kidlashgan. Bu o'zaro bog'liqlik bir butunlikka quyilish tendentsiyasiga egadir.

IN va YaN o'zini rivojlanish jarayoniga ega. IN kuchayishi YaNni yaratadi, YaNning kuchayishi INni yaratadi va shu tariqa o'zaro aloqa amalga oshadi. Me'yoriy holatda IN va YaN orasida uzviy bog'liqlik - muvozanat mavjud. Muvozanatni buzilishi natijasida anomal holatlar yoki patologik jarayon yuzaga keladi. IN-YaN nazariyasi xulosasi asosida qadimiy Sharq hakimlari patologik jarayonni o'rganishgan, diagnostika va davo ishlarini olib borishgan (jadval 1).

IN - YaN nazariyasining fiziologiya va anatomiyada qo'llanilishi

Jadval 1

	YaN	IN'
anatomiyada	Teri qatlami, tananing orqa yuzasi, oyoq - qo'llarning tashqi yuzalari	Ichki organlar, ko'krak va qorin yuzasi, oyoq- qo'llarning ichki yuzasi
fiziologiyada	6 Fu (o't pufagi, oshqozon, ingichka va yo'g'on ichak, siydik pufagi, tana uch qismi). Ular ovqat hazm qilish va chiqarish funktsiyalarini bajaradi	5 Chjan (jigar, Yurak, taloq, o'pka, buyrak). Ular o'zida organizm uchun qimmatbaho bo'lgan moddalarni saqlaydi

IN - YaN nazariyasining patologiyada ishlatilishi

YaN sindromlar: yuqori harorat, yuz va til giperemiyasi, eyforiya bilan toqatsizlik holati, ovoz balandligi, chanqoqlik, qora rangli siydik, qabziyat, tez puls va boshqalar.

IN sindromlar: varaja, yuz va til ko'karishi, depressiya holati, past ovoz, chanqoqlik yo'qligi, kontsentrlangan siydik, ich ketishi, chuqur, kam puls, bemor bilan kontaktda bo'lishning qiyinligi va boshqalar.

IN-YaN nazariyasini diagnostikada ishlatilishi

Sharq tabobatida 4 ta diagnostik usul farq qilinadi.

1. Ko'rik (holati, kayfiyati, konstitutsiyasi, teri rangi va boshqalar)
2. Auskultatsiya (tovushni, nafas olishni, yo'talni)
3. So'rov (sistemalar bo'yicha)
4. Palpatsiya (tanani, oyoq-qo'llarni, pulsni)

Jadval 2.

Ichki organlar va puls nuqtalari orasidagi o'zaro munosabat

Puls nuqtasi	Chap qo'l	O'ng qo'l
Tsun	Yurak, ingichka ichak	O'pka, yo'g'onichak
Guan	Jigar, o't pufagi	Taloq, oshqozon

Chi	Buyrak, siydik pufagi	Perikard, tana uch qismi
-----	-----------------------	--------------------------

«U – SIN» nazariyasi

Qadimiy olimlar besh element qontsepsiyasiga IN–YaN nazariyasini falsafiyta'limoti asosida kelishgan. Eng chetni qarama-qarshiliklar tushunchasi kiritilgan: eng chetni YaN - kunduzi, yoz, anub; eng chetni IN -kechqurun, qish, shimol. Bundan tashqari o'zaro o'tuvchi qarama-qarshiliklar ajratilgan, bular: IN-ertalab, kuz, g'arb; YaN-oqshom, bahor, sharq (rasm 3).

Qadimiy tabiblar tabiatda va kishi organizmida o'zaro bog'liqlik bo'lgan siklik hodisalarga e'tibor berishgan. Ular sikliklikni barcha hodisalar xususiyati deb tushunishgan. Ularning fikricha tabiatni va butun koinotni tuzilishini o'zi YaN va IN o'zaro almashinuvidan iborat. Buning yaqqol isboti bir sutka va yilning kechishidir (rasm-3).

Bunda har bir sikl to'rtta ketma-ket keluvchi holatlardan iborat.

Tug'ilish (ertalab, bahor)

Maksimal aktivlik (kunduzi, yoz)

Energiyani pasayish (oqshom, kuz)

Minimal aktivlik (kechqurun, qish)


Keyinchalik to'rtta ketma-ket keluvchi sikllarni (holatlarni) o'rganib, qadimiy olimlar ularni har birini simvol bilan belgilashgan.

Daraxt – tug'ilish, o'sish simvoli

Olov – maksimal aktivlik simvoli


Metall – energiyani pasayish simvoli

Suv – minimal aktivlik simvoli



Rasm – 2. Bir sutka kechishi

Bu to'rt elementga ular beshinchi elementni qo'shishgan, qaysiki boshqa elementlar, ularning siklik o'zgarishining markazi yoki o'qi bo'lib xizmat qiladi (rasm 4). Bu element – er, chunki hamma hodisalar erda sodir bo'ladi. Qadimiy sharq tabiblari bu koinot tuzilishini tirik jonzodga, jumladan odamga ishlatishgan. Shunday qilib, U-sin talimotiga ko'ra koinotni (makrokosmos) va insonni (mikrokosmos) tuzilishi tashqil qilingan.



Rasm – 3. U–sin nazariyasi

Bu besh element orasida bog'liqlik mavjud bo'lib, bu bog'liqlik qarama - qarshilik sifatida ko'rsatilgan. Bular yaratuvchi (o'zaro kuchaytiruvchi) va destruktiv (tormozlovchi) bog'liqliklardir. Daraxt olovni paydo qiladi, olov erni isitadi, to'ydiradi (kul bo'lib), er metallni hosil qiladi, metall suvni tezlatadi, suv daraxtni rivojlantiradi.

Teskari ta'sirida barchasi bir-birini passivlashtiradi (ichki bog'liqlikda). Bu bog'liqliklardan birortasi buzilsa o'zaro muvozanat buziladi. Bu elementlarga organlar xususiyatlariga mos holda biriktirilgan. Ko'rsatilgan organlarning o'zini meridiani mavjud. Bunda ham o'zaro bog'liqlik o'zgarsa muvozonat buzilib patologik jarayonni rivojlanishiga olib keladi.

CHJAN – FU kontseptsiyasi

Sharq tabobatida ko'proq organlar anatomiyasini emas, balki uning funksiyasini o'rganishga e'tibor berilgan. Shuning uchun unda markaziy zveno bo'lib Chjan-Fu ta'limoti turadi. Bu nazariyaga asosan organlar uch kategoriyaga bo'linadi:

1.Chjan.

2.Fu.

3.Qo'shimcha.

Chjan kategoriyasiga qo'yidagi organlar kiritilgan: o'pka, taloq, Yurak, perikard, buyrak, jigar. Ularning vazifasi «tozalash», «tarqatish», «saqlash» va «energiyani qontsentratsiya qilish» hisoblanadi. Ular IN organlar bo'lib, simvolik ravishda ma'lum elementlarga kiritilgan.

Fu kategoriyasiga oshqozon, ingichka va yo'g'on ichak, siydik va o't pufaklari va tana uch qismi kiritilgan. Bular hammasi YaN organlar bo'lib hisoblanadi. Ularning vazifasi ovqat hazm qilish va chiqarish.

Qo'shimcha kategoriya organlarga bosh va orqa miya, suyak, suyak ko'migi, musqo'llar va bachadon kiritilgan. Ular tuzilishini bir xil emasligi, funktsional holatini o'zgarishligi sababli qo'shimcha kategoriyaga kiritilgan.

Hamma organlar o'zaro IN-YaN munosabat orqali bog'liq Chjan va fu organlar o'zlarini shaxsiy meridianlariga egadirlar.

Shunday qilib, 6 ta Chjan organlari va 6 ta Fu organlar bo'lib, bular o'zaro IN– YaN va umumiy puls harakteriga ega. Har bir organ o'z meridianiga ega bo'lib, u teri hamda organlar bilan bog'liqdir. Sharq tabobatida FU kategoriya organlari kasalliklari engil o'tib, tez davolanadi deyilgan.

Chjan Yurak. Organizmda Yurak asosiy rol o'ynab, qon tomirlarini nazorat qiladi. Hozirda bu qon sirkulyatsiyasini boshqarishini anglatadi. Qadimda o'pka shishini asosan «qon tomir va Yurak energiyasi blokadasini» keltirib chiqaradi deyishgan. Haqiqatan ham Yurak etishmovchiligida o'pka shishi kuzatiladi. Tilning rangi ham Yurakdagi o'zgarishlarni bildiradi, ya'ni rangpar til Yurak gipofunksiyasini, och qizil rangli til giperfunksiyasini bildiradi. Ruhiy holatlarni ham qadimda Yurak bilan bog'ashgan. Chunki Yurak meridiani nuqtalariga ta'sir etilganda Yurak tez urishi, qurquv, uyqusizlik, bezovtalik, hushdan ketish, alahsirash va boshqa shunga o'xshash simptomlar bartaraf qilingan.

Chjan jigar. Qadimda jigar organizm funksiyalarini kuchaytiradi deyilgan. Jigar organizmda moddalar almashinuvini ta'minlaydi va «bioximiyaviy laboratoriya» hisoblanadi. Jigar qon deposi bo'lib kuchli qahr qilganda qon tupirish (qayd qilish) ga olib keladi. Qonga adrenalin va noradrenalin ajralib chiqadi. Natijada jigarda qonning saqlash funksiyasi buziladi. Skleradagi o'zgarish ham jigarning kasalligidan dalolat beradi deyilgan. Haqiqatan ham gepatit kasalligida sklera sarg'ayadi, ko'z qizaradi. Qadimda ko'z qizarishi – bu «Jigar olovi», buni «o'chirish» lozim deyilgan. Jigar meridiani nuqtalariga ta'sir qilinganda ko'z kasalliklari bartaraf qilinadi.

Chjan taloq. Qadimda taloq ovqat hazm qilishni, ichaklar bo'ylab harakatni, so'rish kabi funksiyalarni nazorat qiladi deb tushinishgan. Agar hazm qilish va so'rish funksiyasi kamaygan bo'lsa bu erda qorin dam bo'lishi, bu esa sklera mushaklarining atrofiyasi va

umumiy tonusi pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari taloq qonni nazorat qiladi deyilgan, axlatda qon paydo bo'lishi taloqning kasalligidan dalolat deyilgan.

Chjan o'pka. O'pka nafas va moddalar almashuvini nazorat qiladi. O'pka regulatsiya funksiyasiga, ya'ni qon aylanishiga ham yordam beradi. Organizmdan suyuqliklarni chiqarishni nazorat qiladi. O'pkadagi patologik o'zgarishlar teri, ter bezlariga va soch holatiga ta'sir qiladi.

Chjan buyrak. Suyaklarning o'sishi, rivojlanishi, tiklanishi buyrakning «maxsus energiyasiga» bog'liq bo'lib, u suyak ko'migi tarkibiga ham ta'sir qiladi. Suyaklarda operatsiya qilinganda buyrak meridiani nuqtalariga analgetik ta'sir etiladi. Bundan tashqari uning quloq, anus, hamda jinsiy organlar bilan bog'liqligi buyrakning «bo'shlik» sindromida namoyon bo'ladi.

Chjan perikard. Perikardning asosiy vazifasi Yurakni himoya qilish va unga qo'shimcha yordam berish hisoblanadi. Diastola paytida Yurak mushaklari tolalarining kengayishini perikardning fibroz to'qimasi chegaralab turadi.

Fu ingichka ichak. Ingichka ichak so'rish funksiyasini bajaradi. Suyuqliklar qonga so'riladi va keyinchalik siydik pufagi orqali chiqariladi. Ingichka ichak va Yurak bir - birining aktivligi va funksiyasini boshqarib turadi.

Fu o't pufagi. O't pufagi jigar bilan ichki tashqi bog'liqlikda, shuning uchun jigardagi o'zgarishlar o't pufagiga ham bevosita bog'liqdir.

Fu oshqozon. Asosiy funksiyasi ovqatni qabul qilish, qayta ishlash, shuningdek ingichka ichakka haydashdir. Oshqozon va taloq ichki tashqi bog'liqlikni hosil qiladi. Shunday qilib oshqozon, oshqozon osti bezi, taloq ovqat hazm qilish jarayonida asosiy o'rin egallaydi.

Fu yo'g'on ichak. Asosiy vazifasi axlatlarni tashqariga chiqarish. Yo'g'on ichak o'pka bilan ichki-tashqi bog'liqlikni tashqil etadi. Masalan qabziyat bo'lganda ko'krak qafasida siqilish kuzatiladi.

Fu siydik pufagi. Asosiy vazifasi suyuqlikni to'plashi va siydikni chiqarishi hisoblanadi. Siydik pufagi va buyrak ichki-tashqi bog'liqlikni tashqil qiladi.

Fu tana uch qismi. Ichki organlar faoliyatini boshqarish funksiyasini bajaradi. tana uch qismi va perikard ichki-tashqi bog'liqlikni hosil qiladi.

TSZIN-LO kontseptsiyasi

Tszin-lo meridianlar haqidagi kontseptsiya bo'lib, an'anaviy sharq tabobatining bir bo'lagi hisoblanadi. U IN-YaN, U-sin, Chjan-fu nazariyalari bilan uzviy bog'langandir.

An'anaviy tabobatta'limotiga ko'ra meridianlar bu - «kanallar yoki yo'llar» bo'lib, qaysiki ulardan energiya sirkulyatsiyasi amalga oshadi. Umuman 12 ta juft, 2 ta toq asosiy, 15 ta bo'ylama va 12 ta ko'ndalang ikkilamchi kollateral va 8 ta ekstroordinar (mo'jizaviy) meridianlar mavjud.

Qadimiy sharq tibbiyoti ma'lumotiga ko'ra 12 ta asosiy meridianlar ikkita asosiy qismdan; tashqi va ichki yo'llardan iborat. Ular o'zaro uzviy bog'liq va bir butunlikni tashqil qiladi. Bu meridianlar o'zini shaxsiy nuqtalariga ega bo'lib, ularning soni 9 tadan 67 gachani tashqil qiladi. Har bir meridian standart nuqtalarga ega bo'lib, qaysiki shu meridianga va qo'shni meridianga spetsifik ta'sir ko'rsatadi.

1) Tonus oshiruvchi nuqta (qo'zg'atuvchi). Bu nuqta o'z meridianining tashqi yo'lida joylashgan va shu meridianda energiya harakatini kuchaytiradi. Bu nuqtaga qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatish tavsiya etiladi.

2) Tinchlantiruvchi nuqta. Bu nuqta ham o'z meridianining tashqi yo'lida joylashgan bo'ladi, meridianda energiya harakatini tormozlaydi, tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

3) Manba nuqta. Bu nuqta ham o'z meridianining tashqi yulida joylashgan, ta'sir usuliga ko'ra tonus oshiruvchi va tinchlantiruvchi nuqtalarni o'rnida ishlatilishi mumkin.

4) Mo'tadillovchi nuqta (lo-punkt). Bu nuqta ham o'z meridianining tashqi yulida joylashgan va juft, o'zaro kesishgan meridianlarda energiya muvozonatini tiklaydi.

5) Hamdard nuqta. Bu nuqtalar o'z meridianida joylashmagan, barchasi siydik pufagi meridianitashqi yulining birinchi tanasida joylashgan. Ta'sir usuliga ko'ra qo'zg'atuvchi yoki tinchlantiruvchi nuqta sifatida ishlatilishi mumkin.

6) Signal nuqta (mo-punkt). Bu nuqtalarning bir qismi o'z meridianining tashqi yulida, bir qism nuqtalar boshqa meridianlar-ning tashqi yo'lida joylashgan. Bu nuqtalar sohasida bo'ladigan og'riq, shu meridianga tegishli organni jarohatlanganidan dalolat beradi.

7) Og'riq qoldiruvchi nuqta. Bu nuqta ham o'z meridianining tashqi yulida joylashgan, meridian yo'li bo'ylab kuzatiladigan og'riqlarda ishlatiladi.

Ko'rilgan nuqtalardan tashqari meridianlarning, birinchi va oxirgi nuqtalaritafovut qilinadi. Ular meridian boshlanishida va tugash joylarida joylashgan bo'ladi.

Energiya (CHI) haqida ta'limot

Qadimiy vrachlar organlarni mo'tadil ishlashi uchun spetsifik energiyani bo'lishi zarur deb hisoblaganlar. Ular organizmda 2 xil energiya bo'lishini aytishgan, bular: ichki va maxsus. Har bir energiya o'zini yo'li bo'yicha sirqulyatsiya qiladi.

Ichki energiya 2 ta komponentning o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'ladi, bular «kosmik» va «er» komponentlaridir. Kosmik komponentni ichki energiyaga o'tishini metall elementi boshqaradi, o'pka orqali amalga oshiriladi, Er komponentini Er elementi boshqaradi, taloq amalga oshiradi deyilgan.


Qadimiy sharq tabiblari erdan olingan, etishtirilgan oziqni hazm qilinishini taloq regulyatsiya qilib turadi deb aytishgan. Kosmik oziqni - havoni o'pka yutadi deyishgan. Bu ikki komponentlarni o'zaro ta'siri natijasida ichki energiya hosil bo'ladi. Muvozanat holatda ichki energiya asosiy meridianlarning yo'llari bo'yicha sirqulyatsiya qiladi. Sirkulyatsiya qilayotgan energiya ichki organlar bilan, biologik aktiv nuqtalar orqali esa tashqi muhit bilan ta'sirlashadi.

Energiyani sirkulyatsiyasi o'pka meridianidan boshlanib barcha meridianlarni 24 soat ichida aylanib chiqadi (rasm 5). Har bir meridian o'zining maksimal va minimal aktivlik vaqtida ega.

Energiyani ikkinchi turi maxsus energiya, buyrak usti bezida ishlab chiqariladi va 8 ta mo'jizaviy meridianlarda harakat qilinadi. Sog'lom kishilarda mo'jizaviy meridianlarda energiya sirkulyatsiyasi bo'lmaydi, qachonki kishida og'ir surunkali kasallik kuzatilganda kompensator mexanizm sifatida harakati kuzatiladi.

«ONA – BOLA» qoidasi

Yo'qotilgan muvozonatni tiklash uchun kuchsizni kuchaytirish yoki kuchlini kuchsizlantirish kerak. Bu printsipt «ona-bola» qoidasi asosida yotadi. Bu qoida U - sin sikli bo'yicha ma'lum elementni undan oldingi element orqali kuchaytirish kerakligini aytadi (rasm 6). Shuning uchun ham oldingi element obrazli qilib «ona» deb atalgan, keyingi element «bola». Demak bu qoida o'rta holatdagi elementga nisbatan ishlatiladi. Uni kuchaytirish uchun «ona» ga yoki oldingi elementga qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatiladi. Agar kuchsizlantirish kerak bo'lsa «bola» ga, undan keyingi elementga tinchlantiruvchita'sir etish kerak bo'ladi.



Rasm – 4. Meridianlar bo'ylab energiya harakati

«ERKAK VA AYOL» qoidasi

Bu qoida asosida chap tomon YaNga, o'ng tomon INga kirishi yotadi. Bu qoidaga asosan chap qo'ldagi pulsni palpatsiya qilish nuqtalarida proektsiyalangan organlar, o'ng qo'lni analogik nuqtalarida proektsiyalangan organlar faoliyatiga tormozlovchi ta'sir ko'rsatadi. Qadimda sharq tabiblari shartli ravishda o'ng tomon «ayol» - chunki u INga, chap tomon – «erkak» - chunki u YaNga kiradi deyishgan. Ular agar chap qo'ldagi ma'lum puls nuqtasida proektsiyalangan organda patologik jarayon yuzaga kelsa, o'ng qo'lda xuddi shu proektsiyada joylashgan organda ham patologik jarayon rivojlanish xavfi tug'iladi deb hisoblaganlar (ingichka ichak-yo'g'on ichak, Yurak-o'pka, o't pufagi-oshqozon) (rasm-2).

YARIM KUN – YARIM TUN qoidasi

Energiyaning sutkalik sirkulyatsiyasi natijasida YaN va IN meridianlar har doim o'zaro munosabatda bo'ladi. IN meridian ayniqsa IN davrida tonuslashtirilganda, unga qarama-qarshi joylashgan YaN meridian tinchlantiruvchi ta'sir kuzatiladi va buning teskarisini kuzatish ham mumkin. Buni oldini olish maqsadida qarama-qarshi joylashgan meridian ham shu vaqtning o'zida shu usuldata'sir etish tavsiya etiladi. Yarim kun va yarim tun qoidasi asosan profilaktik maqsadlarda ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gavaa Luvsan. Traditsionno'e i sovremenno'e aspekto' vostochnoy refleksoterapii - Moskva. "Nauka", 1990, 574 s.
2. Ovechkin A.M. Osnovo' chjen-tszyu terapii - Saransk "Golos", 1991, 416
3. Li B.N. Xalq tibbiyoti. Darslik. 2011 yil. 232 bet.
4. Tabeeva D.M. Rukovodstvo po iglorefleksoterapii – Moskva: «Meditsina», 1980 g.
5. Soy R.D. Spravochnik po refleksoterapii – Tashkent, 1994 g.
6. Xoang Bao Tyau Igloukalo'vanie – Moskva: «Meditsina», 1989 g
7. X.N. Qayumov, Z.I. Tuksanova «Ignaterapiya» o'quv qo'llanma – Buxoro, 2017

Ma'ruza №2

Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi

2-mavzu	Refleksoterapiyada nuqtalarning topografiyasi va ularni sistemalash. Biologik aktiv nuqtalarga ta'sir qilish usullari
2.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli	
Mashg'ulot vaqti -80 daqiqa	Talabalar soni: 16-18 ta
Mashg'ulot shakli	Kirish - axborotli ma'ruza.
Ma'ruza rejasi	1. Biologik faol nuqtalar topografiyasi 2. 14 ta doimiy (klassik) meridianlar tasnifi
O'quv mashg'ulotining maqsadi: - Refleksoterapiyada nuqtalarning topografiyasi va ularni sistemalash. 14 ta asosiy klassik meridianlar, ularning topografiyasi bilan tanishtirish.	

Pedagogik vazifalar: - ignaterapiyada akupunktur nuqtalar haqida tushuncha berish; - nuqtalar topografiyasini tushuntirish; - 14 ta asosiy klassik meridianlar haqida to'liq tushuncha berish; - 14 ta asosiy meridianlar topografiyasini ko'rsatib berish; - 14 ta klassik meridianlar tashqi va ichki yo'llari haqida tushuncha berish		O'quv faoliyati natijalari: - Bugungi mavzu maqsadi va vazifalari haqida tushunchalarni sharhlab berish; -nuqtalar topografiyasini birma-bir tushuntirish; - 14 ta asosiy meridianlar boshlanish va tugash yo'llarini mulyajda ko'rsatish; - 14 ta asosiy meridianlardagi standart nuqtalarni birma-bir tushuntirish.
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat	
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy	
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, proektor, kompyuter	
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya	
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob	

1.2. Refleksoterapiyada nuqtalarning topografiyasi va ularni sistemalash ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Ma'ruza uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Mavzuni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	
1 - mavzuga kirish (15 daqiqa)	Ikkinchi mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. Talabalar bilimini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida oldingi mavzu bo'yicha savollar beradi.	Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2 – asosiy bosqich (60 daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2.Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi. 2.3. Talabalar bilimlarini mustahkamlash maqsadida savol-javob o'tkaziladi.	Tinglaydilar, yozadilar. Berilgan savollarga javob beradilar.
3- yakuniy bosqich (5 daqiqa)	3.1.Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2. O'tilgan o'quv materialini o'rganib kelish vazifasini beradi.	Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.

Mavzu: Refleksoterapiyada nuqtalarning topografiyasi va ularni sistemalash **Reja**

3. Biologik faol nuqtalar topografiyasi
4. 14 ta doimiy (klassik) meridianlar tasnifi

Asosiy meridianlar (1 jadval)

Belgilovchi raqamlar	Meridianlar nomi	
	O'zbekcha	Frantsuzcha qisqartirilgan belgisi
I	O'pka	P
II	Yo'g'on ichak	GI
III	Oshqozon	E
IV	Taloq-oshqozon osti bezi	RP
V	Yurak	C
VI	Ingichka ichak	IG
VII	Siydik pufagi	V
VIII	Buyrak	R
IX	Perikard	MC
X	Tanani uch isituvchi	TR
XI	O't pufagi	VB
XII	Jigar	F
XIII	Orqa o'rta	VG
XIV	Oldingi o'rta	VC

Meridianlarning faollik vaqti (2 jadval)

Meridianning nomlanishi	Meridianning faoliyati	Vaqlar	
		Maksimal faollik	Minimal faollik
O'pka	In	3-5	15-17
Yo'g'on ichak	Yan	5 – 7	17 - 19
Oshqozon	ЯН	7 – 9	19 - 21
Taloq-oshqozon osti bezi	In	9 – 11	21 - 23
Yurak	In	11 – 13	23 – 1
Ingichka ichak	Yan	13 – 15	1 – 3
Siydik pufagi	Yan	15 – 17	3 – 5
Buyrak	In	17 – 19	5 – 7
Perikard	In	19 – 21	7 – 9
Tanani uch isituvchi	Yan	21 – 23	9 – 11
O't pufagi	Yan	11 – 13	1 – 3
Jigar	In	13 – 15	3 – 5
Orqa o'rta	Yan	-	-
Oldingi o'rta	In	-	-

Tananing anatomik sohalarida proporsional sun standart soni


Proporsional sun bu – teng qismlarga bo'lingan tana sohaları orasidagi masofa.

Proporsional sun da ta'sir nuqtalar topografiyasini topish uchun maxsus bo'lingan (1,5 - 3 sm gacha) elastik lentlardan foydalaniladi. Individual-proporsional sun bu absolyut emas, balki nisbiy o'lchov birligidir.


Tana sohalarining proporsional sunlarga bo'linishi (3 jadval)

Tana sohaları orasidagi masofa	Tsunlarga bo'linishi
Bosh – bo'yin Bosh sochli qismining oldingi o'rta va orqa o'rta chegarasi orasidagi masofa Meridiandan tashqari 3 in-tan nuqtasidan 17 XIII nao-xu nuqtasigacha	12


Meridiandan tashqari 3 in-tan nuqtasidan boshning sochli qismi oldingi o'rta chegarasigacha	12
14 XIII da-chjuy nuqtadan bosh sochli qismining orqa o'rta chegarasigacha	3
So'rg'ichsimon o'siqlar orasidagi masofa	
8 III tou-vey nuqtalari orasidagi masofa	3
Tananing oldingi yuzasi	
To'shning bo'yinturuq kemtigidan qorin oq chizig'ining qovurg'alar bilan kesishgan nuqtasigacha	9
	9
Qorin oq chizig'ining qovurg'alar bilan kesishgan nuqtasidan kindik markazigacha bo'lgan masofa	9
15 XIV zhyu-vey nuqtadan (qorin o'rta chizig'i bo'ylab kindikdan 7 sun yuqorida xanjarsimon o'simtadan 0,5 sun pastda) kindik markazigacha	8
Kindik markazidan qov yuqori qirrasigacha	7
Ko'krak bezi orasidagi masofa, ayollarda o'rta o'mrov chizig'i orasidagi masofa	5
Oldingi o'rta va ko'krak 1-yon chizig'i orasidagi masofa	8
Oldingi o'rta va ko'krak 2-yon chizig'i orasidagi masofa	2
Oldingi o'rta va ko'krak 3-yon chizig'i orasidagi masofa	4
Oldingi o'rta va qorin 1-yon chizig'i orasidagi masofa	6
Oldingi o'rta va qorin 2-yon chizig'i orasidagi masofa	0,5
Oldingi o'rta va qorin 3-yon chizig'i orasidagi masofa	2
Tana orqa yuzasi	4
Orqa o'rta chiziqdan kurak ichki qirrasigacha bo'lgan masofa	3
Orqa o'rta chiziqdan orqa 1-yon chizig'igacha bo'lgan masofa	
Orqa o'rta chiziqdan bel 1-yon chizig'igacha bo'lgan masofa	1,5
Orqa o'rta chiziqdan bel 2-yon chizig'igacha bo'lgan masofa	1,5
Qo'l	3
Oldingi qo'ltiq osti burmasidan tirsak burmasigacha bo'lgan masofa	9
Orqa qo'ltiq osti burmasidan tirsak o'simtasi oxirigacha	
Tirsak burmasidan 7 S shen-men nuqtasigacha bo'lgan masofa	
4 X yan-gi nuqtasidan tirsak o'sig'i oxirigacha bo'lgan masofa	
Oyoq	
Tizza qopqog'i pastki qirrasidan son suyagining katta ko'stigacha bo'lgan masofa	9
Son suyagi ichki yuqori qirrasidan qov suyagi yuqori qirrasigacha	12
Dumba burmasi o'rtasidan tizza osti burmasi o'rtasigacha	12
Tizza qopqog'i pastki qirrasidan tashqi to'piq markazigacha	19
9 IV in-min-tsyuan nuqtasidan ichki to'piq markazigacha	18
60 VII kun-lun va 40 VII vey-chjun nuqtalar orasidagi masofa	



Rasm 1. Tana sohalarining proportsional sunlarga bo'linishi (old tomondan ko'rinish)



Rasm 2. Tana sohalarining proportsional sunlarga bo'linishi (orqa tomondan ko'rinish)



Rasm 3.tana sohalarining proportsional sunlarga bo'linishi(yon tomondan ko'rinish)

O'pka meridiani (P)

O'pka meridiani markazdan qochuvchi meridian bo'lib, in' sistemasiga kiradi. Meridianning maksimal aktivlik davri soat 3 dan 5 gacha, minimal aktivlik davri 5 dan 7 gacha. Meridianning ichki yio'li tananing o'rta qismi (oshqozon sohasi) dan boshlanib, Yo'g'on ichakka tushadi va yuqoriga ko'tarilib, oshqozon, diafragma, o'pka va hiqildoqdan o'tib elka bo'g'imi sohasida tugaydi. O'pka meridianining tashqi yio'li ko'krak qafasida o'mrov osti sohasining birinchi qovurg'a oralig'ida, ko'krak qafasi o'rta chizig'idan 6 tsun' tashqaridan boshlanadi va yuqoriga o'mrov suyagigacha ko'tariladi. So'ng elka bo'g'imi va elkaning oldingi sohasi bo'yilab davom etib bilakka o'tadi va qo'lning lateral yuzasi bo'yilab davom etib, bosh barmoqning tashqi yuzasida tirnoq o'zagidan 0,3 sm medial tomonda borib tugaydi.

O'pka meridiani bilan bog'liq bo'lgan asosiy patologik simptomlar: astmatik yio'tal, nafas olishning qiyinlashuvi, bo'g'ilish xuruji va yuqori nafas yio'llarining boshqa kasalliklari, Yurak aritmiyasi, Yurak sohasida og'riq, ko'krak qafasi va o'mrov sohasida og'riq, isitma, siyidik chiqarishning qiyinlashuvi, tez-tez siyiish, sababsiz bezovtalanish, qo'rquv.

O'pka meridianida 11 ta akupunktur nuqta mavjud.

CHjun-fu (P 1) – o'mrov osti chuqurchasida birinchi qovurg'a oralig'ida, o'rta ko'krak chizig'idan 6 tsun' lateral tomonda yoki o'rta o'mrov chizig'idan 2 tsun' tashqarida joylashgan.

Ko'rsatma: bronxial astma, yio'tal, hansirash, ko'krak sohasida va elka sohasida og'riq.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuyidirish 10-20 minut.

YUn'-men' (P 2) – o'mrov osti chuqurchasida, o'mrov suyagining akromial qirrasida joylashgan. R 1 nuqtasidan 3 sm yuqorida.

Ko'rsatma: nafas olish a' zolari kasalliklari, ko'krak sohasidagi, elka, bel va kurak sohasidagi og'riqlar.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuyidirish 5-10 minut.

Tyan'-fu (P 3) – qo'ltiq osti sohasidan 3 tsun' pastda, elka ikki boshli mushagining tashqi qirrasida yoki R 5 nuqtadan 6 tsun' yuqorida.

Ko'rsatma: nafas olish a' zolari kasalliklari, bronxial astma, elkaning old tashqi sohasi va kurakdagi og'riqlar, qovurg'alararo nevrалgiya, bosh og'rishi, bosh ayilanishi, burundan qon ketishi.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuyidirish 10-20 minut.

Sya-bayi (P4) – R 3 nuqtadan 1 tsun' pastda yoki tirsak burmasidan 5 tsun' yuqorida.

Ko'rsatma: yio'tal, hansirash, Yurak tez urishi, ko'ngil ayinishi, qusish, ko'krakdagi og'riq, qo'lning old tashqi yuzasidagi og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuyidirish 10-20 minut.

CHI-tsze (P 5) – tirsak bukilmasi burmasi o'rtasida, elka ikki boshli mushagi payiining bilak qirrasida.

Ko'rsatma: nafas sistemasi kasalliklari, bronxit, astma, plevrit, o'pka sili, qon tupurish, laringit, allergik rinit, elka va tirsak bo'g'imidagi shish va og'riqlar, bolalar tutqanog'i, enurez, nevrasteniya, reaktiv holatlar.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuyidirish mumkin emas.

Kun-tszuyi (P 6) – bilak-kaft burmasidan 7 tsun' yuqorida, elka-bilak mushagining ichki qirrasida joyilashgan.

Ko'rsatma: o'tkir respirator kasalliklar, yio'tal, laringit, faringit, ovozning yio'qolishi, bo'g'ilish, qo'l barmoqlaridagi og'riq, isitma holati.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, kuyidirish 10-15 minut.

Le-tsyue (P 7) – bilak suyagi bigizsimon o'simtasining yuqori qismida, bilak-kaft burmasidan 1,5 tsun' yuqorida.

Ko'rsatma: yio'tal, astma, qon tupurish, yuz nervi nevriti va uch shoxli nerv nevrologiyasi, mimika musqollarining kontrakturasi, tish og'rig'i, ensa sohasidagi og'riq, elka va bilak bo'g'imidagi og'riqlar.

Igna sanchish chuqurligi 0,6 sm, kuyidirish 5-10 minut.

TSzin-tsyuyi (P 8) – bilak-kaft burmasidan 1 tsun' yuqorida, bigizsimon o'siqning asosidan bir oz lateral tomonda, barmoqlarni bo'quvchi bilak payilarining bilak qirrasida joyilashgan.

Ko'rsatma: nafas olish a' zolari kasalliklari, tonzillit, faringit, yuz nervi nevriti, elka va panja sohasida og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 sm, kuyidirish mumkin emas.

tayi-yuan' (P 9) – bilak-kaft burmasining bilak qirrasida, bilak bigizsimon o'siqchasidan pastda joyilashgan.

Ko'rsatma: yio'tal, bo'g'ilish, bosh ayilanishi, uyiqu buzilishi, barmoqlarda og'riq, ko'kyio'tal.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 sm, kuyidirish 5-10 minut.

YUyi-tszi (P 10) – birinchi kaft suyagi o'rtasida joyilashgan bo'lib, bosh barmoqning birinchi bo'g'imidan pastroqda.


Ko'rsatma: yio'tal, bosh ayilanishi, panja va elkadagi og'riq, gipergidroz.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuyidirish 10-15 minut.

SHao-shan (P 11) – bosh barmoq tirnoq ildizidan 0,3 sm tashqarida joyilashgan.

Ko'rsatma: hushdan ketish, yio'tal, og'iz bo'shlig'i kasalliklari, halqum va hiqildoq kasalliklari, burundan qon ketishi, bosh og'rig'i, bosh ayilanishi, sariqlik, parotit, epileptik tutqanoq.

Igna sanchish chuqurligi 0,3 sm, kuyidirish 3-5 minut.



**Rasm 4. O'pka meridiani
Standart nuqtalar.**

1. Tonusni oshiruvchi – tay-yuan' (P 9)
2. Tinchlantiruvchi – CHi-tsze (P5)
3. Manba – tayi-yuan' (P 9)
4. Mo' tadillovchi – Le-tsyue (P 7)
5. Signal – CHjun-fu (P 1)
6. Og'riq qoldiruvchi – Kun-tszuyi (P 6)
7. Hamdard – Feyi-shu (V 13)

II. Yo'g'on ichak meridiani (GI)

Yo'g'on ichak meridiani markazga intiluvchi meridian bo'lib, yan sistemaga kiradi. Energiyani o'pka meridianidan olib oshqozon meridianiga beradi. Maksimal aktivlik davri soat 5 dan 7 gacha, minimal aktivlik davri 7 dan 9 gacha. Meridianda 20 ta akupunktur nuqta mavjud.

Meridianning tashqi yo'li ko'rsatkich barmoqning tirnoq ildizidan 0,3 sm tashqaridan boshlanadi. Ko'rsatkich barmoq bo'yilab yuqoriga ko'tariladi, I-II barmoqlar kaft suyaklari o'rtasidan bilakka, undan keyin elka va elka bo'g'imiga boradi. Elka bo'g'imidan bo'yiin yon yuzasi bo'yilab pastki jag'ga o'tadi. Pastki jag'ni kesib o'tib labga ko'tariladi va qarama-qarshi tomondan kelayotgan shu nomli meridian bilan kesishib o'tib, burun - lab burmasining yuqori qismida tugaydi. Meridianning ichki yo'li – oshqozon meridianining E 12 nuqtasidan boshlanib pastga tushadi, o'pka, diafragma orqali o'tib Yo'g'on ichakka borib tugaydi.

Yo'g'on ichak meridiani bilan bog'liq bo'lgan asosiy patologik simptomlar: yuzning sarg'ishligi, og'iz qurishi, pastki jag' tishlarining og'rishi, rinit, burundan qon ketish, tomokda og'riq, bo'yiin infil'trati, bo'yiin-ensa mushaklar tarangligi, elka bo'g'imida og'riq, ko'rsatkich va bosh barmoqlar harakatining chegaralanganligi, qorin sohasida og'riq, qabziyat yoki ich ketish, yuqori harorat.

Meridianning akupunktur nuqtalari:

SHan-yan (GI 1) – ko'rsatkich barmoqning tirnoq ildizidan 0,3 sm tashqarida joyilashgan.

Ko'rsatma: og'iz bo'shlig'i kasalliklari, bo'yiin, til, tish og'riqlari, qulokda shovqin, qo'l barmoq musqo'llari kasalliklari, isitma.

Ignasanchish chuqurligi 0,3 sm, kuyidirish 5-10 minut.

Er-tszyan' (GI 2) – II-barmoqning kaft barmoq bo'g'imidan oldinda, kaft tashqi yuzasining ichki yuzasiga o'tish joyida, ko'rsatkich barmoqning bilak qirrasida.

Ko'rsatma: og'iz bo'shligi kasalliklari, tomoq, halqum, tish og'riqlari, burundan qon ketish, bo'g'im va barmoqlarning kontrakturalari, elka va elka bo'g'imi og'riqlari, isitma.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuyidirish 5-10 minut.

San'-tszyan' (GI 3) – II barmoq kaft suyagi boshchasidan bir oz orqada, bilak tarafida joyilashgan.

Ko'rsatma: diareya, hansirash, balg'am ajralishining qiyinlashishi, ko'z sohasidagi o'tkir og'riqlar, kurak-elka og'riqlari, panja va barmoqlar shishi va og'riqlari.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuyidirish 5-15 minut.

Xe-gu (GI 4) – I va II barmoqlar kaft suyaklari o'rtasidagi oraliqda.

Ko'rsatma: og'riq sindromlarida, bo'g'im va barmoqlar og'riqlarida, bosh va tish og'rig'i, yuz nervining nevriti, mimik musqollarning parezi, trizm, burundan qon ketish, oshqozon-ichak kasalliklari, isitma holatlarida umumiy quvbatlovchi va og'riqsizlantiruvchi xususiyatlarga ega bo'lgan muhim nuqta.

Ignasanchish chuqurligi 1,5 sm, kuyidirish 5-15 minut.

YAn-si (GI 5) – bilak-kaft burmasida, qayiqsimon va bilak suyagi o'rtasida.

Ko'rsatma: bosh va tish og'rig'i, tirsak va bilak bo'g'imlarida og'riq, dispeptik o'zgarishlar.

Ignasanchish chuqurligi 0,5 sm, kuyidirish 5-10 minut.

Pyan'-li (GI 6) – bilak-kaft bukilmasidan 3 tsun' yuqorida.

Ko'rsatma: yuqori muchalar falajlanishi, burundan qon ketishi, tish og'rig'i, qulokda shovqin, faringit, ko'z sohasida og'riq va qizarish.

Ignasanchish chuqurligi 0,5 – 1 sm, kuyidirish 10 – 15 minut.

Ven'-lyu (GI 7) – YAn-si (GI 5) nuqtadan 6 tsun' yuqorida yoki tirsak bo'g'imi bilan bilak - kaft bo'g'imi o'rtasidagi masofada.

Ko'rsatma: elka sohasidagi og'riq, parotit, qorin sohasidagi og'riq, yuz shishi, glossit.

Ignasanchish chuqurligi 1,5 sm, kuyidirish 5-15 minut.

Cya-lyan' (GI 8) – GI 7 nuqtadan 2 tsun' yuqorida.

Ko'rsatma: elka va tirsak bo'g'imlarida og'riq, bronxial astma, mastit, plevrit, kindik atrofida og'riq, dispepsiya, siyidik ajralishining qiyinlashuvi.

Ignasanchish chuqurligi 1,5 sm, kuyidirish 10-15 minut

SHan-lyan' (GI 9) – tirsak bukilmasidan 3 tsun' pastda.

Ko'rsatma: elka sohasida og'riq, o'pka tuberkulyozi, bronxial astma, qorin sohasida og'riq, siyidik pufagi sfinkterlari falajlanishi.

Ignasanchish chuqurligi 1,5 sm, kuyidirish 5-15 minut.

SHou-san'-li (GI 10) – tirsak bukilmasidan 2 tsun' pastda.

Ko'rsatma: bilak nervi nevriti, elka va elka bo'g'imi sohasidagi og'riqlar, yuz nervi nevriti, bosh og'rishi, qorinda og'riq, qusish, ich ketishi, xohishsiz defekatsiya.

Ignasanchish chuqurligi 1,5 sm, kuyidirish 5-15 minut.

TSyuyi-chi (GI 11) – tirsak bo'g'imi bukilganda hosil bo'ladigan teri burmasining tashqi burchagida.

Ko'rsatma: tirsak bo'g'imi shishi, isitma, bronxial astma, krapivnitsa, neyrodermit, ekzema, nevralgiya, bosh miyada qon aylanishining buzilishi, arterial gipertenziya.

Ignasanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuyidirish 5-15 minut.

CHjou-lyao (GI 12) – GI 11 nuqtadan 1 tsun' yuqorida.

Ko'rsatma: yuqori muchalarda sezgi va harakatning buzilishi, elka va tirsak bo'g'imi kasalliklari.

Ignasanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuyidirish 5-15 minut.

SHou-u-li (GI 13) – GI 11 nuqtadan 3 tsun' yuqorida.

Ko'rsatma: elka va tirsak bo'g'imlarida og'riq va harakatning cheklanishi, yio'tal, pnevmoniya, sil limfadeniti.

Igna sanchish chuqurligi 0,2 - 0,3 sm, kuyidirish 5-20 minut.

Bi-nao (GI 14) – deltasimon muskul birikadigan joyida, tirsak bukilmasidan 7 tsun' yuqorida.

Ko'rsatma: elka bo'g'imi og'rig'i, bo'yiin qiyishqligi, limfadenit, gidradenit.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuyidirish 5-20 minut.

TSzyan'-yuyi (GI 15) – elka suyagi akromial o'sig'i bilan katta do'mbog'i o'rtasida.

Ko'rsatma: elka bo'g'imi sohasida og'riq, gemiplegiya, pleksit, ensa va elka mushaklari kontrakturasi.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 – 2 sm, kuyidirish 5-20 minut.

TSzyuyi-gu (GI 16) – o'mrov-kurak birikmasi ichkarisidagi chuqurchada.

Ko'rsatma: elka pleksiti, tish og'rig'i, bolalarda tutqanoq.

Igna sanchish chuqurligi 1,5-2 sm, kuyidirish 5-20 minut.

Tyan-din (GI 17) – ko'krak-o'mrov-so'rg'ichsimon mushagining orqa qirrasida, kalqonsimon tog'ayi pastki qirrasida.

Ko'rsatma: yutishning qiyinlashuvi, til osti mushaklari falajlanishi, bo'yiin sohasida og'riq, ovozning birdaniga yio'qolishi.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 – 1 sm, kuyidirish 5-10 minut.

Fu-tu (GI 18) – ko'krak-o'mrov-surg'ichsimon mushagi markazida, kalqonsimon tog'ayining yuqori qirrasida.


Ko'rsatma: gipersalivatsiya, yio'tal, bronxial astma, arterial bosimning pasayiishi.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuyidirish 5-10 minut.

Xe-lyao (GI 19) – burun qanoti bilan yuqori lab qirrasida o'rtasidagi masofada, T 26 nuqtadan 0,5 tsun' lateral tomonda.

Ko'rsatma: yuz nervi falajlanishi, mimika mushaklari kontrakturasi, burundan qon ketish, hid bilishning susayiishi.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuyidirish 3-5 minut.



Rasm 5. Yo'g'on ichak meridiani

In-syan (GI 20) – burun qanotining yuqori qirrasida.

Ko'rsatma: vazomotor rinit, burundan qon ketishi, yuz terisining allergik shishi va qichishi, bronxial astma.

Igna sanchish chuqurligi 0,3 -0,5 sm, kuyidirish mumkin emas.

Standart nuqtalari.

1. Tonus oshiruvchi – TSyuyi-chi (GI 11)
2. Tinchlantiruvchi – Er-tszyan' (GI 2)
3. Manba – Xe-gu (GI 4)
4. Mo' tadillovchi – Pyan'-li (GI 6)
5. Signal – Tyan'-shu (E 25)
6. Og'riq qoldiruvchi – Ven'-lyu (GI 7)
7. Hamdard – Da-chan-shu (V 25)

III. Oshqozon meridiani (E)

Oshqozon meridiani - markazdan qochuvchi meridian bo'lib, YAN sistemasiga kiradi. Maksimal aktivlik davri soat 7 dan 9 gacha, minimal aktivlik davri soat 9 dan 11 gacha. Energiyani yo'g'on ichak meridianidan olib, taloq - oshqozon osti bezi meridianiga beradi.

Meridianning tashqi yo'li ko'z orbitasining pastki o'rta sohasidan boshlanib burun qanoti to'g'risigacha tushadi, keyin og'iz burchagiga, so'ng pastki jag' bo'ylab orqaga qaytadi, so'ngra 2 shoxga bo'linadi: birinchisi faqat tashqi yo'lga ega bo'lgan «bosh yo'li», ikkinchisi – ichki va tashqi yo'llarga ega bo'lgan «tana-oyoq yo'li» hisoblanadi. Bosh tarmoq tepaga quloq suprasi oldi bo'ylab peshona-chakka sohasiga yo'nalib Tou-vey (E8) nuqtasida tugaydi. Tana-oyoq tarmog'i Da-in (E 5) nuqtasidan boshlanib, o'mrov-to'sh birikmasi va bo'yinning oldingi tashqi yuzasi bo'ylab tushadi, o'mrov usti chuqurchasida TSyue-pen' (E12) nuqtasidan tashqi va ichki yo'llari davom etadi. Tashqi yo'l sut bezi so'rg'ichi chizig'i bo'ylab pastga yo'naladi, qorinning to'g'ri mushagi tashqi qirrasi bo'ylab pastga tushadi, so'ng chov burmasi o'rtasida ichki yo'li bilan bog'lanadi, keyin sonning oldingi tashqi yuzasiga o'tadi, to'rt boshli mushakning tashqi qirrasi bo'ylab pastga yo'naladi va tizza bo'g'imini kesib o'tadi, barmoqlarni bukuvchi uzun va bosh barmoqni yozuvchi uzun mushaklar o'rtasidan o'tib, oyoq kafti oldingi tashqi yuzasi bo'ylab I va II kaft suyagi o'rtasidan o'tadi va 2- oyoq panjasi tirnoq ildizidan 0,3 sm lateral tomonda tugaydi.

Meridianning tashqi yo'li ikkita tarmoqqa ega: birinchisi TSzu- san'-li (E 36) nuqtasidan boshlanib pastga tushadi, oyoq II panjasi tashqi yuzasiga boradi, ikkinchisi CHun-yan (E 42) nuqtasidan II–III ponasimon bo'g'im va II – III kaft suyaklari o'rtasi bo'ylab bosh barmoqqa borib (RP 1) In'-bay nuqtasida tugaydi. Bu erda taloq - oshqozon osti bezi meridiani bilan bog'lanadi.

Meridianning ichki yo'li TSyue-pen' (E 12) nuqtasidan boshlanadi. Ko'krak qafasidan, diafragmadan o'tib oshqozonga boradi, shu erda taloq bilan bog'lanadi. Oshqozonning chiqish qismidan boshlanuvchi bitta tarmoqqa ega, qorinning pastki qismiga tushadi, TSi-chun (E 30) nuqtasiga borib chov kanali sohasida tashqi yo'l bilan bog'lanadi. Oshqozon meridianing 45 ta akupunktur nuqtasi bor.

Oshqozon meridiani bilan bog'liq bo'lgan asosiy patologik simptomlar: qorin sohasida og'riq, gastrit, oshqozon va 12 barmoq ichak yarasi, ich ketishi, ich qotishi, meridian yo'li bo'ylab og'riqlar, bosh va tish og'rig'i, yuz nervi nevriti, burundan qon ketish, halqum sohasi og'riqlari, bo'yin shishi, ko'krak qafasidagi og'riq, oyoqlarda shish, uvishish, sovuq qotishi. SHu bilan birga MNS kasalliklari, gipertenziya, ginekologik kasalliklar va yuqori isitma holati.

CHen-tsi (E 1) – orbitaning pastki qirrasining o'rtasida joylashgan.

Ko'rsatma: keratit, ko'ruv nervi nevriti, katarakta, og'iz va ko'z atrofidagi shilliq mushaklarning tortilishi va kontrakturasi, yaqindan va uzoqdan ko'rolmaslik, ko'z va qosh usti sohasidagi og'riqlar, ko'zdan yosh oqishi.

Igna sanchish chuqurligi 0,2 – 0,5 sm, ingichka igna tanlash kerak, kuydirish ta'qiqlanadi.

Si-bay (E 2) – qorachiqdan vertikal 1 sun' pastda joylashgan. Ko'z osti teshikchasiga to'g'ri keladi.

Ko'rsatma: uch shoxli nervning I va II tarmog'i nevrалgiyasi, yuz nervi falaji, yuz mushaklarining tortilishi, kon'yuktivit, sklerit.

Igna sanchish chuqurligi 0,3 – 0,6 sm, kuydirish 3-5 minut.

TSzyuy-lyao (E 3)– burun lab burmasida, Si-bay (E 2) nuqtadan vertikal o'tuvchi chiziq va Jen'-chjun (T 26) nuqtasidan gorizontall o'tuvchi chiziq kesishgan joyda joylashgan.

Ko'rsatma: uch shoxli va yuz nervi nevriti va nevrалgiyasi, gaymorit, tish og'rig'i, jag' osti, yonoq va lab sohalari yallig'lanishlari.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm gacha, kuydirish 3-5 minut, chalqancha yotgan holda.

Di-tsan (E 4) – og'iz burchagidan 1 sm tashqarida, qorachiq vertikal chizig'i va og'iz burchagi gorizontall chizig'i kesishgan joyda.

Ko'rsatma: uch shoxli va yuz nervi nevriti va nevrалgiyasi, ko'zdan yosh oqishi, chaynash mushaklari kontrakturasi, so'lak oqishi, nutqning buzilishi.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm gacha, kuydirish 3-5 minut.

Da-in (E 5) – pastki jag' burchagidan oldinda chaynov mushagi oldingi qirrasida.

Ko'rsatma: pastki jag'dagi tishlar og'rig'i, 3 shoxli nerv nevrалgiyasi, yuz nervi falajlanishi, chaynash mushaklari kontrakturasi, parotit.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm gacha, kuydirish 5-10 minut.

TSzya-che (E 6) – pastki jag' burchagidan 1 sm oldinda va yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: yuz nervi va 3 shoxli nerv nevrалgiyasi va nevriti, pastki jag' tishlarida og'riq, parotit, mimik va chaynov mushaklarida tik va kontrakturalar.

Igna sanchish chuqurligi 5 sm, kuydirish 5 minut.

Sya-guan' (E 7)– pastki jag' bo'g'in o'sig'idan oldinda va pastda, chuqurchada joylashgan.

Ko'rsatma: yuz nervi falaji, 3 shoxli nerv nevrалgiyasi, silliq mushaklar kontrakturasi, yuqori jag' tishlarida og'riq, quloqlarda shovqin.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Tou-vey (E 8)– peshona burchagining chakkaga o'tish joyidan 1,5 sm yuqorida, boshning sochli qismida, peshona va tepa suyaklarining birikish joyida.

Ko'rsatma: uch shoxli nerv nevrалgiyasi, boshning chakka va peshona sohalaridagi og'riq, ko'z og'rig'i, ko'zdan yosh oqishi, kon'yuktivit, ko'rish o'tkirligining pasayishi.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 3 – 5 minut.

Jen'-in (E 9)– to'sh-o'mrov-surg'ichsimon mushagi oldingi qirrasida, kalqonsimon tog'ay yuqori qirrasida to'g'risida.

Ko'rsatma: laringit, tonzillit, bronxit, so'lak oqishi, sil limfadeniti.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 – 1 sm, kuydirish mumkin emas.

SHuy-tu (E 10)– to'sh-o'mrov-so'rg'ichsimon mushagi oldingi qirrasining kalqonsimon tog'ay pastki qirrasida to'g'risida.

Ko'rsatma: tomoqda og'riq va shish, poliadenit, ko'kyo'tal, og'ir hansirash, bo'g'ilish.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5 – 10 minut.

TSi-she (E 11)– o'mrovning ichki, to'sh-o'mrov-so'rg'ichsimon mushagi tashqi qirrasida o'rtasida, ko'krak o'rta chizig'idan 1,5 sun' yon tarafda.

Ko'rsatma: laringit, tonzillit, bronxit, ko'kyo'tal, bo'g'ilish, zob, poliadenit.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5 – 10 minut.

TSyue-pen' (E 12) – o'mrov usti chuqurchasi o'rtasida, ko'krakning o'rta chizig'idan 4 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: bo'yin va elka sohasi mushaklari mioziti, bronxial astma, plevrit, tonzillit, ko'krakda noxush sezgi.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 – 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

TSi-xu (E 13)– sut bezi so'rg'ichi chizig'i bo'ylab o'mrov suyagi ostida, o'rtasida, joylashgan.

Ko'rsatma: surunkali bronxit, bronxial astma, plevrit, hansirash, ko'krak va elka sohalarida og'riq, hiqichoq, ko'kyo'tal.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5 – 10 minut.

Ku-fan (E 14)– sut bezi so'rg'ichi chizig'i bo'yicha I qovurg'a oralig'ida, TSi-xu (E 13) nuqtasidan pastda.

Ko'rsatma: bronxit, plevrit, balg'amli yo'tal, hansirash, ko'krakda og'riq, isteriya.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 10 – 20 minut.

U-i (E 15) – sut bezi so'rg'ichi chizig'i bo'yicha II qovurg'a oralig'ida.

Ko'rsatma: bronxit, hansirash, yo'tal, plevrit, qovurg'alararo nevrалgiya, sut bezi sohasida og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 10 – 20 minut.

In-chuan (E 16) – sut bezi so'rg'ichi chizig'i bo'yicha III qovurg'a oralig'ida.

Ko'rsatma: yo'tal, hansirash, bo'g'ilish, bronxial astma, qovurg'alararo nevrалgiya, mastit, ichaklar spazmi.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 10 – 20 minut.

Ju-chjun (E 17) – sut bezi so'rg'ichi markazida.

Igna sanchish va kuydirish o'tkazilmaydi.

Ju-gen' (E 18) – sut bezi so'rg'ichi chizig'i bo'yicha V qovurg'a oralig'ida.

Ko'rsatma: mastit, gipogalaktiya, qovurg'alararo nevrалgiya, bronxit, plevrit.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5 – 10 minut.

Bu-jun (E 19) – oldingi o'rta chiziqdan 2 sun' lateral tomonda, VIII qovurg'aning to'shga birikish joyining pastki qirrasida, ko'krakning 2-yon chizig'ida va kindikdan 6 sun' yuqorida, TSzyuy-tsyue (VS 14) nuqta sohasida.

Ko'rsatma: oshqozon kasalliklari, jigar, o'pka kasalliklari, qovurg'alararo nevrалgiya, yurak sohasida og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 10-20 minut.

CHen-man' (E 20) – Bu-jun (E 19) nuqtasidan 1 sun' pastda.

Ko'rsatma: oshqozon ichak trakti kasalliklari, qovurg'alararo nevrалgiya, qon tuflash, qabziyat.

Igna sanchish chuqurligi 5 sm, kuydirish 10 – 20 minut.

Lyan-men' (E 21)– Bu-jun (E 19) nuqtasidan 2 sun' pastda.

Ko'rsatma: o'tkir gastrit, oshqozon spazmi, oshqozon yara kasalligi, ko'ngil aynish, qusish, ich ketishi.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 – 2,5 sm, kuydirish 10-20 minut.

Guan'-men' (E 22)– Bu-jun (E 19) nuqtasidan 3 sun' pastda.

Ko'rsatma: oshqozon kasalliklari, kindik atrofida og'riq, ichak sanchig'i, qabziyat, meteorizm, astsit.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 – 2 sm, kuydirish 10-20 minut.

Tay-i (E 23) – Bu-jun (E 19) nuqtasidan 4 sun' pastda, Sya-van' (VS 10) nuqtasi to'g'risida.

Ko'rsatma: depressiv xarakterdagi nerv – ruhiy buzilishlar, oshqozon ichak trakti buzilishlari, enurez.

Igna sanchish chuqurligi 1,5-2 sm, kuydirish 10-20 minut.

Xua-jou-men' (E 24) – Tay-i (E 23) nuqtasidan 1 sun' pastda, SHuy- fen' (VS 9) nuqtasi to'g'risida joylashgan.

Ko'rsatma: oshqozon va ichak surunkali kasalliklari, til osti bezi yallig'lanishi, glossit, til abtsessi, ginekologik kasalliklar, maniakal holatlar.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 – 2,5 sm, kuydirish 10-20 minut.

Tyan'-shu (E 25) – qorin to'g'ri mushagi tashqi qirrasida, kindik to'g'risida.

Ko'rsatma: o'tkir va surunkali gastrit, xoletsistitda og'riq sindromlari, o'tkir appenditsitda va qorin bo'shlig'i surunkali kasalliklarida og'riq sindromi, dizenteriya, ginekologik kasalliklar, isitma holatlari, malyariya.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 – 2 sm, kuydirish 10 – 20 minut.

Vay-lin (E 26)– qorinning 2 –yon chizig'ida, oldingi o'rta chiziqdan 2 sun' chetda, kindikdan 1 sun' pastda.

Ko'rsatma: qorin to'g'ri mushagi spazmi, ichakning og'riqli spastik holatlari, ichak nevrozi.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 – 2,5 sm, kuydirish 10-20 minut.

Da-tszyuy (E 27)– qorinning 2 –yon chizig'ida, kindikdan 2 sun' pastda.

Ko'rsatma: ichak sanchig'i, qabziyat, uyqusizlik, siydik tutilishi, pollyutsiya, vaqtdan oldin eyakulyatsiya.

Igna sanchish chuqurligi 2 – 3 sm, kuydirish 10-20 minut.

SHuy-dao (E 28) – qorinning o'rta chizig'idan 2 sun' chetda, kindikdan 3 sun' pastda, Guan'-yuan' (VC 4) nuqta to'g'risida.

Ko'rsatma: urologik kasalliklar, nefrit, orxit, epididimit, endometrit, adneksit, dismenoreya.

Igna sanchish chuqurligi 2,5 – 3 sm, kuydirish 10-20 minut.

Guy-lay (E 29)– kindikdan 4 sun' pastda, qorinning o'rta chizig'idan 2 sun' yonda.

Ko'rsatma: siydik-tanosil sistema kasalliklari, asosan ayollarda.

Igna sanchish chuqurligi 2,5 sm, kuydirish 10-20 minut.

TSi-chun (E 30)– qorin o'rta chizig'idan 2 sun' chetda, qov suyaklari yuqori qirrasida.

Ko'rsatma: jinsiy a'zo kasalliklari, churra og'riqlari, hamrohni tushishini qiyinlashuvi, og'riqli hayz, tuxumdonda doimiy og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 2 sm, kuydirish 5-10 minut. (homiladorlik davrida tavsiya etilmaydi).

Bi-guan' (E 31)– chov burmasi o'rtaida, tizza qopqog'idan 12 sun' yuqorida.

Ko'rsatma: oyoqlarda harakat va sezgi buzilishlari, lyumbalgiya, chov limfadeniti, ishias, orqa chiqaruv teshigi sohasida og'riq, migren'.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 – 2 sm, kuydirish 5-10 minut.

Fu-tu (E 32) – tizza qopqog'idan 6 sun' yuqorida, sonning to'g'ri mushagi qorinchasida.

Ko'rsatma: tizza bo'g'imida sovqotish va harakat buzilishi, bel sohasida og'riq, meteorizm, endometrit.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 – 2 sm, kuydirish 10-20 minut.

Lyan-tsyu (E 34)– tizza qopqog'i yuqori qirrasidan 2 sun' yuqorida, son to'g'ri muskuli tashqi qirrasida.

Ko'rsatma: son va tizzada bo'ladigan og'riq, oyoqlarda sezgi va harakat buzilishi, sut bezidagi og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 10-20 minut.

Du-bi (E 35) – tizza qopqog'ining pastida va lateral qirrasida, katta boldir suyagining yuqori qismida.

Ko'rsatma: gonit, tizza bo'g'imida og'riq va funktsiyaning buzilishi.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 10-20 minut.

TSzu-san'-li (E 36) – tizza qopqog'i pastki qirrasidan 3 sun' pastda. Juda muhim nuqta.

Ko'rsatma: oshqozon funktsiyasining buzilishi, oshqozon va 12 barmoq ichak yara kasalligi, qusish, ich ketishi, enterit, qabziyat, meteorizm, siydik tutolmaslik yoki tutilishi, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, gipertoniya, oyoqlarda harakat va sezgi buzilishlari, isitma holatlari, tizza bo'g'imida og'riq va harakat buzilishi.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 – 2 sm, kuydirish 10-20 sm.

SHan-tszyuy-syuy (E 37)– katta boldir mushagi qorinchasida, (E 38) nuqtasidan 2 sun' yuqorida, tizza qopqog'i markazidan 7 sun' pastda.

Ko'rsatma: oyoqlarda harakat va sezgining buzilishi, gastrit, enterokolit, ichak sanchishi, dizenteriya, tizza bo'g'imida og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Tyao-kou (E 38)– tashqi to'piqdan 6 sun' yuqorida, katta va kichik boldir suyaklar o'rtasida.

Ko'rsatma: oyoqlarda harakat va sezgining buzilishi, gonit, oshqozon-ichak kasalliklari, tonzillit.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Sa-tszyuy-syuy (E 39)– tashqi to'piqdan 5 sun' yuqorida, boldir suyaklari o'rtasida.

Ko'rsatma: oyoqlarda harakat va sezgining o'zgarishlari, miozit, oshqozon-ichak kasalliklari, mastit, bosh miyada qon aylanishining buzilishi.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 10-20 minut.

Fen-lun (E 40)– E 37 nuqtasi bilan birta gorizontal chiziqda, 1 sun' lateral tomonda.

Ko'rsatma: qorinda og'riq, ko'krak sohasi va tomoqdagi og'riq, o'tkir bosh og'rig'i, qabziyat, siydik tutilishi, jigar kasalliklari, oyoqlarda harakat va sezgi buzilishlari, bosh aylanishi, ruhiy buzilishlar, tutqanoq, epilepsiya.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

TSze-si (E 41)– oyoq kafti bukilmasida bosh barmoqni yoyuvchi mushaklari boylami o'rtasida.

Ko'rsatma: boldir mushaklari atrofiyasi, pastki muchalar mioziti, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, yuz shishi, tish og'rig'i, mastit.


Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 5-20 minut.

CHun-yan (E 42)– oyoq kafti ustki yuzasining eng yuqori joyida, II -III ponasimon suyaklar va II – III tovon suyak bo'g'imlari o'rtasida.

Ko'rsatma: oyoqning orqa yuzasidagi og'riq va shish, oyoq bo'g'inlari yallig'lanishi, gastralgiya, meteorizm, anoreksiya, qusish, yuz shishi, qovok ptozi, tish og'rig'i, gingivit, ruhiy o'zgarishlar.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Syan'-gu (E 43) – II – III oyoq kafti suyaklari orasining eng keng joyida.



Rasm 15. Oshqozon meridiani

Ko'rsatma: oyoq kaftida og'riq, qorinda quldirash, astsit, yuz shishi, kon'yuktivit, kechki terlash, isitma holatlari.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Ney-tin (E 44) – II –III oyoq kaft falanga bo'g'inlari oldidagi chuqurchada.

Ko'rsatma: oshqozon ichak kasalliklari, dizenteriya, tish og'rig'i, bosh og'rig'i, burundan qon ketish, oyoq shishi va og'rig'i.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5 – 20 minut.

Li-duy (E 45)– II oyoq panjasi tirnoq ildizidan 0,3 sm lateral tomonda.

Ko'rsatma: tez yordam, yuz shishi, yuz nervi parezi, burundan qon ketish, tish og'rig'i, qorinda dam va og'riq, astsit, qo'rqinchli tush ko'rish, isitmaholatlari.

Igna sanchish chuqurligi 0,3 sm, kuydirish 3-5 minut.

Standart nuqtalar.

1. Tonusni oshiruvchi – TSze-si (E 41)
2. Tinchlantiruvchi – Li-duy (E 45)
3. Manba – CHun-yan (E 42)
4. Mo'tadillovchi– Fen-lun (E 40)
5. Signal – CHjun-van' (VS 12)
6. Og'riq qoldiruvchi – Lyan-tsyu (E 34)
7. Hamdard – Vey-shu (V 21)

IV. Taloq – oshqozon osti bezi meridiani (RP)

Taloq – oshqozon osti bezi meridiani in' sistemasiga kirib, energiya harakati markazga intiluvchi meridian hisoblanadi. Uning maksimal aktivlik davri soat 9 dan 11 gacha, minimal aktivlik davri soat 11 dan 13 gacha.

Meridianning tashqi yo'li oyoq bosh barmog'i tirnoq ildizidan 0,3 sm ichkarisidan boshlanib yuqoriga tizza va sonning old ichki chizig'i bo'ylab ko'tarilib chov burmasining o'rtasigacha boradi, so'ngra qorin oldingi devori bo'ylab oldingi o'rta chizikdan 4 sun' tashqaridan va ko'krak qafasida so'rg'ich chiziq bo'ylab ko'tarilib, ikkinchi qovurg'a oralig'igacha ko'tariladi va shu erdan pastga qaytib o'rta qo'ltiq chizig'i bo'yicha oltinchi qovurg'a oralig'ida Da-bao (RP –21) nuqtasida tugaydi (rasm 16).

Meridianning ichki yo'li qorinning pastki qismidan qorin bo'shlig'iga kiradi, taloq va oshqozongacha boradi. Ichki yo'l ikkita shoxchadan iborat. Birinchisi, CHjun-van' (VS 12) nuqtasidan diafragma gacha boradi va undan o'tib yurakka boradi va yurak meridiani bilan qo'shiladi. Ikkinchi shoxchasi Da-bao (RP 21) nuqtasidan boshlanib traxeya, tomoq, halqumdan o'tib til ildiziga boradi. Taloq – oshqozon osti bezi meridianida 21 ta akupunktur nuqta mavjud.

Taloq - oshqozon osti bezi meridiani bilan bog'liq bo'lgan asosiy patologik simptomlar: epigastral sohada og'riq, ko'ngil aynishi, qusish, ishtahani yo'qligi, ich ketish, qabziyat, yutinishning qiyinlashuvi, tildagi og'riq, oyoqning ichki tomonidagi shishlar, oyoq bosh barmog'i harakatining chegaralanib qolishi, sariqlik, oyoqlarning sovuq qotishi, siydik ajratish sistemasi kasalliklari.

In-bay (RP 1)– oyoq bosh barmog'i tirnoq ildizidan 0,3 sm ichkarida joylashgan.

Ko'rsatma: kollaps, hushdan ketish, bolalarda tutqanoq, qorinda shish, oyoqlar sovuq qotishi, qusish, ich ketishi, amenoreya, bachadondan qon ketish, podagradagi og'riqlar.

Igna sanchish chuqurligi 0,3 sm, kuydirish 3 minut.

Da-du (RP 2)– tovon 1 - barmoq falanga asosi va birinchi panja suyagi boshchasi o'rtasida joylashgan.

Ko'rsatma: oyoq panjasidagi og'riq, medial to'piq va tizza bo'g'inidagi og'riq, ich ketishi, oshqozondagi spastik og'riqlar, qabziyat, isitma holati, bolalar tutqanog'i. Tug'ruqdan keyin va homilador ayollarda igna sanchish mumkin emas.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 –1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Tay-bay (RP 3)– tovonning ichki yuzasida 1- barmoq suyagi boshchasi ostidagi chuqurchada aniqlanadi.

Ko'rsatma: tovonida og'riq va shish, oshqozondagi og'riq, dizenteriya, beldagi og'riq, gemorroy, tutqanoq, yuqori harorat.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Gun'-sun' (RP 4)– tovonning ichki yuzasida, birinchi barmoq suyagining old pastki qirrasida.

Ko'rsatma: tovonidagi og'riq, oyoqdagi shishlar, oshqozon ichak trakti kasalliklari, bachadondan qon ketish, epileptik tutqanoq, o'z – o'zidan bola tushirish belgilari bo'lganda. Oshqozon ichak traktidan qon ketganda RP 4 nuqtasiga E 36, MS 6 va E 44 nuqtalari bilan birga ta'sir o'tkazish kerak.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

SHan-tsyu (RP 5) – ichki to'piqning oldida va pastida joylashgan, ya'ni qayiqsimon suyak va ichki to'piq orasidagi chuqurchada.

Ko'rsatma: medial to'piq atrofidagi og'riq va shishlar, sonning ichki yuzasidagi og'riqlar, oshqozon – ichak kasalliklari, taloqning kattalashishi, sariqlik, bolalarda epileptik tutqanoqlar.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

San'-in'-tszyao (RP6)– medial to'piq markazidan 3 sun' yuqorida, katta boldir suyagining orqa kirg'og'ida.

Ko'rsatma: ayollar va erkaklardagi jinsiy buzilishlar, endokrin – gormonal buzilishlar, klimaks, patologik tug'ruq, impotentsiya, orxit, siydik chiqishining qiyinlashuvi, enurez, buyrak sanchig'i, nevrasteniya, psixasteniya, uyquning buzilishi, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, oyoqlar parezi va falaji.

Igna sanchish chuqurligi 1–2 sm, kuydirish 10 – 20 minut.

Loa-gu (RP 7)– medial to'piqdan 6 sun' yuqorida, katta boldir suyagi orqa qirg'og'ida.

Ko'rsatma: oshqozon ichak kasalliklari, meteorizm, boldir va tizza bo'g'inlari og'rig'i, boldirning sovuq qotishi.

Igna sanchish chuqurligi 1 – 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Di-tszi (RP 8) – katta boldir suyagi orqa qirg'og'ida, medial to'piqdan 8 sun' yuqorida.

Ko'rsatma: ovqat hazm qilish organlari kasalliklari, oshqozon spaz-mi, meteorizm, ich ketishi, dizenteriya, surunkali endometrit, hayz tsikli-ning buzilishi, dizuriya, patologik pollyutsiya, impotentsiya, beldagi og'riqlar.

Igna sanchish chuqurligi 1–2 sm, kuydirish 5-10 minut.

In-lin-tsyuan'(RP 9)– katta boldir suyagi ichki egatchasi orqa pastki qirg'og'idagi chuqurchada, tizza qopqog'i pastki qirrasidan 2 sun' pastda joylashgan.

Ko'rsatma: tizza bo'g'inida shish va og'riq, siydikni tutolmaslik va siydik chiqmasligi, tsistit, impotentsiya, patologik pollyutsiya, hayz tsiklinig buzilishi, dispepsiya, ich ketishi, ichak sanchig'i, qorinda sovuqlik sezish.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 –2 sm, kuydirish 3-10 minut.

Syuya-xay (RP 10)– sonning ichki yuzasida, tizza qopqog'idan 2 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: sonning ichki yuzasidagi og'riq, oyoqning trofik yaralari ginekologik kasalliklar, endometrit, metrorragiya, enurez.

Igna sanchish chuqurligi 1 – 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

TSzi-men' (RP 11) – sonning ichki yuzasida, tizza qopqog'idan 6 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: og'riqli siyish, enurez, chov sohasidagi og'riq, sondagi og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

CHun-men' (RP 12) – chov burmasi o'rtasida, qorinning o'rta chizig'idan 3,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: qorinning pastgi sohasidagi og'riq, orxit, chov churrasi, prostatit, endometrit.

Igna sanchish chuqurligi 1,5–2 sm, kuydirish 5-10 minut.

Fu-she (RP 13) – qorin o'rta chizig'idan 3,5 sun' tashqarida, RP 12 nuqtasidan 2 sm yuqorida.

Ko'rsatma: xolera, ichak kasalliklari, apenditsitda og'riq, splenomegaliya.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Fu-tsze (RP 14) – qorin o'rta chizig'idan 4 sun' tashqarida va kindik sohasidan 1,3 sun' pastda.

Ko'rsatma: ichak sanchig'i, dizenteriya, qabziyat, prostatit, impotentsiya.

Igna sanchish chuqurligi 1,5–2 sm, kuydirish 10-20 minut.

Da-xen (RP 15)– qorin o'rta chizig'idan 4 sun' tashqarida, kindik sathida joylashgan.

Ko'rsatma: qabziyat, ich ketish, o'tkir va surunkali enterokolit, dizenteriya, asteniya.

Igna sanchish chuqurligi 2–3 sm, kuydirish 10-20 minut.

Fu-ay (RP 16) – qorin o'rta chizig'idan 4 sun' tashqi tomonda, kindik sathidan 3 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: oshqozon va 12 barmoqli ichak yara kasalligi, oshqozon va ichakdan qon ketish, dizenteriya.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 10-20 minut.

SHi-doi (RP 17) – ko'krak o'rta chizig'idan 6 sun' tashqarida V qovurg'a oralg'ida joylashgan.

Ko'rsatma: qovurg'alararo nevrалgiya, o'ng nuqta asosan gepatitga xarakterli, bronxit, pnevmoniya, kekirish.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 30-40 minut.

Tyan'-si (RP 18) – ko'krak o'rta chizig'idan 6 sun' tashqarida IV qovurg'a oralg'ida joylashgan.

Ko'rsatma: qovurg'a osti va ko'krak sohasidagi og'riq, qovurg'alararo nevrалgiya, gipogalaktiya, mastit, nafas olish organlari kasalliklari.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 10-20 minut.

Syun-syan (RP 19)– ko'krak o'rta chizig'idan 6 sun' tashqarida III qovurg'a oralg'ida.

Ko'rsatma: bronxit, plevrit, elkadagi og'riq, qizilo'ngach spazmi, qovurg'alararo nevrалgiya.

Igna sanchish chuqurligi 1 – 1,5 sm, kuydirish 10-20 minut.

CHjou-jun (RP 20)– ko'krak o'rta chizig'idan 6 sun' tashqarida II qovurg'a oralg'ida joylashgan.

Ko'rsatma: qovurg'alararo nevrалgiya, yo'tal, nafas qisishi, anoreksiya, disfagiya, ko'krakdagi og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 10–15 minut.


Da-bao (RP 21)– o'rta qo'l'tiq osti chizig'i bo'yicha VI qovurg'a oralg'ida.

Ko'rsatma: ko'krakdagi og'riq, nafas qisishi, qovurg'alararo nevrалgiya, jigar kasalliklari.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 10-15 minut.

Standart nuqtalar.

1. Tonusni oshiruvchi – Da-du (RP 2)
2. Tinchlantiruvchi – SHan-tsyu (RP 5)
3. Manba – Tay-bay (RP 3)
4. Mo'tadillovchi– Gun'-sun' (RP 4)
5. Signal – CHjan – men' (F 13)
6. Og'riq qoldiruvchi – Di-tszi (RP 8)



V.Yurak meridiani (C)

Yurak meridiani markazdan qochuvchi meridian bo'lib, in' sistemasiga kiradi. Maksimal aktivlik davri soat 11 dan 13 gacha, minimal aktivlik davri soat 13 dan 15 gacha. Yurak meridiani energiyani taloq va oshqozon osti bezi meridianidan olib ingichka ichak meridianigaberadi. Yurak meridianining ichki yo'li Yurakdan boshlanib o'pkaga boradi, tashqariga qo'ltik osti sohasiga chiqadi (rasm 17). Meridianning ichki yo'li 2 tarmoqqa bo'linadi.:

- Birinchisi, traxeya, halqum, tomoqning yon yuzasi bo'ylab yuqoriga ko'tariladi va ko'z olmasigacha boradi, shu erda bosh miya bilan bog'lanadi.
- Ikkinchisi pastga tushib diafragmadan o'tadi va ingichka ichak bilan bog'lanadi.

Meridianning tashqi yo'li TSzi – tsyuan' (S 1) nuqtasidan, ya'ni qo'ltiq osti chuqurchasi sohasidan boshlanadi va qo'lning kaft tirsak chizig'i bo'ylab V barmoqning falangasigacha boradi. SHu erda meridian ingichka ichak meridiani bilan tutashadi. Yurak meridianining 9 taakupunktur nuqtasi mavjud.

Yurak meridiani bilan bog'liq bo'lgan asosiy patologik simptomlar: Yurak sohasidagi og'riqlar, Yurak tez urishi, Yurak ritmining buzilishi, bosh miyada qon aylanishining buzilishi, bosh og'rig'i, melankoliya, qo'rquv, ichki bexotirjamlik, xotiraning pasayishi, isteriya, jigar vao't pufagi faoliyatining buzilishi holatlari.

Tszi-tsyuan' (C 1)—qo'ltiq osti chuqurchasi markazida, qo'ltiq osti arteriyasining medial qirrasida joylashgan.

Ko'rsatma: Yurak sohasidagi og'riqlar, qo'llarning sovuqqotishi va og'rig'i, qo'llar harakati funksiyasining buzilishi, isteriya, skleraning sarg'ayishi.

Ignasanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 5-20 minut.

Tsin-lin (C 2)—ikki boshli mushak ichki qirrasida, tirsak bo'g'imi burmasidan 3 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: qo'l va Yurak sohasidagi og'riqlar, qovurg'a sohasidagi og'riq, sklera sarg'ayishi.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, lekin bu erda katta qon tomirlari borligi uchun ignaterapiya juda kam o'tkaziladi, kuydirish 5-10 minut.

Shao-xay (C 3)—tirsak bo'g'ini burmasida, ikki boshli mushakning tirsak qirrasida joylashgan.

Ko'rsatma: tirsak bo'g'ini mushaklarining kontrakturasi, qo'lda sezuvchanlikning pasayishi, qo'l barmoqlarining titrashi, Yurak sohasidagi og'riq, xotiraning pasayishi, ruhiy buzilishlar, bosh aylanishi.

Ignasanchish chuqurligi 0,5 – 1,5 sm, kuydirish 5 –10 minut.

Lin-dao (C 4)– bilak burmasidan 1,5 sun' yuqorida, bilak suyagi tomonda joylashgan.

Ko'rsatma: Yurak sohasidagi og'riq, paroksizmal taxikardiya, qo'rquv sezgisi, ovozning qo'qqisidan yo'qolishi.

Ignasanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Tun-li (C 5)– bilak kaft burmasidan 1 sun' yuqorida, kaftning tirsak tomon bukuvchi paylar orasida hosil bo'ladigan chuqurchada.

Ko'rsatma: kaft va bilak sohasidagi og'riq, Yurak sohasida nevrogen og'riqlar, isitma holatlari, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, ko'zdagi og'riq, elkadagi og'riq, nutqning yo'qolishi.

Ignasanchish chuqurligi 0,5 –1 sm, kuydirish 10-20 minut.

In'si (C 6)– bilak kaft burmasidan 0,5 sun' yuqorida, paylar orasidagi chuqurchada joylashgan.

Ko'rsatma: paroksizmal taxikardiya, tirsak nervining jarohatlanishi, xavotirlik, bosh aylanishi va og'rig'i, tungi terlash, burundan qon ketishi, qonliqusish, psixozlar.

Ignasanchish chuqurligi 0,5–1 sm, kuydirish 10-20 minut.

SHen'-men' (C 7)– bilak kaft bo'g'im burmasining tirsak qirrasida, no'xatsimon va tirsak suyagi oralig'idagi chuqurchada.

Ko'rsatma: psixoz va nevroz, uyqusizlik, xotiraning pasayishi, Yurak kasalliklari, arterial gipertenziya, skleraning sarg'ayishi, epilepsiya.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 10-20 minut.

SHao-fu (C 8)– IV – V kaft suyaklari orasining eng keng qismiga to'g'ri keladi.

Ko'rsatma: Yurak sohasidagi og'riq, nevrogen taxikardiya, qo'l barmoqlarining qaltirashi, siydikni tuta olmaslik yoki tutilib qolishi.

Ignasanchish chuqurligi 0,5–1 sm, kuydirish 5-10 minut.


SHao-chun (C 9)– jimjiloq barmoqning oxirgi falangasi tirnoq ildizidan 0,3 sm chetda joylashgan.

Ko'rsatma: nevrogen taxikardiya, Yurak sohasidagi og'riq, aritmiya, bo'g'ilish, asteniya, depressiya, qo'rquv holati, miyada qon aylanishining buzilishi, sariqlik, tez yordam ko'rsatish.

Ignasanchish chuqurligi 0,3 sm, kuydirish 6-10 minut.

Standart nuqtalar.

1. Tonuslovchi – SHao-chun (C 9)
2. Tinchlantiruvchi – SHen'-men' (C 7)
3. Manba – SHen'-men' (C 7)
4. Mo'tadillovchi – Tu-li (C 5)
5. Signal – TSzyuy-tsyue (VC 14)
6. Og'riqsizlantiruvchi – In'-si (C 6)
7. Hamdard – Sin'-shu (V 15)



Rasm 17. Yurak meridiani
VI. Ingichkaichakmeridiani (IG)

Ingichka ichak meridiani juft, simmetrik va markazga intiluvchi, YAn sistemasiga mansub, maksimal aktivlik davri soat 13 dan 15 gacha, minimal aktivligi soat 15 dan 17 gacha. Meridian tashqi yo'li qo'lning V barmoq tirnoq ildizidan 0,3 sm tashqarida, tirsak tomondan boshlanib panja tashqi yuzasidan yuqoriga yo'naladi va elka suyagi ichki do'mboqchasi bilan tirsak suyagi o'simtasi o'rtasida hosil bo'lgan egatchada joylashgan (IG 8) Syao-xay nuqtasiga boradi. U erdan meridian yo'li elkagacha o'tadi. Elka tashqi orqa yuzasi bo'ylab yo'nalib kurak sohasiga o'tadi, so'ng yuqoriga yo'nalib akromion o'siqqa boradi. Keyin ko'krak sohasida Da-chjuy (T 14) nuqtasida qarama – qarshi meridian bilan uchrashadi. Meridian yuqoriga yo'nalib elka sohasini aylanib o'tib, o'mrov usti chuqurchasiga boradi, shu erdan meridianning ichki yo'li boshlanadi.

Meridian tashqi yo'li yuqoriga ko'tarilib bo'yinga, pastki jag' burchagiga, to'sh-o'mrov-so'rg'ichsimon mushak oldingi qirg'og'ida joylashgan Tyan'-jun (IG 17) nuqtasiga, undan yonoq suyagiga, ko'zning tashqi burchagiga, undan o'tkir burchak ostida qaytib quloq suprasi oldiga keladi va Tin-gun (IG 19) nuqtasida tugaydi. Tyan' – jun (IG 17) nuqtada tashqi yo'li tarmoq beradi. U yuqoriga yo'nalib yonoqqa va ko'zni ichki burchagiga boradi va siydik pufagi meridiani bilan bog'lanadi. Meridian ichki yo'li o'mrov usti chuqurchasidan boshlanadi, pastga yo'naladi, Yurakka boradi, qizilo'ngach yon tomoni bilan yo'nalib diafragmadan o'tadi, oshqozonga va ingichka ichakka boradi (rasm 18). Meridianning 19 ta akupunktur nuqtasi mavjud.

Ingichka ichak meridiani bilan bog'liq bo'lgan asosiy patologik simptomlar: qorin sohasidagi og'riqlar, ich qotishi va ich ketishi, elka bo'g'imidagi og'riq, sariqlik, bo'g'in ensa sohasi mushaklarining qisqarishi, pastki jag'ning shishi va og'rig'i, eshitishning pasayishi, gipertermiya, asab ruhiy o'zgarishlar.

SHao-tsze (IG 1)– V barmoq tirnoq ildizidan 0,3 sm tashqarida.

Ko'rsatma: Yurak sohasidagi og'riq, taxikardiya, gipogalaktiya, qo'ldagi og'riq, ensa mushaklari taranglashishi, burundan qon ketishi, bosh og'rig'i, koma va hushdan ketganda tez yordam ko'rsatish.

Ignasanchish chuqurligi 0,3 sm, kuydirish 3-5 minut.

TSyan'-chu (IG 2)– jimjiloq barmoq falangasi asosining tirsak tomonida.

Ko'rsatma: qo'l barmoqlaridagi og'riq, qichish va paresteziya, ensa sohasidagi og'riq, burundan qon ketish, quloqdagi shovqin, epilepsiya.

Igna sanchish chuqurligi 0,3 sm, kuydirish 3-5 minut.

Xou-si (IG 3) – V barmoq kaft suyagi bo'g'ini orqasidagi chuqurchada, tirsak tomonida.

Ko'rsatma: bo'yin ensa sohasi mushaklari taranglashuvi, elka va qo'l mushaklari taranglashuvi, quloqdagi shovqin, burundan qon ketish, epileptik tutqanoq, qaltiroq bilan kechadigan isitma.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 10 –15 minut.

Van'-gu (IG 4) – V kaft suyagi va qirrali suyak orasidagi chuqurchada joylashgan.

Ko'rsatma: qo'llarning spastik falaji va og'riqlari, ko'rishning pasayishi, sariqlik, epilepsiya, quloklarda shovqin.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-15 minut.

YAn-gu (IG 5) – qirrali suyak va tirsak suyagi bigizsimon o'simta orasidagi chuqurchada joylashgan.

Ko'rsatma: qul panjalaridagi og'riq, eshitishning susayishi, stomatit, quloqdagi shovqin, tish og'rig'i, maniakal holat, poliomieli.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 5 –10 minut.

YAn-lao (IG 6) – tirsak suyagining yuza qismida IG 5 nuqtasidan 1 sun' yuqorida.

Ko'rsatma: qo'l sohasidagi sezish va harakatning buzilishi, bosh og'rig'i, ko'rishning pasayishi, miopiya, kon'yuktivit.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 – 1 sm, kuydirish 5 minut.

CHji-chjen (IG 7) – bilak kaft bo'g'inidan 5 sun' yuqorida.

Ko'rsatma: qo'l va barmoq mushaklari kontrakturasi, ensa mushaklarining taranglashuvi, pastki jag'dagi og'riq, maniakal holat, nevasteniy, qo'rquv holati.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Syao-xay (IG 8)– elka suyagi ichki do'mboqchasi va tirsak suyagi o'simtasi orasidagi egatchada joylashgan.

Ko'rsatma: tirsak bo'g'inida shish va og'riq, elkadagi og'riq, gingivit, karlik, tish og'rig'i.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

TSzyan'-chjen' (IG 9)– elka suyagi va kurak orasida, qo'ltiq osti chuqurchasining orqa pastki qirrasida, qo'ltiq osti burmasidan 1 sun' yuqorida.

Ko'rsatma: elka, kurak sohasidagi og'riq, pastki jag'dagi nevrologik og'riqlar, meningoentsefalit, karlik, quloqdagi shovqin.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 – 2 sm, kuydirish 5 –10 minut.

Nao-shu (IG 10)– elka bo'g'inining orqa qirrasida, orqa qo'ltiq osti chizig'i vertikal bo'ylab kurakning pastki qirrasidagi chuqurchada joylashgan.

Ko'rsatma: elka bo'g'inining harakatchanligini buzilishi va og'rig'i, bo'yin, pastki jag' sohasidagi og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 –2 sm, kuydirish 5-10 minut.

Tyan'-tszun (IG 11) – kurak osti chuqurchasining markazida, ya'ni IG 12 nuqtadan o'tuvchi vertikal chiziq va IG 9 nuqtadan o'tuvchi gorizontl chiziqlarning kesishgan joyida.

Ko'rsatma: kurak sohasidagi harakat va sezishning buzilishi, elkadagi og'riq, qovurg'alararo nevralti.

Igna sanchish chuqurligi 1 – 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Bin-fen (IG 12)– kurak suyagi yuqori qirasi o'rtasidagi chuqurchada.

Ko'rsatma: elka bo'g'inidagi og'riq, kurak sohasidagi mushaklar falaji, qovurg'alararo nevralti.

Igna sanchish chuqurligi 1 –1,5 sm, kuydirish 5- 10 minut.

TSyuy-yuan' (IG 13)– kurak suyagining yuqori chetida, II ko'krak umurtqasi o'siqsimon o'simtasi, hamda IG 10 nuqta orasidagi masofaning o'rtasida joylashgan.

Ko'rsatma: elka, kurak sohasida harakatning chegaralanishi va og'rig'i, nafas qisilishi va tirsak nervining nevrалgiyasi.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 – 2 sm, kuydirish 5-10 minut.

TSzyan'-vay-shu (IG 14)– 1 - 2 ko'krak umurtqalari orasidagi gorizontal chiziq va kurakning ichki qirrasi kesishgan joyda.

Ko'rsatma: elka, kurak sohasi nervlarining falaji va og'rig'i, bronxit, bo'yin – ensa sohasidagi og'riqlar, qon bosimining pasayishi.

Igna sanchish chuqurligi 2 sm, kuydirish 5-10 minut.

TSzyan'-chjun-shu (IG 15) – I ko'krak umurtqasi so'rg'ichsimon o'simtasidan 2 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: yo'tal, nafas qisilishi, bo'yin – ensa sohasidagi og'riq, bronxial astma, o'pkadan qon ketishi, boshning ichki bosimi va qon bosimi oshgandan bosh og'rig'i va bosh aylanishi.

Igna sanchish chuqurligi 1-2 sm, kuydirish 5-10 minut.

Tyan'-chuan (IG 16)– ko'krak-o'mrov-so'rg'ichsimon mushagi orqa qirrasi o'rtasida, arteriya pul'satsiya aniqlanadigan joyda.

Ko'rsatma: ko'krak va bo'yin ensa sohasidagi og'riqlar, karlik, quloqlarda shovqin, qovurg'alararo nevrалgiya, ovozning yo'qolishi, tomoqdagi og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5- 10 minut.

Tyan'-jun (IG 17) – quloq yumshog'i asosining pastida, pastki jag' burchagi va ko'krak-o'mrov-so'rg'ichsimon mushak oldingi cheti orasidagi chuqurchada joylashgan.

Ko'rsatma: quloqda shovqin, eshitishning pasayishi, otit, bo'yin-ensa sohasidagi og'riq, bo'yin qiyshiqiligi, plevrit, qovurg'alararo nevrалgiyada, hansirash.

Igna sanchish chuqurligi 1 – 2 sm, kuydirish 15-10 minut.

TSyuan'-mo (IG 18)– yonoq suyagi pastki chetidagi chuqurchada, ko'zning tashqi burchagidan pastda.

Ko'rsatma: yuz nervining periferik falaji, yuzdagi shish, qovoq ptozi, tish og'rig'i.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish utkazilmaydi.


Tin-gun (IG 19) – pastki jag' bo'g'imi o'simtasi va quloq suprasi o'rtasida, og'iz ochilganda hosil bo'ladigan chuqurchada.

Ko'rsatma: quloqdagi shovqinlar, eshitishning pasayishi, tashqi eshituv yo'lining yallig'lanishi, yuz nervining periferik falaji, qovoq mushaklarining uchishi, afoniya, tish og'rig'i.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 – 1 sm, kuydirish 3-5 minut

Standart nuqtalar

1. Tonusni oshiruvchi –Xou-si (IG3)
2. Tinchlantiruvchi – TSo-xay (IG 8)
3. Manba– Van'-gu (IG4)
4. Mo'tadillovchi – CHji-yuan' (IG7)
5. Signal – Guan'-yuan' (VC 4)
- 6.Og'riq qoldiruvchi – YAn-lao (IG6)
7. Hamdard – Syao-chan-shu (V27)



Rasm 18. Ingichka ichak meridiani

.VII . Siydik pufagi meridiani (V)

Siydik pufagi meridiani – yan sistemasiga kiruvchi, markazdan qochuvchi meridian bo'lib, uning maksimal aktivlik davri soat 15 dan 17 gacha, minimal aktivlik davri soat 17 dan 19 gacha. Energiyani ingichka ichak meridianidan olib buyrak meridianiga beradi. Siydik pufagi meridianining tashqi yo'li ko'zning ichki burchagidan boshlanadi, peshonaga ko'tarilib, tepa sohasig'aytib Bay-xuey (T 20) nuqtasida orqa o'rta meridian bilan uchrashadi. Tepa sohasida Tun-tyan' (V 7) nuqtasidan bosh miya ichiga kiradi va Tyan-chju (V 10) nuqtasida undan chiqadi. Bu erda meridianning tashqi yo'li 2 shoxga ajraladi: tashqi va ichki. U o'z navbatida umurtqa pog'onasiga parallel yo'nalib, ichki shox orqa o'rtachiziqdan 1,5 sun', tashqi shox esa 3,0 sun' lateral o'tadi. Bu 2 shox tizza orqa chuqurchasiga kelib birikadi, hamda boldirning orqa yuzasi bo'ylab, tashqi to'p'iqgacha tushadi. So'ng oyoq panjasi lateral qirg'og'i bo'ylab yunaladi va Vbarmoq tirnoq asosiga borib tugaydi (rasm 19).

Siydik pufagining ichki yo'li bel sohasidan SHen'-gu (V 23) nuqtasida, tashqi meridianning ichki shoxidan boshlanadi. Qorin bo'shlig'iga kirib buyraklar bilan bog'lanadi va siydik pufagiga boradi. Umuman siydik pufagi meridianida 67 taakupunktur nuqta bor.

Siydik pufagi meridiani bilan bog'liq bo'lgan asosiy patologik simptomlar: ko'z sohasida og'riq, ko'zdan yosh oqishi, burundan qon ketish, bosh og'rig'i, ensa sohasida og'riq, bel sohasida og'riq, tashqi jinsiy a'zo kasalliklari, tsistit, tsistalgiya, nefrit, yurak, o'pka, oshqozon ichak trakti kasalliklari, gipertermiya.

TSin-min (V 1)– ko'zning ichki burchagidan 0,3 sm ichkarida joylashgan.

Ko'rsatma: ko'z kasalliklari, kon'yuktivit, ko'rishning pasayishi, burun orqali nafas olishning qiyinlashishi.

Ignasanchish chuqurligi 0,3 sm, kuydirish mumkin emas.

TSuan'-chju (V 2)–TSin-min (V 1) nuqtasidan yuqorida, qosh boshlanish joyida joylashgan.

Ko'rsatma: uch shoxli nerv 1-shoxi nevrologiyasi, yuz nervi falajlanishi, ko'z yoshi oqishi, ko'rishning pasayishi.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish mumkin emas.

Mey-chun (V 3) – TSuan'-chju (V 2) dan 1,5 sun' yuqorida YAn-bay (VV 14) nuqtasi bilan birta gorizontaal chiziqda joylashgan.

Ko'rsatma: uch shoxli nerv nevriti, bosh og'rishi, yuz nervi nevriti, rinit, kon'yuktivit, burundan qon ketish.

Igna sanchish chuqurligi 0,6 sm, kuydirish 3-5 minut.

TSyuy-cha (V 4) – boshning sochli qismi chegarasidan 0,5 sun' yuqorida, boshning o'rtachizig'idan 1,5 sun' chetda.

Ko'rsatma: boshning tepa va peshona sohalarida og'riq, uch shoxli va yuz nervi nevriti, nevralgias, burundan qon ketish, burun poliplari.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 1 – 2 minut.

U-chu (V 5) – boshning o'rtachizig'idan 1,5 sun' chetda, TSyuy-cha (V 4) nuqtasidan 0,5 sun' yuqorida.

Ko'rsatma: bosh og'rig'i, aylanishi, isitma, bo'yin va elkada og'riq, tutqanoq.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 1-3 minut.

CHen-guan' (V 6) – U-chu (V 5) nuqtasidan 1,5 sun' yuqorida, TSyan' – din (T 21) nuqtasi sohasida.

Ko'rsatma: bosh og'rig'i, burun poliplari, rinit, gripp, bosh aylanishi, shok holatidan keyin.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 3-5 minut.

Tun-tsyen (V 7) – CHen-guan' (V 6) dan 1,5 sun' orqada.

Ko'rsatma: rinit, burundan qon ketish, surunkali bronxit.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 3-5 minut.

Lo-tsyue (V 8) – Tun-tyan' (V 7) dan 1,5 sun' orqada T 18 nuqta bilan bir tekislikda.

Ko'rsatma: bosh og'rig'i, yuz va ensada talvasali mushak qisqarishi, quloqda shovqin, ko'rishning susayishi, psixozlar.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 3-5 minut.

YUy-chjen' (V 9) – ensa do'mboqchasi yuqorigi qirrasi, nao-xu (T 19) bilan bir chiziqda.

Ko'rsatma: ensa nervi nevralgias, bosh og'rig'i, gipergidroz, miopiya, yaqinni ko'ra olmaslik.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 3-5 minut.

Tyan'-chju (V 10) – soch o'sish orqa chegarasida, YA-men' (T 15) nuqtasidan 1,3 sun' chetda.

Ko'rsatma: bosh og'rig'i, burundan qon ketish, rinit, laringit, faringit.

Igna sanchish chuqurligi 1 - 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Da-chju (V 11) – I va II ko'krak umurtqalari o'tkir o'simtasi oralig'idan 1,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: ensa mushaklari tortilishi, elkada og'riq, bronxit, plevrit, paresteziya, gonit, epilepsiya.

Igna sanchish chuqurligi 1-2 sm, kuydirish 10-20 minut.

Fen-men' (V 12) – II – III ko'krak umurtqalari o'tkir o'simtasi oralig'idan 1,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: bo'yinda og'riq, yo'tal, bosh og'rishi bilan tana haroratining ko'tarilishi, o'tkir respirator kasalliklar, sariqlik.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 10-20 minut.

Fey-shu (V 13) – III – IV ko'krak umurtqalari o'tkir o'simtasi oralig'idan 1,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: ensa va orqa sohasida og'riq, bo'yin qiyshayishi, nafas olish a'zolari kasalliklari, o'pka sili, qon tupurish, bronxial astma, yo'tal, hansirash, kechqurungi terlash, qovurg'alararo nevralgias, sariqlik.

Igna sanchish chuqurligi 1 –1,5 sm, kuydirish 5-20 minut.

TSzyue-in'-shu (V 14) – IV – V ko'krak umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 1,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: yurak kasalliklari, nafas sistemasi kasalliklari, ko'ngil aynishi, qusish, hiqichoq, nevrasteniya.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 10-20 minut.

Sin'-shu (V 15) – V – VI ko'krak umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 1,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: yurak sohasida og'riq, stenokardiya, ishtaha pasayishi, qusish, oshqozondan qon ketishi, nevrasteniya, isteriya, fobiyalar, uyquning buzilishi, xotiraning pasayishi, bolalarda o'sishning sustlashishi.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 3-5 minut.

Du-shu (V 16) – VI – VII ko'krak umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 1,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: yurak kasalliklari (endokardit, perikardit), qovurg'alararo nevrалgiya, qorin sohasida og'riq, soch to'kilishi, kekirish.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Ge-shu (V 17) – VII – VIII ko'krak umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 1,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: bel sohasida og'riq, qizilo'ngach, oshqozon kasalliklari, qusish, gemorragik sindromlar (burun, ichak, bachadondan qon ketishlar), anemiya.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Gan'-shu (V 18) – IX – X ko'krak umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 1,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: jigar va o't pufagi kasalliklari, sariqlik, yo'talganda ko'krak sohasida og'riq, burundan qon ketishi, bosh aylanishi.

Igna sanchish chuqurligi 1 –1,5 sm, kuydirish 5-15 minut.

Dan'-shu (V 19) – X – XI ko'krak umurtqalari o'tkir o'simtasi oralig'idan 1,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: jigar, o't pufagi kasalliklari, og'iz achchiqligi, sariqlik, ishtahasizlik, qusish, qovurg'alararo nevrалgiya, isitma.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 5-15 minut.

Pi-shu (V 20) – XI – XII ko'krak umurtqalari o'tkir o'simtasi oralig'idan 1,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: oshqozon ichak trakti kasalliklari, sariqlik, astsit, bolalarda tutqanoq.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 10-20 minut.

Vey-shu (V 21) – XII ko'krak I bel umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 1,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: oshqozon sohasida og'riq, gastrit, enterit, qorin damlashi, qusish, ishtaha pasayishi, pankreatit, gepatit.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 15-20 minut.

San'-tszyao-shu (V 22) – I – II bel umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 1,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: oshqozon sohasida og'riq, qusish, enterit, diareya, dizenteriya, siydikni tuta olmaslik, oyoqlarda shish, lyumbalgiya.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 15-20 minut.

SHen'-shu (V 23) – II – III bel umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 1,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: nefrit, gematuriya, impotentsiya, patologik pollyutsiya, hayz tsiklining buzilishi, lyumbago, bosh og'rishi, bosh aylanishi, quloqda shovqin.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 – 2,5 sm, kuydirish 15-20 minut.

TSi-xay-shu (V 24) – III – IV bel umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 1,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: bel sohasida og'riq, tsistit, nefrit, hayz tsiklining buzilishi, funktsional metrorragiya, gemorroy.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 15-20 minut.

Da-chan-shu (V 25) – IV-Vbel umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 1,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: bel sohasida og'riq, ishialgiya, to'g'ri ichak kasalliklari, diareya, qabziyat, dizenteriya, kechqurun siydikni tuta olmaslik.

Igna sanchish chuqurligi 2,5 sm, kuydirish 20-30 minut.

Guan'-yuan'-shu (V 26) – V bel I dumg'aza umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 1,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: bel, dumg'aza sohasida og'riq, siydikni tuta olmaslik, og'riqli hayz ko'rish, qorin pastki sohasida og'riq, meteorizm, dizenteriya.

Igna sanchish chuqurligi 2,5 – 3 sm, kuydirish 15-20 minut.

Syao-chan-shu (V 27) – I –II dumg'aza umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 1,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: dumg'aza, bel sohasida og'riq, bavoil, patologik pollyutsiya, enurez, gematuriya, dizenteriya.

Igna sanchish chuqurligi 2,5 – 3 sm, kuydirish 15-20 minut.

Pan-guan-shu (V 28) – II –III dumg'aza umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 1,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: siydik-tanosil a'zolari kasalliklari, tsistit, tashqi jinsiy a'zolda og'riq, kechqurungi enurez, orxit, impotentsiya, endometrit, tug'ruq og'riqlari.

Igna sanchish chuqurligi 2,5 – 3 sm, kuydirish 15-30 minut.

CHjun-lyuy-shu (V 29) – III – IV dumg'aza umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 1,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: bel dumg'aza sohasida og'riq, ishias, lyumbago, kolit, dizenteriya, og'riqli hayz ko'rish.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 15-20 minut.

Bay-xuan'-shu (V 30) – orqa o'rta chiziq IV dumg'aza sohasidan 1,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: siydik-tanosil a'zolari kasalliklari, hayz tsikli buzilishi, endometrit, tsistit, anuriya, to'g'ri ichak kasalliklari.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

SHan-lyao (V 31) – I dumg'aza teshigi sohasida V (27) nuqta bilan bir chiziqda.

Ko'rsatma: siydik-tanosil a'zolari kasalliklari, tsistit, siydikni tuta olmaslik, jinsiy a'zolda og'riq, endometrit, metrorragiya, gormonal bepustlik, epididimit, dumg'aza va bel sohasida og'riqlar.

Igna sanchish chuqurligi 2,5 – 3 sm, kuydirish 20 – 30 minut.

TSi-lyao (V 32) – orqa yonbosh suyagi yuqori qirrasidan 1,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: V 31 nuqtadek.

Igna sanchish chuqurligi 2-3 sm, kuydirish 20-30 minut.

CHjun-lyao (V 33) – CHjun-lyuy-shu (V 29) va dumg'aza teshigi oralig'i markazida.

Ko'rsatma: V 31 nuqtadek.

Igna sanchish chuqurligi 2,5 – 3 sm, kuydirish 15-20 minut.

Sya-lyao (V 34) – V 30 va orqa o'rta liniya oralig'i IV dumg'aza teshigi sathida.

Ko'rsatma: V 31 nuqtadek.

Igna sanchish chuqurligi 2 – 2,5 sm, kuydirish 15-20 minut.

Xuey-yan (V 35) – dumning yuqorigi qirrasidan 0,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: tashqi jinsiy a'zolarining ko'p terlashi, hayz ko'rish vaqtida belda og'riq, jinsiy zaiflik, oraliq sohasida terining qichishi, gemorroy, dizenteriya.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 10-20 minut.

CHen-fu (V 36) – dumba burmasi markazida III mushak uchrashadigan joyda.

Ko'rsatma: dumba sohasida og'riq, quymich nerv nevrалgiyasi, gemorroy, buyrak sohasida og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 2,5 – 3 sm, kuydirish 10-20 minut.

In'-men' (V 37) – sonning orqa yuzasida, V 36 nuqtadan 6 sun' pastda.

Ko'rsatma: sonda og'riq, bel umurtqalari sohasida og'riq, gemorroy, oyoq mushaklari parez va paralichi.

Igna sanchish chuqurligi 2 sm, kuydirish 5-15 minut.

Fu-si (V 38) – tizza burmasidan 1 sun' yuqori va lateral sohada.

Ko'rsatma: son va dumba sohasida og'riq, kichik boldir nervi nevrалgiyasi, tsistit, anuriya, ich ketishi, qabziyat.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 – 2 sm, kuydirish 5 – 10 minut.

Vey-yan (V 39) – vey – chjun (V 40) nuqtasidan 1 sun' lateral tomonda joylashgan.

Ko'rsatma: boldir sohasi mushaklarida og'riq, gemorroy, epilepsiya, isitma.

Igna sanchish chuqurligi 2 sm, kuydirish 5-10 minut.

Vey-chjun (V 40) – tizza osti chuqurchasi markazida.

Ko'rsatma: tizza, bel, dumg'aza sohasida og'riq, pastki muchalarda harakat buzilishi, bosh miyada qon aylanishining buzilishi, arterial gipertenziya, gemorroidal qon ketishlar, qusish, ich o'tishi, qabziyat, isitma, allergiya.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 5-20 minut.

Fu-fen' (V 41) – II-III ko'krak umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 3 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: bo'yin, ensa, kurak sohalarida og'riq, qovurg'alararo nevrалgiya, pnevmoniya, qo'shimcha nerv falajlanishi.

Igna sanchish chuqurligi 1 – 1,5 sm, kuydirish 10-20 minut.

Po-xu (V 42) – III – IV ko'krak umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 3 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: elka va orqa sohasida og'riqlar, buyin va ensa mushaklarida og'riq, bronxial astma, bronxit, plevrit, o'pka tuberkulyozi, hansirash, yo'tal.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 5-15 minut.

Gao-xuan (V 43) – IV – V ko'krak umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 3 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: o'pkaning surunkali kasalliklari, bronxial astma, qon tupurish, kechqurungi ko'p terlash, elka va kurak sohasida og'riq, xotira pasayishi, nevrasteniya, yara kasalligi, qusish.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 10-30 minut.

SHen'-tan (V 44) – V – VI ko'krak umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 3 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: hansirash, yo'tal, bronxit, bronxial astma, yurak kasalliklari, qovurg'alararo nevrалgiya, elka sohasida og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 10 – 20 minut.

I-si (V 45) – VI- VII ko'krak umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 3 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: orqa va kurak sohasida og'riq, bronxial astma, qovurg'alararo nevrалgiya, stenokardiya, qusish, qizilo'ngach spazmi, isitma.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 10-20 minut.

Ge-guan' (V 46) – VII – VIII ko'krak umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 3 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: orqa sohasida og'riq, qovurg'alararo nevrалgiya, ishtaha pasayishi, qusish, hiqichiq, kekirish, burun, ichaklar va bachad

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 10 – 20 minut.

YAn-gan (V 48) – X-XI ko'krak umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 3 sun' tashqarida.
Ko'rsatma: jigar va o't pufagi kasalliklari, sariqlik, qorin sohasida og'riq, ich o'tishi, bolalarda dispepsiya.
Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 5-15 minut.

I-she (V 49) – XI-XII ko'krak umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 3 sun' tashqarida.
Ko'rsatma: gepatit, sariqlik, meteorizm, ko'ngil aynishi, qusish, ishtaha pasayishi.
Igna sanchish chuqurligi 1,5 – 2 sm, kuydirish 5-10 minut.

Vey-tsan (V 50) – XII ko'krak I bel umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 3 sun' tashqarida.
Ko'rsatma: oshqozon ichak sistemasi kasalliklari, meteorizm, qabziyat, epigastral sohasida og'riq, umurtqa pog'onasi sohasida og'riq, astsit.
Igna sanchish chuqurligi 1,5 – 2 sm, kuydirish 10-20 minut.

Xuan-men' (V 51) – I – II bel umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 3 sun' tashqarida.
Ko'rsatma: epigastral sohada og'riq, oshqozon kasalliklari, qabziyat, jigar kattalashishi.
Igna sanchish chuqurligi 1,5 – 2 sm, kuydirish 10-20 minut.

CHji-shi (V 52) – II – III bel umurtqalari o'tkir o'simtalari oralig'idan 3 sun' tashqarida.
Ko'rsatma: prostatit, orxit, impotentsiya, adneksit, endometrit, og'riqli hayz ko'rish, siydik ajralishining buzilishi, bel mushaklari og'rig'i.
Igna sanchish chuqurligi 2-3 sm, kuydirish 10-20 minut.

Bao-xuan (V 53) – II-III dumg'aza suyaklari o'tkir o'simtalari oralig'idan 3 sun' tashqarida.
Ko'rsatma: uretrit, tsistit, pielonefrit, ayollar jinsiy a'zolari kasalliklari, orxit, epididimit, bel va umurtqa pog'onasi sohasida og'riq.
Igna sanchish chuqurligi 1,5 – 2 sm, kuydirish 10-20 minut.

CHji-byan' (V 54) – dumg'aza kanali kirish sohasida, orqa o'rta liniyadan 3 sun' tashqarida.
Ko'rsatma: dumg'aza – bel sohasida og'riq, tsistit, gemorroy, buyraklar disfunktsiyasi, pastki muchallar parez va paralichi.
Igna sanchish chuqurligi 1,5-3 sm, kuydirish 10-20 minut.

Xe-yan (V 55) – tizza osti chuqurchasidan 2 sun' pastda.
Ko'rsatma: tizza bo'g'imida og'riq, lyumboishialgiya, ichaklardan qon ketishi, epididimit, bachadondan qon ketishi, churrada og'riq.
Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut

CHen-tszin' (V 56)– tizza osti chuqurchasidan 5 sun' pastda.
Ko'rsatma: pastki muchalar falajlanishi, lyumbago, ishias, gemorroy, qabziyat, ich ketishi.
Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

CHen-shan' (V 57) – tizza osti chuqurchasi markazidan 7 sun' pastda.
Ko'rsatma: oyok mushaklarida tirishish, og'riq, shish, tizza bo'g'imi artriti, oqsoqlanish, bel – dumg'aza sohasida og'riq, ishialgiya, bolalarda tutqanoq.
Igna sanchish chuqurligi 2-2,5 sm, kuydirish 5-15 minut.

Fey-yan (V 58) – tashqi to'piqdan 7 sun' yuqorida.
Ko'rsatma: oyoq sohasida og'riq, terisida qichishish, burun bitishi, burundan qon ketishi, ishialgiya, bosh aylanishi, epilepsiya.
Igna sanchish chuqurligi 1-2 sm, kuydirish 5-10 minut.

Fu-yan (V 59) – lateral to'piqdan 3 sun' yuqorida.
Ko'rsatma: to'piq sohasida og'riq va shish, bel - dumg'aza sohasida og'riq, ishias, bolalarda tirishish, bosh og'rishi, ensa sohasida og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Kun'-lun' (V 60) – lateral to'piq orqa qirg'og'ida, to'piq markazi sathida.

Ko'rsatma: boldir – tovon bo'g'imlarida og'riq, shish, bel sohasida og'riq, ishias, gemorroidal qon ketishlar, platsenta ko'chishining sekinlashuvi, tug'ruqning qiyinlashuvi, yo'tal, buyrak sanchig'i, bosh og'rig'i, bosh aylanishi.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Pu-shen' (V 61) – tovon suyagining tashqi yuzasida, Kun'-lun' (V 60) nuqtasidan 1,5 sun' vertikal pastda.

Ko'rsatma: pastki muchalar falajlanishi, mushaklar spazmi, tizza bo'g'imlarida og'riq, epileptik tutqanoqlar.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 – 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

SHen'-may (V 62) – tashqi to'piq osti sohasida, oyoqning kaft va yuza qismi chegarasida.

Ko'rsatma: boldir - tovon bo'g'imida og'riq, shish, pastki muchalarda harakatning buzilishi, bosh og'rig'i, Men'er sindromi, bosh aylanishi.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 3-5 minut.

TSzin'-men' (V 63) – tashqi to'piqdan pastda va oldinda, kubsimon suyak chuqurchasi qirrasida.

Ko'rsatma: boldir – tovon sohasida og'riq, shish, lyumbalgiya, ishialgiya, epileptik tutqanoq, eshitishning pasayishi.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

TSzin-gu (V 64) – V kaft suyagi asosidan oldinda va pastda oyoq kaft va yuza qismi chegarasida.

Ko'rsatma: tovon yuza sohasida og'riq, chanoq – son bo'g'imida og'riq, o'tkir bosh og'rig'i, ensa mushaklari rigidligi, ko'z kasalliklari, burundan qon ketish, epilepsiya.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

SHu-gu (V 65) – V kaft suyagi boshchasi oyoq kafti va yuza qismi chegarasida.

Ko'rsatma: kaftda og'riq, bosh og'rig'i, eshitish, ko'rish pasayishi, epilepsiya, burun kasalliklari.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 – 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

TSzun-tun-gu (V 66) – V barmoq asosining tashqi yuzasida.


Ko'rsatma: bosh og'rig'i, bosh aylanishi, burundan qon ketish, bo'yin ensa mushaklari zo'riqishi, surunkali gastrit.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 3-5 minut.

CHji-in' (V 67) – oyoq V barmoq tirnoq asosidan 0,3 sm tashqarida.

Ko'rsatma: tug'ruq kuchlarining sustligi, cho'zilgan tug'ruq, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, kon'yuktivit, leykoma, oyoq bo'g'imlari revmatik yallig'lanishi.

Igna sanchish chuqurligi 0,3 sm, kuydirish 3-5 miunt (homiladorlarda kuydirish ta'qiqlanadi).



Rasm 19. Siydik pufagi meridiani

Standart nuqtalar.

Tonusni oshiruvchi – CHji-in' (V 67)
 Tinchlantiruvchi – SHu-gu (V65)
 Manba – TSzin-gu (V64)
 Mo'tadillovchi – Fey-yan (V58)
 Signal – CHjun-tszi (VC 3)
 Og'riq qoldiruvchi – TSzin'-men' (V63)

Siydik pufagi meridianida 12ta hamdard nuqtalar mavjud:

Fey-shu (V 13) o'pka meridiani
 TSzyue-in'-shu (V 14) perikard meridiani
 Sin'-shu (V 15) yurak meridiani
 Gan'-shu (V 18) jigar meridiani
 Dan'-shu (V 19) o't pufagi meridiani
 Pi-shu (V 20) taloq – oshqozon osti bezi meridiani
 Vey-shu (V 21) oshqozon meridiani
 San'-tszyao-shu (V 22) uch isituvchi meridiani
 SHen'-shu (V 23) buyrak meridiani
 Da-chan-shu (V 25) yo'g'on ichak meridiani
 Syao-chan-shu (V 27) ingichka ichak meridiani
 Pan-gaun-shu (V 28) siydik pufagi meridiani

VIII. Buyrak meridiani (R)

Buyrak meridiani markazga intiluvchi meridian bo'lib, in' sistemasiga kiradi, maksimal aktivlik davri soat 17 dan 19 gacha minimal aktivligi soat 19 dan 21 gacha.

Buyrak meridianining tashqi yo'li oyoq kafti markazidan boshlanib, tovon ichki tomonidan o'tib, tovon suyagi yuqori qirrasiga boradi, keyin pastga tushib, tovon suyagi ichki yuzasi o'rtasiga qaytadi, ichki to'piq pastidan o'tib, qayiqsimon suyak orqasidan qaytib, tovon suyagini aylanib o'tadi, keyin boldir suyagi ichki yuzasi bo'ylab vertikal ko'tariladi, oldingi o'rta meridianning Xuey-in' (VC1) nuqtasiga keladi. Keyin qorin birinchi yon chizig'i

bo'ylab yuqoriga ko'tariladi, ko'krakka o'tib ko'krakning birinchi yon chizig'i bo'ylab yoki ko'krakning o'rta chizig'idan 2 sun' tashqaridan o'mrov suyagigacha ko'tarilib shu erda tugaydi (rasm 20).

Meridian ichki yo'li Xuey-in' VC1 nuqtadan chanoq ichiga kirib, umurtqa pog'onasi bo'ylab buyrakka etadi va siydik pufagi bilan bog'lanadi. Buyraklardan jigarga borib diafragmadan o'tadi, o'pkaga borib 2 shoxga bo'linadi: birtasi old o'rta meridian ichki yo'li bilan bog'lanib til ildizida tugallanadi, ikkinchisi old o'rta meridian bilan Tan'-chjun (VC17) nuqtada bog'lanadi, keyin perikard meridiani bilan Tyan'-chi (MC1) nuqtada bog'lanadi.

Buyrak meridiani bilan bog'liq bo'lgan asosiy patologik simptomlar: siydik ajralishining buzilishi, siydik tutolmaslik yoki tutilishi, nefrit, pielonefrit, buyrak sanchig'i, jinsiy a'zolar kasalliklari, impotentsiya, frigidlik, buyrak usti bezlari etishmovchiligi, astenik holatlar, pastki muchalar ichki yuzasi bo'ylab og'riq, oyoq kaftida, umurtqa pog'onasida og'riqlar, quloq, tomoq, burun, ko'z kasalliklari, nerv-psixik buzilishlar, depressiya, fobiyalar.

Meridianda 27 taakupunktur nuqtalar bor.

YUn – tsyuan' (R1) - oyoq kafti markazida, II- III oyoq kafti suyaklari orasidagi chuqurchada joylashgan.

Ko'rsatma: hushdan ketish, shok, isterik tutqanoq, bolalarda talvasalar, og'iz qurishi, tomoqda og'riq, burundan qon ketishi, yo'tal, qon tupurish, siydik ajralishi qiyinligi, oyoq kafti giperemiyasi va sovuqqotishi, kaft nervlari nevrалgiyasi.

Ignasanchish chuqurligi 0,5 – 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Jan – gu (R2) - tovon ichki qirrasida, qayiqsimon suyak do'mboqchasi oldi va pastida joylashgan.

Ko'rsatma: tovon bo'g'imlarida og'riq, shish, siydik-tanosil a'zolari kasalliklari – uretrit, tsistit, epididimit, bepustlik, uyatli lablar giperemiyasi, halqum, hiqildoq kasalliklari, arterial gipertenziya, gipergidroz, quloqda shovqin, bolalardagi talvasalar, diabet, isitma.

Ignasanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Tay – si (R3) -medial to'piqdan 0,5 sun' orqada, to'piq va tovon payi orasidagi chuqurchada joylashgan.

Ko'rsatma: impotentsiya, hayz tsikli buzilishi, sut bezida og'riq va shish, yurak sohasida og'riq, tish og'rig'i, isitmali holat, qandli diabet.

Ignasanchish chuqurligi 1sm, kuydirish 5-10 minut.

Da – chjun (R4) - oshiq tovon boylami ichki orqa qirrasida, tovon payining tovon suyagiga birikish joyida.

Ko'rsatma: tovonida og'riq, paroksizmal taxikardiya, yo'tal, hansirash, bo'g'ilish, bronxial astma, nevrosteniya, isteriya, jigar va buyrak sanchig'i, tsistalgiya, uretradagi spastik og'riqlar.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

SHuy – tsyuan' (R5) - tovon suyagi do'mbog'idan oldinda va yuqorida, tovon suyagi ichki yuzasi o'rtasida joylashgan.

Ko'rsatma: tovon ichki yuzasida og'riq, hayz tsiklining buzilishi, amenoreya, gipomenoreya, poliuriya, siydik pufagi spazmlari.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

CHjao – xay (R6) -medial to'piq pastki qirrasidan 0,5 sun' pastda joylashgan.

Ko'rsatma: ichki to'piq sohasida og'riq va shishlar, hayz tsiklining buzilishi, qin va bachadon tushishi, impotentsiya, moyakda va urug' tizimchasida spastik og'riqlar, jigar, oshqozon osti bezi kasalliklari, nevrasteniya, uyqusizlik, epilepsiya.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Fu – lyu (R7) -ichki to'piq yuqori qirrasidan 2 sun' yuqorida boldir mushagining tovon payigao'tish joyida.

Ko'rsatma: boldirda sovuqlik, uretrada og'riq, nefrit, orxit, pastki muchalarda shish va falajlanish, astsit, gipergidroz, astenik holat.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 10-15 minut.

TSzyao – sin' (R8) - medial to'piqdan yuqorida, Fu-lyu nuqtadan 2 sun' oldinda, katta boldir suyagi orqa qirrasi va tovon payi ichki qirrasi orasidagi masofa o'rtasida.

Ko'rsatma: son ichki yuzasida og'riqlar, oyoqlarda sezgi va harakat funktsiyasi buzilishi, hayz tsiklining buzilishi, bachadon tushishi, moyakda og'riq va shish, qabziyat, ich ketishi.

Igna sanchish chuqurligi 1-1.5 sm, kuydirish 5 – 10 minut.

CHju – bin' (R9) -ichki to'piq yuqori qirrasidan 5 sun' yuqorida.

Ko'rsatma: boldir mushagi tortishishi, boldir ichki tomonidagi og'riqlar, ishialgiya, impotentsiya, nevrasteniya, psixoasteniya, epilepsiya.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 5-15 minut.

In' – gu (R10) - taqim osti burmasi ichki uchida, katta boldir suyagi medial do'mboqchasi orqasida.

Ko'rsatma: tizza va chanoq son bo'g'imida og'riq, hayz tsiklining buzilishi, frigidlik, impotentsiya, orxit, siydik ajralishida og'riq, og'iz sohasida og'riq, gipersalivatsiya.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Xen – gu (R 11) - qorin o'rta chizig'idan 0,5 sun' tashqarida, kindikdan 5 sun' pastda.

Ko'rsatma: olat, uretrada og'riq, patologik pollyutsiya, impotentsiya, kon'yuktivit, keratit.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 5-7 minut.

Da – xe (R 12) - qorin o'rta chizig'idan 0,5 sun' tashqarida, kindikdan 4 sun' pastda.

Ko'rsatma: siydik tanosil a'zolari kasalliklari, kon'yuktivit.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 5-7 minut.

TSi – syue (R 13) - qorin o'rta chizig'idan 0,5 sun' tashqarida, kindikdan 3 sun' pastda.

Ko'rsatma: siydik - tanosil a'zolari kasalliklari, pollyutsiya, impotentsiya, olatda og'riq, nefrit, siydik tutolmaslik, anuriya, hayz tsiklining buzilishi, ich ketishi, belda og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 – 2 sm, kuydirish 5-7 minut.

Si – man' (R 14) - qorin o'rta chizig'idan 0,5 sun' tashqarida, kindikdan 2 sun' pastda.

Ko'rsatma: metrorragiya, hayz tsiklining buzilishi, qabziyat, ich ketishi, dizenteriya.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 – 2 sm, kuydirish 5-7 minut.

CHjun – chju (R 15) - qorin o'rta chizig'idan 0,5 sun' tashqarida, kindikdan 1 sun' pastda.

Ko'rsatma: hayz tsiklining buzilishi, bachadon ortiqlari, yallig'lanishi, kolit, enterokolit, kon'yuktivit, keratit.

Igna sanchish chuqurligi 2 - 3 sm, kuydirish 10-20 minut.

Xuan – shu (R 16) - kindik sohasida, qorin o'rta chizig'idan 0,5 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: qorinda og'riq, qusish, ko'ngil aynishi, meteorizm, qabziyat, sariqlik, kon'yuktivit, keratit, bosh og'riqlar.

Igna sanchish chuqurligi 2-3 sm, kuydirish 10 -20 minut.

SHan – tsyuy (R 17) - qorin o'rta chizig'idan 0,5 sun' tashqarida, kindikdan 2 sun' yuqorida.

Ko'rsatma: ko'ngil aynishi va qusish, oshqozon spazmlari, ichak sanchiqlari, ayollarda bepushtlik, sariqlik, kon'yuktivit, keratit.

Igna sanchish chuqurligi 2-3 sm, kuydirish 10 – 20 minut.

SHi – guan'(R 18) - qorin o'rta chizig'idan 0,5 sun' tashqarida, kindikdan 3 sun' yuqorida.

Ko'rsatma: oshqozon sohasidagi spastik og'riqlar, hiqichoq, qabziyat, so'lak oqishi, ko'z giperemiyasi.

Igna sanchish chuqurligi 2-3 sm, kuydirish 10-20 minut.

In' – du (R 19) - qorin o'rta chizig'idan 0,5 sun' tashqarida, kindikdan 4 sun' yuqorida.

Ko'rsatma: qorinda og'riq va meteorizm, surunkali gastrit, sariqlik, o'pka emfizemasi, bronxial astma.

Igna sanchish chuqurligi 2-3 sm, kuydirish 10-20 minut.

Fu – tun – gu (R 20) - qorin o'rta chizig'idan 0,5 sun' tashqarida, kindikdan 5 sun' yuqorida.

Ko'rsatma: surunkali gastrit, qusish, meteorizm, dispepsiya, kon'yuktivit. Igna sanchish chuqurligi 1,5-2,5 sm, kuydirish 10-20 minut.

YU – men' (R 21) - qorin o'rta chizig'idan 0,5 sun' tashqarida. kindikdan 6 sun' yuqorida.

Ko'rsatma: qorinda og'riq, ko'ngil aynishi, kayd kilish, nordon kekirish, so'lak oqishi, jigar kasalliklari, ko'krakda og'riq, yo'tal, qo'rquv.

Igna sanchish chuqurligi 1,5-2 sm, kuydirish 10-20 minut.

Bu – lan (R 22) - V qovurg'a oralig'ida, ko'krak o'rta chizig'idan 2 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: bronxit, plevrit, qovurg'alararo nevrалgiya, bronxial astma, anoreksiya, kizilo'ngach, oshqozon, ichak og'riqli spazmlari.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

SHen' – fen (R 23) - IV qovurg'a oralig'ida, ko'krak o'rta chizig'idan 2 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: plevrit, bronxit, bronxial astma, mastit, stenokardiya.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Lin – syuy (R 24) - III qovurg'a oralig'ida, ko'krak o'rta chizig'idan 2 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: qusish, plevrit, bronxit, hid bilishning pasayishi, qovurg'alararo nevrалgiya, mastit, ishtaha pasayishi, diafragma sohasida og'riqlar.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

SHen' – tsan (R 25) - II qovurg'a oralig'ida, ko'krak o'rta chizig'idan 2 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: yo'tal, bronxial astma, sut bezida og'riq, hansirash, hiqichok, stenokardiya.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

YUy – chjun (R 26) - I qovurg'a oralig'ida, ko'krak o'rta chizig'idan 2 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: ko'krakda og'riq, bronxit, plevrit, taloq sohasida og'riq, hiqichoq, qusish, anoreksiya.


Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 15-20 minut.

SHu – fu (R 27) - I qovurg'a va o'mrov suyagi pastki qirrasi orasida ko'krak o'rta chizig'idan 2 sun' tashqarida.

Ko'rsatma: yo'tal, bronxial astma, ko'krakda og'riq, bo'g'ilish, nevrалgiya, tilda og'riq. Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Standart nuqtalari:

1. Tonus oshiruvchi - Fu – lyu (R7)
2. Tinchlantiruvchi - YUn – tsyuan' (R1)
3. Manba - Tay – si (R3)
4. Mo'tadillovchi - Da – chjun (R4)
5. Signal - TSzin – men' (VB25)
6. Og'riq qoldiruvchi – SHuy – tsyuan' (R5)
7. Hamdard - SHen' – shu (V23)



Rasm 20. Buyirak meridiani

IX. Perikard meridiani (MC)

Perikard meridiani IN' sistemasiga kiradi, energiya harakati markazdan qochuvchi meridian hisoblanadi, maksimal aktivlik davri soat 19 dan 21 gacha, minimal aktivlik davri soat 21 dan 23 gacha. Perikard meridianining ichki yo'li perikarddan boshlanib, qovurg'alar osti yo'nalishidan borib TYAN' – chi (MC 1) nuqtasiga, ya'ni oldingi o'rta liniyadan 5 sun' tashqaridan, IV qovurg'a orasidan chiqadi va shu erdan tashqi yo'li boshlanadi. III qovurg'a oralig'iga ko'tarilib, elka tomon yo'naladi va elkaning kaft o'rta chizig'i bo'yicha o'tib bilak va kaftga boradi, so'ngra o'rta barmoq tirnoq plastinkasi oxirida 0,3 sm etmay tugaydi (rasm 21).

Tashqi yo'li quyidagi tarmoqlarni beradi: III va IV kaft suyaklari orasidagi MC8 nuqtasidan boshlanadi va noMCiz barmoq orqali borib «tananing uch isituvchi» meridiani bilan bog'lanadi.

Meridian ichki yo'li perikarddan diafragmagacha borib pastga tushadi va tananing yuqori, o'rta va pastki qismlari bilan bog'lanadi.

Perikard meridiani bilan bog'liq bo'lgan asosiy patologik simptomlar: yurak sohasidagi og'riqlar, nevrogen taxikardiya, yurak qisishi, sababsiz xavfsirashlar, qo'rquv, vasvasa, koma, oshqozon kasalliklari, o'pka kasalliklari, psixik buzilishlar, isitma. Perikard meridianining 9 ta akupunktur nuqtasi mavjud.

Tyan' – chi (MC 1) - o'rta o'mrov chizig'idan 1 sun' tashqarida, IV qovurg'a oralig'ida yoki o'rta oldingi chiziqdan 5 sun' tashqarida joylashgan.

Ko'rsatma: qovurg'alararo nevrалgiya, mastit, gipogalaktiya, bo'g'ilish hissi, qo'ltiq osti sohasidagi shish va og'riq, qo'ltiq osti, o'mrov osti va bo'yin limfa tugunlari limfadeniti.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 – 1 sm, kuydirish 3-5 minut.

Tyan' – tsyuan' (MC 2) - kaft o'rta chizig'i bo'yicha elka ikki boshli mushagi boshlari o'rtasida, qo'ltiq osti burmasidan 2 sun' pastda joylashgan.

Ko'rsatma: yurak sohasida og'riq, oshqozon og'riqlari, qovurg'alararo nevrалgiya, elka ichki yuzasidagi og'riqlar, ko'rish o'tkirligining pasayishi.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

TSyuy – tsze (MC 3) - kaft o'rta chizig'i bo'yicha tirsak bo'g'imi markazida, 2 boshli mushak payi ichki qirrasida joylashgan. (juda muhim nuqta).

Ko'rsatma: yurak sohasida og'riqlar, stenokardiya, taxikardiya, qo'rquv va xavfsirash hissi, bosh va bo'yin sohasida og'riq, gastralgiya, homiladorlikdagi qusish, qo'l va tirnoq bo'g'imida og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Si –men' (MC 4) - kaft o'rta chizig'i bo'yicha bilak kaft burmasidan 5 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: yurak sohasida og'riq, ko'ngil aynishi, qusish, taxikardiya, burundan qon ketish, kaftning qizishi, qo'rquv, astenik holat.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

TSzyan' – shi (MC 5) - kaft o'rta chizig'i bo'yicha bilak kaft burmasidan 3 sun' yuqorida, paylar orasidagi chuqurchada joylashgan.

Ko'rsatma: yurak sohasidagi og'riqlar, taxikardiya, bilak mushaklari titrog'i, kaft gipertermiyasi, laringit, afoniya, yutinishning buzilishi, gastralgiya, qusish, epilepsiya, hayz tsiklining buzilishi.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Ney – guan' (MC 6) - kaft o'rta chizig'i bo'yicha bilak - kaft burmasidan 2 sun' yuqorida, ikki pay orasida joylashgan.

Ko'rsatma: yurak sohasida og'riq, stenokardiya, taxikardiya, astmatik komponent bilan yo'talish, laringit, kekirish, qusish, gastralgiya, arterial gipertenziya, o'rta nerv zararlanishi, nevrozlar, psixik buzilishlar, uyku buzilishi, maniakal va xavfsirash holati, isteriya, epilepsiya.

Igna sanchish chuqurligi 1 – 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Da – lin (MC 7) - bilak – kaft burmasi o'rtasida, paylar orasidagi chuqurchada joylashgan.

Ko'rsatma: yurak kasalligi, o'rta nerv nevriti, tirsak, bilak, kaft bo'g'imlarigi og'riqlar, gastrit, oshqozondan qon ketish, isitma, nevrasteniya.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 – 1 sm, kuydirish 5-7 minut.

Lao – gun (MC 8) - kaft yuzasida II-III kaft suyaklari orasida joylashgan, barmoqlar musht bilan qisilganda bu nuqta III barmoq uchi ostida to'g'ri keladi.


Ko'rsatma: tez tibbiy yordam, isterik tutqanoq, psixoz, kaft gipergidrozi, qo'l panjasi paresteziyasi, bolalarda tutqanoq, betoqatlanish, xavfsirash, quyosh va issiq urishi.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 – 1 sm, kuydirish 3-5 minut.

CHjun – chu (MC 9) - o'rta barmoq uchida tirnoq plastinkasidan 0,3 sm uzakda.

Ko'rsatma: tez tibbiy yordam, shok, koma, kollaps, bezovtalanish va bo'g'ilish hissi, isitma, xotira buzilishi, miyada qon aylanishining buzilishi.

Igna sanchish chuqurligi 0,3 sm, kuydirish 3-5 minut.



Rasm 21. Perikard meridiani

Standart nuqtalar

1. Tonusni oshiruvchi - CHjun – chun (MC 9)
2. Tinchlantiruvchi - Da – lin (MC 7)
3. Manba - Da – lin (MC 7)
4. Mo'tadillovchi - Ney – guan' (MC 6)
5. Signal - Tan' – chjun (VC 17)
6. Og'riq qoldiruvchi - Si – men' (MC 4)
7. Hamdard - TSzyue - in' – shu (V 14)

X. Uch isituvchi meridiani (TR)

Uch isituvchi meridiani markazga intiluvchi meridian bo'lib, yan sistemasiga kiradi, maksimal aktivlik davri soat 21 dan 23 gacha, minimal aktivlik davri soat 23 dan 1 gacha.

Meridian noMCiz barmoqning yuza qismida, tirnoq ildizidan 0,3 sm ichkarida, jimjiloq tomondan boshlanib, IV – V panja suyaklari yuza qismidan o'tadi, IV panja suyagi boshchasi to'g'risida bilak – panja bo'g'imi o'rtasidan qaytib, qo'lning yuza o'rta chizig'i bo'ylab yuqoriga ko'tariladi va elkaning tashqi tomonidan del'tasimon mushak tashqi qirg'og'i bo'ylab davom etib, kurakning akromial o'simtasi va elka bo'g'imi bilan kesishadi. So'ngra trapetsiyasimon mushak tashqi qirg'og'i bo'ylab davom etib, so'rg'ichsimon o'simtagacha boradi. Quloq oldi sohasida TR 17 nuqtasida meridian ikkiga bo'linadi:

A. Birinchisi quloq suprasini aylanib o'tib, uning yuqorisida tugaydi.

B. Ikkinchisi quloq suprasini old tomonidan o'tib, qoshning tashqi burchagiga ko'tariladi va TR 23 nuqtasida tugaydi (rasm 22).

Meridianning ichki yo'li o'mrov usti sohasida E 12 nuqtasidan boshlanib pastga tananing yuqori qismining ichkarisiga kiradi (yuqori qismi), VC 17 nuqtasi to'g'risida perikard bilan uchrashadi, diafragmadan o'tib qorin sohasiga, ya'ni tananing o'rta qismiga tushadi (o'rta qismi). VC 12 nuqtasi to'g'risidan tananing pastki qismiga boradi (pastki qismi). VC 7 nuqtasi to'g'risida joylashadi.

Meridianning yuqori qismiga ko'krak qafasi, diafragmagacha bo'lgan a'zolar, ya'ni nafas olish va qon aylanish sistemasi a'zolari, o'rta qismiga esa, diafragmadan kindikkacha

bo'lgan organlar (oshqozon va talok), pastki qismiga esa kindikdan pastki sohadagi organlar (buyraklar, siydik pufagi va jinsiy a'zolar) kiradi.

Uch isituvchi meridiani bilan bog'liq bo'lgan asosiy patologik simptomlar: termoregulyatsiyaning buzilishi, quloqda shovqin, ko'z va tish og'rig'i, elka bo'g'imida og'riqlar, tirsak bo'g'imi artriti, qo'l IV barmog'i harakatining chegaralanishi, qorinning hamma sohasidagi taranglik, siyishning qiyinlashuvi, siydikni saqlay olmaslik, depressiv holat, apatiya, bolalardagi tutqanoq. Tananing uch isituvchi meridianida 23 ta nuqta mavjud.

Guan' – chun (TR 1) - qo'lning IV barmoq tirnoq ildizidan 0,3 sm ichkarida, jimjiloq tomonda.

Ko'rsatma: tirsak va elkaning tashqi tomonidagi og'riqlar, tomokdagi og'riq, tilning yorilishi, bosh og'rig'i, isitma holati, qo'rquv, ko'ngil aynishi, ishtahaning pasayishi, bolalarda dispepsiya.

Ignasanchish chuqurligi 0,3 sm, kuydirish 2-3 minut.

E – men' (TR 2) - IV – V barmoq proksimal falangalari asoslari orasidagi chuqurchada joylashgan.

Ko'rsatma: barmoq va bilakdagi og'riq, eshitishning pasayishi, quloqdagi shovqin, kon'yuktivit, faringit, isitma.

Ignasanchish chuqurligi 0,3 sm, kuydirish 3-5 minut.

CHjun – chju (TR 3) - qo'lning IV panja suyagi bo'yinchasida, noMCiz barmoq panja falanga bo'g'imi chuqurchasining ustida, jimjiloq tomonda.

Ko'rsatma: isitma holati, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, eshitishning pasayishi, quloqdagi shovqin, barmoq va bilakdagi og'riq.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-7 minut.

YAN – chi (TR 4) - bilak – kaft bo'g'imi yuza sohasining o'rtasida joylashgan.

Ko'rsatma: bilak-kaft bo'g'imining shishi va og'rig'i, qo'ldagi harakat va sezuvchanlikning buzilishi, karlik, malyariya, kon'yuktivit, oligoanuriya, qandli diabet.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-7 minut.

Vay – guan' (TR 5) - bilak - kaft bo'g'imidan 2 sun' yuqorida, tirsak va bilak suyaklari orasidagi chuqurchada joylashgan.

Ko'rsatma: qo'ldagi og'riq, tirsak bo'g'imida harakatning qiyinlashuvi, qo'llardagi parez va paralichlar, isitma holati, astenik holat, nevroz, uyquning buzilishi, karlik, ko'z kasalliklari, tish og'rig'i, parotit, gripp.

Ignasanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut

CHji – gou (TR 6) - bilak – kaft burmasidan 3 sun' yuqorida, bilak va tirsak suyaklari orasidagi chuqurchada joylashgan.

Ko'rsatma: elka va qo'ldagi og'riq, laringit, faringit, yurak sohasidagi, ko'krakdagi, kurakdagi og'riq, tug'ruqdan so'ng hushdan ketish, isitma holati, ich qotishi, qusish, ich ketishi, bo'yin yon sohasidagi og'riq.

Ignasanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Xuey – tszun (TR 7) - TR 6 nuqta sathida. SHu nuqtadan 1 barmoq tashqarida, tirsak tomonda joylashgan.

Ko'rsatma: bilak va elka sohasidagi qaltirash va og'riq, dermatozlar, giperesteziya, eshitishning pasayishi, tish og'rig'i.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5 -10 minut.

San' – yan – lo (TR 8) - bilak – kaft burmasidan 4 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: bilak va elkadagi og'riq, pastki jag' tishlaridagi og'riq, karlik, ko'z kasalliklari.

Ignasanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Si – du (TR 9) - tirsak suyagi bukilish sohasidan 5 sun' pastda, bilak va tirsak suyaklari orasidagi chuqurchada, bilak – panja burmasidan 7,5 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: ko'z kasalliklari, karlik, qo'ldagi va elkadagi og'riq, pastki jag' tishlaridagi og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 1 – 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut

Tyan' – tszin (TR 10) - tirsak burmasidan 1 sun' yuqorida, tirsak bo'g'imi bukilganda hosil bo'ladigan chuqurchada joylashgan.

Ko'rsatma: tirsak bo'g'imi kasalliklari, ko'krakdagi og'riq, bronxit, yo'tal, laringit, ko'z olmasidagi spazm bilan bo'ladigan og'riq, blefarit, bo'yin va ensa sohasidagi og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 5-20 minut.

TSin – len –yuan' (TR 11) - tirsak o'siqchasi oxiridan 2 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: elka va elka bo'g'imidagi og'riqlar, qo'ldagi harakat va sezishning buzilishi, bilak nervi nevralgiyasi, qovurg'alararo nevralgiya.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 5-20 minut.

Syao – le (TR 12) - tirsak o'simtasidan 5 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: TR 11 nuqtasidagi ko'rsatmalardek.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 5-15 minut.

Nao – xuey (TR 13) - deltasimon mushakning pastki qirg'og'ida, qo'ltiq osti chuqurchasi to'g'risida joylashgan.

Ko'rsatma: qo'llardagi sezish va harakatning buzilishi, elka bo'g'imi kasalliklari, bo'yin ensa sohasidagi og'riqlar.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 – 2 sm, kuydirish 5-15 minut.

TSzyan' – lyao (TR 14) - elka bo'g'imi orqa yuzasida, kurak-akromial o'siqchasining orqa va pastki tomonida joylashgan.

Ko'rsatma: elka – kurak sohasidagi og'riqlar, qovurg'alararo nevralgiya, bo'yin ensa sohasi mushaklarining atrofiyasi va kontrakturasi, plevrit, nevralsteniya, bosh aylanishi.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 – 2 sm, kuydirish 5-10 minut.

Tyan' – lyao (TR 15) - VB 21 nuqta va kurak suyagi yuqori qirg'og'i orasidagi masofaning o'rtasida joylashgan.

Ko'rsatma: elkani ko'tara olmaslik va og'riq, kurak sohasidagi og'riq, ensa-bo'yin sohasidagi kontrakturalar, qo'ldagi va panjadagi og'riqlar, isitma holatlari.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Tyan' – yu (TR 16) - boshning orqa sochli qismi chegarasi bilan ko'krak o'mrov – so'rg'ichsimon mushak orqa qirg'og'i kesishgan erida joylashgan.

Ko'rsatma: quloqdagi shovqin, bo'yin, ensa sohasi mushaklarining kontrakturasi, birdaniga karlik yuzaga kelishi, Kvinke shishi, kon'yuktivit.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

I – fen (TR 17) - quloq oldi bezining orqa qirg'og'ida, quloq yuMChog'i asosining orqasida, so'rg'ichsimon o'simta va pastki jag' burchagi orasidagi chuqurchada.

Ko'rsatma: karlik, parotit, yuz nervi falajlanishi, qovoqlar ptozi, og'iz burchagi osilishi, mimik mushaklarning falajlanishi, duduqlanish, uch shoxli nervning II – III shoxlari nevralgiyasi, tish og'rig'i, stomatit.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 3-5 minut.

TSi – may (TR 18) - quloq supراسi orqa qirg'og'ida, eshitish yo'lining tashqi teshigi to'g'risida joylashgan.

Ko'rsatma: bosh og'rishi, quloqlardagi shovqin, karlik, bolalardagi tutqanoq, qusish, ich ketishi, ko'rish o'tkirligining pasayishi, irit, bosh miyadagi venoz dimlanish.

Igna sanchish chuqurligi 0,3 sm, kuydirish 2-3 minut.

Lu- si (TR 19) - quloq supراسining orqa qirg'og'ida TR 18 nuqtasidan 1 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: quloqdagi shovqin, quloqdagi og'riq, bolalarda ko'ngil aynishi va qusish, qo'rqish hissiyoti, meningitdagi bosh og'rig'i.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 3-5 minut.

TSzyao – sun’ (TR 20) - quloq supراسi yuqori qirg’og’i asosidagi chuqurchada joylashgan.

Ko’rsatma: ko’rishning pasayishi, tish og’rig’i, stomatit, chaynashning qiyinlashuvi, gingivit, og’iz sohasi mushaklarining kontrakturasi, bosh aylanishi, kalqonsimon bezning kattalashishi.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 3-5 minut.

Er–men’ (TR 21) - pastki jag’ bo’g’imining orqa qirg’og’idagi chuqurchada, quloq dumbog’i oldida va yuqorisida joylashgan.

Ko’rsatma: o’rta quloqning yallig’lanish, yuqori jag’ tishlaridagi og’riq, quloqdagi shovqin, og’iz atrofi mushaklarining kontrakturasi, bosh og’rig’i, migren’.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 –1 sm, kuydirish 3-5 minut.

Xe–lyao (TR 22) - quloq supراسi asosining oldingi yuqori qirg’og’idagi chuqurchada, do’mbog’cha yuqorisida joylashgan.

Ko’rsatma: silliq mushaklarining kontrakturasi, quloqlardagi shovqin, yuz nervi falaji, rinit, burundagi poliplar, burundan qon ketishi, chakka sohasidagi og’riqlar, ko’z kasalliklari.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 3-5 minut.


Si – chju – kun (TR 23) - qoshning oxiridagi chuqurchada. (nuqtani bosganda uvishish seziladi).

Ko’rsatma: ko’z og’rig’i, yuqori qovoq ptozi, yuz nervi va uch shoxli nervning nevriti va nevralfiyasi, peshona va chakka sohasidagi bosh og’rig’i, bosh aylanishi, bolalardagi tutqanoq holatlari.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish o’tkazilmaydi.

Standart nuqtalar.

1. Tonus oshiruvchi - CHjun -chju (TR 3)
2. Tinchlantiruvchi - Tyan’ – tszin (TR 10)
3. Manba -YAn-chi - (TR 4)
4. Mo’tadillovchi - Vay – guan’ (TR 5)
5. Signal - SHi - men’ (VC 5)
- 6.Og’riq qoldiruvchi - Xuey - tszun (TR 7)
7. Hamdard - San’ – tszyao – shu (V 22)



Rasm 22. Uchisituvchimeridiani

XI. O't pufagi meridiani (VB)

O't pufagi meridiani – YAN sistemasiga kiruvchi juft simmetrik meridian. Energiya harakati markazdan qochuvchi hisoblanib, energiyani tananing uch qismi meridianidan olib jigar meridianiga o'tkazadi. O't pufagi meridiani «daraxt» elementiga to'g'ri keladi. Maksimal aktivlik davri soat 23 dan – 1 gacha, minimal aktivlik davri soat 1 dan – 3 gacha. Meridianda 44 ta akupunktur nuqta bor.

Meridianning tashqi yo'li ko'zning tashqi burchagidan VB-1 nuqtadan boshlanib quloq yumshog'iga qadar pastga qarab yo'naladi. SHu erdan yuqoriga ko'tarilib chakkaga boradi, quloq orqasidan aylanib pastga tushadi, orqarokdan yuqoriga harakatlanib, peshona sohasiga boradi. So'ngra boshning o'rta chizig'iga parallel o'tkazilgan qorachiq chizig'i bo'ylab ensa suyagining pastki qirrasiga tushadi. So'ngra bo'yinning orqa yuzasi bo'ylab pastga tushib, trapetsiyasimon mushakni kesib o'tib, elkani aylanib, o'mrov usti chuqurchasiga keladi (E 12). Bu erdan meridianning ichki yo'li ham boshlanadi. Tashqi yo'l davom etib qo'litiq osti chuqurchasiga tushadi, so'ngra sinig' chizig' hosil qilib ko'krakning yon tarafi bo'ylab pastga tushadi, keyin qorinning 3 chi yon chizig'i, so'ngra 4 chi yon chizig'i bo'ylab pastga tushib, VB-30 nuqtaga boradi, sonning tashqi yuzasi bo'ylab, boldirning (kichik boldirning) old qirrasiga bo'ylab tushib, oyoq kafti tashqi yuzasi, lateral tomoni bo'ylab IV barmoqning tirnoq ildiziga 0,3 sm qolganda barmoqning lateral tomonida VB-44 nuqtada tugaydi (rasm 23). Tashqi yo'lda 2 ta tarmoqlanish bo'ladi.

1-tarmoq: ensa sohasidan VB-20 nuqtadan boshlanib TR-10 nuqtaga borib, quloqdan o'tib, quloq suprasi oldidagi IG-19 nuqtadan chiqadi. Ko'z yorig'i tashqi burchagidan VB-1 nuqtaga kelib, undan E-5 nuqtaga tushadi. Ko'z qirrasidagi E-1 nuqtaga ko'tariladi, keyin pastki jag' burchagiga tushib, bo'yin orqali o'mrov usti chuqurchasidagi E-12 nuqtaga tushadi.

2-tarmoq: oyoq kafti tashqi yuzasidagi VB-41 nuqtadan boshlanib, I va II kaft suyaklari orasidan o'tib, I barmoqning oxirida jigar meridiani bilan tutashadi.

Ichki yo'li: o'mrov usti chuqurchasidan E-12 nuqtadan boshlab ko'krak qafasiga kiradi. So'ngra diafragmadan o'tib, jigar bilan tutashadi, undan o't pufagiga o'tib, qorin bo'shlig'iga tushadi, chov suyagini aylanib o'tib katta ko'st sohasidan chiqib, o'z meridianining tashqi yo'li bilan tutashadi.

O't pufagi meridiani bilan bog'liq bo'lgan asosiy patologik simptomlar: o't pufagi diskineziyasi, ko'ngil aynishi, qusish, og'izda achchiq ta'm, o't pufagi sohasida og'riq, holetsistit, o'pka kasalliklari, yo'tal, hansirash, astma, bosh og'riqlar, ko'z kasalliklari, kichik chanoq organlari kasalliklari, nerv-psixik buzilishlar, isitma holati.

Meridianning akupunktur nuqtalari:

Tun-tszi-lyao (VB 1) - ko'z tashqi burchagidan 0,5 sm tashqaridagi chuqurchada joylashgan.

Ko'rsatma: kon'yuktivit, shapko'rlik, glaukoma, yuz va uch shoxli nervlar yallig'lanishi va nevralgiyasi, migren', ko'z yosh oqishi.

Ignasanchish chuqurligi 0,6 sm, kuydirish 3-5 minut.

Tin-xuey (VB 2) - do'mboqcha asosining pastki uchida bo'lib, og'izni ochganda hosil bo'ladigan chuqurcha sohasida joylashgan.

Ko'rsatma: tashqi eshituv yo'li yallig'lanishlari, quloqda shovqin, yuz nervi paralichi, chaynov mushaklari kontrakturasi, pastki jag' chiqqandagi og'riq.

Ignasanchish chuqurligi 1,5 sm gacha, kuydirish 5-10 minut.

SHan-guan' (VB 3) - yonoq yoyi yuqori qirrasining chakkani sochli qismi bilan qisishgan joyga to'g'ri keladi.

Ko'rsatma: migren', bosh aylanishi, yuz nervi paralichi, 3 shoxli nerv nevralgiyasi, quloqda shovqin, yuz mushaklari tortilishi, tish og'rig'i,

Ignasanchish chuqurligi 0,3 sm, kuydirish 3-5 minut.

Xan'-yan' (VB 4) - E-8 nuqtadan pastda va orqada, E-8 bilan VB-6 nuqtalar orasidagi masofaning yuqori 1/3 qismidagi sohada joylashgan.

Ko'rsatma: yuz nervi nevriti va nevrалgiyasi, ko'zning tashqi burchagida og'riq, quloqlarda shovqin, tish og'rig'i, rinit, bosh og'rig'i, bosh aylanishi.

Ignasanchish chuqurligi 0,6 sm, kuydirish 3-5 minut.

Syuan-lu (VB 5) - E-8 va VB-6 nuqtalar oralig'i masofasining pastki 1/3 chegarasida joylashgan.

Ko'rsatma: nevrasteniya, nevroz, migren', rinit, tish og'rig'i, yuz nervining paralichi.

Ignasanchish chuqurligi 0,5 sm, yon tomondan pastga qarab teri ostiga sanchish kerak, kuydirish 3-5 minut.

Syuan'-li (VB 6) - VB – 5 nuqtadan 1,2 sm tashqarida (quloq supراسi yo'nalishiga qarab).

Ko'rsatma: nevrasteniya, migren', nevrit, yuz shishi, tish og'rig'i, rinit.

Ignasanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 3-5 minut.

TSiy-bin' (VB 7) – quloqning yuqori qismidan o'tkazilgan gorizontall va quloq oldidan o'tkazilgan vertikal chiziqlar kesishgan nuqtada joylashgan.

Ko'rsatma: tepa, chakka va bo'yin sohalarida og'riq, trizm, ensa mushaklari rigidligi, alkohol' bilan zaharlanish, chekish.

Ignasanchish chuqurligi 0,5 –1 sm, kuydirish 3-5 minut.

SHuay-gu (VB 8) – quloq supراسi yuqori qirrasidan 1,5 sun' yuqorida, VB-7 dan bir oz orqada, kichik chuqurcha sohasi, og'riqli soha.

Ko'rsatma: peshona, chakka, tepa sohalaridagi bosh og'riqlar, migren', ko'z kasalliklari, yo'tal, qusish, mastlik holati.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Tyan'-chun (VB 9) – quloq supراسi yuqori qirrasidan 2 sun' yuqorida, VB-8 dan 0,5 sun' orqada, so'rg'ichsimon o'simta markazidan chiqarilgan vertikal sohasida.

Ko'rsatma: epilepsiya, bosh og'rig'i, tonik tutqanoqlar (bo'yin-ensa sohasi mushaklarida) gingivit.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Fu-bay (VB 10) – quloqning orqasida VB-9 nuqtadan 1 sun' pastda.

Ko'rsatma: quloqlarda shovqin, karlik, tish og'rig'i, tonzillit, bo'yin karbunkuli, hiqichoq, nafas etishmovchiligi, bo'yin-ensa sohasi mushaklari spazmi.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-15 minut.

Tou-syao-in' (VB 11) – so'rg'ichsimon o'simta asosida, tashqi eshituv yo'li teshigi yuqorisidan o'tkazilgan gorizontall chiziq sohasida, VB-10 nuqtadan 1 tsun pastda.

Ko'rsatma: ensa sohasidagi bosh og'rig'i, quloqda shovqin, karlik, uch boshli nerv nevrалgiyasi, bo'yin karbunkuli. Qo'l va oyoq mushaklari tirishishi.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-15 minut.

Van'-gu (VB 12) - so'rg'ichsimon o'simta orqa qirrasida, ensaning sochli sohasidan 1,2 sm yuqoridan o'tkazilgan gorizontall liniya sohasida. (VB-20 nuqta to'g'risida).

Ko'rsatma: bo'yin va ensa sohasidagi og'riq, yuz shishi, otit, gingivit, tonzillit, faringit, laringit, tish og'rig'i, yuz nervi paralichi.

Ignasanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 5-10 min.

Ben'-men' (VB 13) – boshning o'rta chizig'idan 3 tsun tashqarida, ko'zning tashqi burchagidan o'tkazilgan vertikal liniyada.

Ko'rsatma: epilepsiya, bosh aylanishi, bo'yin-ensa mushaklar rigidligi, gipertermiya, nevrosteniya.

Ignasanchish chuqurligi 5 sm, kuydirish 5-10 minut.

YAn-bay (VB 14) – qorachiqning to'g'risida, qosh o'rtasidan 1 tsun yuqorida, chuqurchada.

Ko'rsatma: yuz va 3 shoxli nerv nevriti va nevrалgiyasi, ko'z sohasida og'riq, yuqori qovoq ptozi, yuz mushaklari kontrakturası, ko'zdan ko'p yiring ajralishi, qorong'ida ko'rishning pasayishi, ko'zdan yosh oqishi, astigmatizm.

İgna sanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 3-5 minut.

Tou-lin'-tsi (VB 15) – qorachiq to'g'risida, boshning sochli qismi chegarasidan 0,5 sun' yuqorida. T-24 nuqta liniyasida.

Ko'rsatma: ko'zdan yosh okishi, kon'yuktivit, keratit, rinit, epilepsiya, burundan nafas olishning qiyinlashishi, miyaga qon kuyilishi,

İgna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 3-5 minut.

Mu-chuan (VB 16) – VB 15 nuqtadan 1,5 sun' yuqorida (3 sm).

Ko'rsatma: kon'yuktivit, ko'rishning pasayishi, yuz shishi, bosh og'rig'i, varajali isitma, burun bitishi,

İgna sanchish chuqurligi 1 sm.gacha, kuydirish 5-10 minut.

CHjen-in (VB 17) – boshning old sochli qismi chegarasidan 3,5 sun' yuqorida, VB 16 dan 1,5 sun' orqada.

Ko'rsatma: bosh og'rig'i, ko'z atrofida og'riq, kuruv nervi atrofiyasi, tish og'rig'i, og'izning mimik mushaklari tortilishi va spazmi.

İgna sanchish chuqurligi 1 sm.gacha, kuydirish 5-10 minut.

CHen-lin (VB 18) – VB 17 dan 1,5 sun' orqada joylashgan, T-20 nuqta to'g'risida.

Ko'rsatma: bosh og'rig'i, burundan qon ketish, rinit, bronxit, astma, burun bitishi, lixoradka.

İgna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5 minut.

Nao-kun (VB 19) – T 17 nuqtasidan 2 sun' lateral tomonda.

Ko'rsatma: bosh og'rig'i, ensa nervi nevrалgiyasi, burundan qon ketish, bo'yin va ensa mushaklari kontrakturası va og'rig'i, ko'z kasalliklari,

İgna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Fen-chi (VB 20) – sochning orqa o'sish chegarasidan 1 sun' yuqorida, T 16 nuqta to'g'risida, ko'krak o'mrov so'rg'ichsimon mushagi medial qirrası va trapetsiyasimon mushak lateral qirrasining bosh suyagiga birikkan joyida, ular orasidagi chuqurchada.

Ko'rsatma: bo'yin va ensa mushaklari og'rig'i va kontrakturası, vegetativ nerv sistemasi buzilishlaridagi og'riq sindromi, yurak sohasidagi og'riq va taxikardiya, rinit, qizilo'ngachdagi og'riq, burundan qon ketish, terlashsiz tana harorati oshishi, chakka va ensa sohasidagi bosh og'rig'i, burun bitishi, quloqda shovqin, kon'yuktivit, nevrastenıya, adashgan va qo'shimcha nerv funktsiyası buzilishi, shamollash.

İgna sanchish chuqurligi 1,5 – 2 sm, igna oxiri qarama-qarshi ko'z tomon harakatlantiriladi, kuydirish 5-15 minut.

TSzyan'-tszin (VB 21) – elka suyagi do'mbog'ida, T – 14 nuqta va GI 15 nuqtalarini birlashtiruvchi gorizontall liniya o'rtasida, ko'krak bezidan chiqadigan vertikal liniya bilan kesishgan joyda.

Ko'rsatma: bo'yin ensa mushaklarining og'rig'i va rigidligi, elka kamaridagi og'riqlar, elka bo'g'ini harakatining chegaralanishi, bosh og'rig'i, bosh miya qon aylanishining buzilishi, sut bezidagi og'riq, tug'ruq kuchining susayishi, o'z-o'zidan bo'ladigan abortdan keyingi kollaps, bachadondan funktsional qon ketishlar, muddatdan oldin tug'ishda bo'ladigan oyoqdagi og'riqlar.

İgna sanchish chuqurligi 1,5-2 sm, kuydirish 10-20 minut.

YUan' - e (VB 22) – o'rta qo'ltiq osti chizig'i bo'ylab to'rtinchi qovurg'a oralig'ida.

Ko'rsatma: qovurg'alararo nevrалgiya, plevrit, ko'krak mushaklari paralichi, qo'ltiq osti sohasida shishlar.

İgna sanchish chuqurligi 1sm, kuydirish mumkin emas.

CHje-tszin' (VB 23) – to'rtinchi qovurg'a oralig'ida VB 22 nuqtasidan 1 sun' oldinda.

Ko'rsatma: bronxial astma, qovurg'alararo nevrалgiya, jigar sanchig'i, so'lakning ko'p ajralishi, yutinishda og'riq, kekirish.

Ignа sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 3-5 minut.

Ji-yue (VB 24) – Qorinning uchinchі yonbosh chizig'i bo'yicha, o'rta chizig'idan 4 sun' tashqarida, kindikdan 3 sun' yuqorida.

Ko'rsatma: o't pufagi va jigar kasalliklari, oshqozon kasalliklari diafragma spazmi, gastralgiya, ichak sanchig'i, meteorizm.

Ignа sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

TSzin-men' (VB 25) – qorinning yon yuzasida, XII qovurg'aning erkin qirrasida.

Ko'rsatma: bo'yрак sanchig'i, nefrit, plevrit, yo'tal, bronxial astma, ich ketish, meteorizm, lyumbalgiya.

Ignа sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-15 minut.

Day-may (VB 26) – kindikdan o'tkazilgan gorizontal chiziq va XI qovurg'a oxirida o'tkazilgan vertikal chiziqlarning kesishgan erida joylashgan.

Ko'rsatma: hayz tsiklining buzilishi, dismenoreya, endometrit, lyumbalgiya, tsistit, churralar, urug'donning bir tomonlama kattalashuvi.

Ignа sanchish chuqurligi 1,5-2 sm, kuydirish 10-15 minut.

U-shu (VB 27) – qorinning to'rtinchi yon chizig'ida, yonbosh suyagi oldingi qirrasi yuqori qismida, VS 4 nuqta to'g'risida joylashgan.

Ko'rsatma: orxit, endometrit, qorinning pastki sohasidagi og'riq, bel va elkadagi og'riq, churra, ich qotishi, ichak kolikasi.

Ignа sanchish chuqurligi 2 sm, kuydirish 5-10 minut.

Vey-dao (VB 28) - VB 27 nuqtasidan 0,5 sun' pastda va oldinda joylashgan.

Ko'rsatma: bel va chov sohasidagi og'riq, qorinning pastgi og'riq, appenditsit, astsit, endometrit, enterokolit, ich qotishi, lyumbalgiya, ishias.

Ignа sanchish chuqurligi 2 sm, kuydirish 10-20 minut.

TSzyuy-lyao (VB 29) – son suyagi katta vertelining yuqorisi va oldingi yuqori yonbosh qirraning orasidagi masofaning o'rtasida.

Ko'rsatma: hayz tsiklining buzilishi va kuchli og'riq sindromi bilan kechishida, endometrit, nefrit, tsistit, appenditsit, orxit, lyumbalgiya, epididimit, son-chanoq bo'g'inining og'riqlarida.

Ignа sanchish chuqurligi 2 sm, kuydirish 10-20 minut.

Xuan'-tyao (VB 30) – son chanoq bo'g'imining orqa tomonida, yonbosh suyak do'mboqchasini o'tirish dumbog'i bilan bog'lovchi chiziq va katta ko'stdan keladigan perpendikulyar kesishgan erda.

Ko'rsatma: son-chanoq bo'g'imidagi og'riq, o'tirgich nerv nevrалgiyasi, gemiplegiya, teri qichishi, gripp, lyumbalgiya, ospa.

Ignа sanchish chuqurligi 3-5-7 sm, kuydirish 20-40 minut.

Fen-shi (VB 31) – tizza qopqog'i qirrasidan 5 sun' yuqorida yoki qo'lni pastga osiltirganda III barmoq uchining sonning tashqi yuzasiga tekkan joyida.

Ko'rsatma: sonning tashqi yuzasidagi og'riq, ishias, generallashgan qichima, tizza bo'g'imidagi nevrologik og'riqlar, tovondagi og'riq, oyoqlarda falajlik.

Ignа sanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

CHjun-du (VB 32) – sonning tashqi yuzasida, tizza qopqog'i yuqori qirrasidan 4 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: oyoqlarning harakat va sezish funktsiyasining buzilishi, gemiplegiya, lyumbalgiya, tanadagi qichish.

Ignа sanchish chuqurligi 1-10 sm, kuydirish 5-10 minut.

TSzu-yan-guan' (VB 33) – VB 34 nuqtasidan 3 sun' yuqorida, son suyagining lateral orqa-tashqari tomonidagi chuqurchada.

Ko'rsatma: tizza bo'g'im artritidagi og'riq, ishias, revmatizm, gemiplegiya.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

YAn-lin-tsyuan' (VB 34) – kichik boldir suyagi boshchasining old pastki chuqurchasida joylashgan bo'lib, tizza qopqog'ining pastki qirrasidan 2 sun' pastda.

Ko'rsatma: tizza bo'g'imi harakatchanligining yo'qolishi, og'rig'i va giperimiyasi, tashqi kichik boldir nervining falaji, oyoqlar tashqi tomonining uvishishi, jigar va o't pufagi kasalliklari, qovurg'alararo nevrologiya, ishias, yuz shishi, parkinsonizm, xoreya, gemiplegiya.

Igna sanchish chuqurligi 1,5-2 sm, kuydirish 15-30 minut.

YAn-tszyao (VB 35) - kichik boldir suyagining orqa qirrasida, lateral to'piqdan 7 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: oyoqlar falaji, oyoqning tizza bo'g'imi va tovonida og'riq, kichik boldir nervining nevrologiyasi, bosh miya, yuz sohasi va tomoq shilliq qavatining shishi.

Igna sanchish chuqurligi 2 sm, kuydirish 5-10 minut.

Vay-tsyu (VB 36) - kichik boldir suyagining oldingi qirrasida, lateral to'piq yuqori qirrasidan 7 sun' yuqorida.

Ko'rsatma: boldir mushaklari titrog'ida, kichik boldir nervi nevrologiyasi, ensa, bo'yin sohasida og'riq, oyoqlardagi shish,

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Guan-min (VB 37) - lateral to'piqning yuqori qirrasidan 5 sun' yuqorida yoki VB 36 nuqtadan 3 sun' pastda.

Ko'rsatma: boldir va tizza bo'g'imi og'rig'i va anesteziyasida oyoq terisi sezuvchanligi buzilishi va parezi, isitma, ko'z kasalliklari, miopiya, ko'z nervi atrofiyasi.

Igna sanchish chuqurligi 1,5-2 sm, kuydirish 5-10 minut.

YAn-fu (VB 38) – lateral to'piqdan 4 sun' yuqorida, kichik boldir oldingi qirrasida.

Ko'rsatma: gonit, poliartrit, boldir-tovon bo'g'imi old tomoni og'rig'ida, boldir mushaklari titrog'ida, chakka sohasidagi og'riq, o'mrov osti chuqurchasidagi og'riq, ko'z burchagidagi og'riq, poliadenit.

Igna sanchish chuqurligi 1,5-2 sm, kuydirish 5-10 minut.

Syuan'-chjun' (VB 39) – lateral to'piqdan 3 sun' yuqorida, kichik boldir suyagining oldingi qirrasida joylashgan.

Ko'rsatma: boldir bo'g'imidagi og'riq, elka sohasidagi og'riq, tizza tovon va boldir bo'g'in chiqishidagi og'riq, burundan qon ketish, tomok og'riq, bo'yin qiyshiqligida, ishtahaning pasayishida, surunkali gastroenterit, ishialgiya, lyumbago.

Igna sanchish chuqurligi 1,5-2 sm, kuydirish 5-10 minut.

TSyu-syuy (VB 40) – tashqi to'piqning pastki qirrasida, kubsimon suyak orqa yuqori chuqurchasida joylashgan.

Ko'rsatma: tizza tovon bo'g'imi shishi va og'rig'i, boldirdagi og'riq, chanoqning tashqi yuzasi bo'ylab og'riqlarda, boldir mushaklari titrog'ida, ishias, ichak kolikasi, churrallardagi og'riq, keratit, semizlik, nafas qisish holatlarida, shox parda leykomasida.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, igna medial to'piqning orqa qirrasiga qarab suqiladi, kuydirish 5-10 minut.

TSzu-lin-tsi (VB 41) – IV va V oyoq falang suyaklari oralig'idagi chuqurchada joylashgan.

Ko'rsatma: tovonidagi shish va og'riqlar, ko'krak qafasi yon sohasidagi og'riqlar, sut bezi shishida, bo'yin, o'mrov usti, qo'ltiq osti limfa tugunlarining kattalashishida, allergik holatlarda, ko'rish o'tkirligining buzilishida.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Di-u-xuey (VB 42) - IV va V panja suyagi falangalari oralig'idagi chuqurchada VB 41 nuqtasidan 0,5 sun' oldinda.

Ko'rsatma: tovon yuza sohasi og'rig'i va shishi, boldir tovon bo'g'ini harakatchanligining buzilishi, qo'ltiq osti sohasi shishi va yallig'lanishi, sut bezi abstsessi, qonli qusish, kon'yuktivit.

Igna sanchish chuqurligi 0,6 sm, kuydirish 5-10 minut.

Sya-si (VB 43) – tovon IV-V barmoqlari burmalari orasida, yuza sohasida.

Ko'rsatma: tovon yuza sohasidagi og'riq, ko'krakdagi og'riq, migren', eshitishning pasayishi, ko'z kasalliklari, bo'yin va jag' osti sohasidagi og'riqlar, qovurg'alararo nevralgiya, mastit, isitma holatlari, qo'rqinchli tush ko'rish.

Igna sanchish chuqurligi 0,5-1 sm, kuydirish 3-5 minut.


TSzu-tsyao-in' (VB 44) – oyoq IV barmog'ining tashqi yuzasi tirnoq ildizidan 0,3 sm tashqarida.

Ko'rsatma: ko'krakning yonbosh sohasidagi og'riq, qon tupurish, tomokdagi og'riq, plevrit, bronxial astma, bosh va ko'zdagi og'riq, ovozning birdaniga yo'qolishi, uykuning buzilishi, isitma holatlari, boldir mushaklaridagi og'riq, qo'rqinchli tush ko'rish.

Igna sanchish chuqurligi 0,3 sm, kuydirish 5-10 minut.

Standart nuqtalar

- | | | |
|----------------------|---|-------------------|
| 1.Tonusi oshuvchi | - | Sya-si (VB 43) |
| 2.Tinchlantiruvchi | - | YAn-fu (VB 38) |
| 3.Manba | - | TSyu-syuy (VB 40) |
| 4.Mo'tadillovchi | - | Guan-min (VB 37) |
| 5.Signal nuqta | - | Ji-yue (VB 24) |
| 6.Hamdard | - | dan'-shu (V 19) |
| 7.Og'riq qoldiruvchi | - | vay-tsyu (VB 36) |



Rasm 23. O't pufagi meridiani

XII. Jigar meridiani (F)

Jigar meridiani – energiya harakati markazga intiluvchi meridian, IN' sistemasiga kiradi, maksimal aktivlik davri soat 1 dan 3 gacha, minimal esa 3 dan 5 gacha. Jigar meridiani tashqi yo'li oyoqning 1 chi barmog'i tirnoq ildizi tashqi burchagidan boshlanib, oyoq panjasi yuza qismidan I-II barmoq suyaklari o'rtasidan davom etib, medial to'piqning oldidan boldir tovon bo'g'imini kesib o'tadi, boldirning, sonning ichki yuzasi bo'ylab chov

burmasigacha, simfizgacha boradi, tashqi jinsiy organlarni qiyalab o'tib qorinning pastki qismigacha va qorinning o'rta chizig'i bo'yicha VC 4 nuqtasigacha ko'tariladi, egri ko'tariluvchi chiziq bo'yicha XI qovurg'aning oxiriga borib, o'rta o'mrov chizig'i va qovurg'alar yoyi kesishgan erda oltinchi qovurg'a oralig'ida tugaydi (rasm 24).

Meridianning ichki yo'li F 13 nuqtasidan boshlanib, oshqozongacha boradi, VC 10 nuqtasida proektsiyalanadi, jigar va o't pufagigacha boradi. Ichki yo'l ikkita shoxdan iborat. Birinchi shoxi jigardan boshlanadi, F 14 nuqtasida proektsiyalanadi, yuqoriga ko'tariladi, diafragmaga va ko'krak bo'shlig'iga boradi va tashqi VC 18 nuqtasida proektsiyalanadi, keyin halqum, hiqildoqdan o'tib yuqoriga ko'zning tashqi burchagigacha borib 2 ga bo'linadi: ko'tariluvchi va tushuvchi shoxchaga. Ko'tariluvchi shoxchasi boshning peshona qismidan o'tib orqa o'rta meridian bilan T 20 nuqtaga birikadi. Tushuvchi shoxchasi og'iz burchagiga yo'naladi, bo'linib og'izni urab oladi. Ichki yo'lning ikkinchi shoxi ham jigardan boshlanib diafragma, o'pkagacha boradi va o'pka meridiani bilan bog'lanadi va VC 12 nuqtasida tugaydi.

Jigar meridiani bilan bog'liq bo'lgan asosiy patologik simptomlar: sariqlik, o'ng qovurg'a ostida og'riq, epigastral sohada og'riq, oshqozon – ichak traktidagi buzilishlar, qusish, ich ketish, ko'ngil aynishi, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, ko'z kasalliklari, jinsiy organlar kasalliklari, qin va bachadonning osilishi, siydik ajralishi va siydik chiqishining buzilishi, jinsiy organlarda qichishish, yuqori harorat, epileptik tutqanoqlar. Jigar meridianida 14 ta akupunktur nuqta mavjud.

Da – dun'(F 1) – oyoq birinchi barmog'i tirnoq ildizidan 0,3 sm tashqarida joylashgan.

Ko'rsatma: metrorragiya, amenoreya, bachadonning ptozi, qinning kirish erida og'riq, orxit, kechasi siydikni ushlab turolmaslik, qandli diabet, ichak sanchig'i, qorinda shish, pastki qorin sohasida og'riq, ich qotishi.

Ignasanchish chuqurligi 0,3 sm, kuydirish 5-10 minut.

Sin – tszyan'(F 2) - I –II oyoq barmog'i suyaklari boshchasi orasidagi chuqurcha o'rtasida.

Ko'rsatma: oyoq barmog'larida va kaftida og'riq, hayz tsiklining buzilishi, jinsiy a'zolarida og'riq, siydikni saqlay olmaslik, siyishning qiyinlashuvi, ko'ngil aynishi, qusish, ich ketishi, bosh og'rig'i, uyquning buzilishi, paroksizmal taxikardiya, qandli diabet, bolalardagi tutqanoq. Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Tay – chun (F 3) - I – II barmoqlarning falang suyaklari orqa boshchalari, suyak boshchasining suyak asosiga (tanasiga) o'tish erida hosil bo'ladigan burchakda joylashgan.

Ko'rsatma: medial to'piqning oldingi yuzasidagi og'riq, oyoqlar bo'g'imlaridagi og'riq, dismenoreya, ayollar jinsiy organlarida qichish holati, chov bezlari limfadeniti, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, arterial gipertenziya, urug'donning shishishi, bolalarda tutqanoq, o'ng qovurg'a ostida og'riq, uyquning buzilishi, jigar sanchig'i.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 10-15 minut.

CHjun – fen (F 4) – tovonning yuza qismida, medial to'piqdan 1 sun' old tomonda joylashgan.

Ko'rsatma: medial to'piqdagi og'riq, jigar kasalliklari, sariqlik, isitma, qorinning pastki qismida og'riq, churra, siydik chiqishining qiyinlashuvi, pollakiuriya, patologik pollyutsiya, oyoqlar kaftining sovushi.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 10-15 minut.

Li – gou (F 5) – katta boldir suyagi orqa qirg'og'ida, ichki to'piqdan 5 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: boldirda og'riq, dismenoreya, metrorragiya, urug'donda og'riq, siydik chiqishining buzilishi, teridagi qichishish.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

CHjun' – du (F 6) - katta boldir suyagi orqa qirrasida, ichki to'piqdan 7 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: gonit, tizza bo'g'imidagi og'riq, qorin pastki sohasida og'riq, siydik tutilishi va siydikni saqlay olmaslik, erkaklar jinsiy a'zolaridagi shish, oyoqlar falajlanishi.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 3-5 minut.

TSi – guan' (F 7) - tizzaning ichki yuzasida, tizza qopqog'i pastki qirg'og'idan 2 sun' pastda, RR – 9 nuqtasidan 1 sun' orqarokda.

Ko'rsatma: boldir va tizza bo'g'imi ichki yuzalaridagi og'riq, halqum va tomokdagi og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

TSyuy-tsyuan (F 8) - son suyagi ichki egatchasidan orqarokda, tizza qopqog'i markazi satxida joylashgan.

Ko'rsatma: son va tizza bo'g'imi ichki yuzasida og'riq, dismenoriya, jinsiy a'zoldagi qichishlar, orxit, impotentsiya, ko'z kasalliklari, qorinning pastki qismida og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 1-1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

In' – bao (F 9) - tizza qopqog'i yuqori qirg'og'idan 4 sun' yuqorida mushaklar orasidagi egatchada joylashgan.

Ko'rsatma: jinsiy va siydik ajratish sistemasi kasalliklari, bel – dumgaza sohasidagi og'riqlar, oyoq mushaklari titrog'i, qorinning pastki sohasidagi og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

TSzu – u – li (F 10) - son ichki yuzasida, chov suyagi qirg'og'idan 3 sun' pastda qorin o'rta chizig'idan 2,5 sun' tashqi tomonda.


Ko'rsatma: kasallik o'tgandan keyin uyqusizlik, umumiy terlash, oralik ekzemas, meteorizm, grippdan keyingi holsizlik, erkaklar jinsiy a'zolaridagi og'riq va qichish, son – chanoq bo'g'imidagi og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 1 – 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

In' – lyan' (F 11) - chov suyagi yuqori qirrasidan 2 sun' pastda, chov burmasi satxida joylashgan.

Ko'rsatma: gormonli bepushtlik, hayz ko'rishning buzilishi, okmalar, tashqi jinsiy a'zoldagi qichish, sonning ichki yuzasidagi og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 sm.



Rasm 24. Jigar meridiani

TSzi – may (F 12) - qorin o'rtasida chizig'idan 2,5 sun' tashqarida va chov dumbog'i yuqori qirg'og'idan 1 sun' pastda, chov kanali tashqi aylanasi joylashgan.

Ko'rsatma: olatdagi, qorinning pastki qismidagi og'riqlar, churradagi og'riq, bachadon tushishi, orxit, ginekologik kasalliklar.

Ignasanchish o'tkazilmaydi, kuydirish 5-10 minut.

CHjan – men' (F 13) - qorinning en yuzasida XI qovurg'a oxirining pastki qismida joylashgan.

Ko'rsatma: ko'krak qafasining en tomonida og'riqlar, qovurg'alararo nevrologiya, jigar va oshqozon osti bezi kasalliklari, qusish, sariqlik, meteorizm, dispepsiya, tsistit, siydikni tutolmaslik, gipertenziya, plevrit.

Ignasanchish chuqurligi 2 – 2,5 sm, kuydirish 5-15 minut.

TSi – men' (F 14) - 6-qovurg'a oralig'ida, o'rtasida chizig'i bo'yicha joylashgan.

Ko'rsatma: oshqozon ichak yo'li kasalliklari, plevrit, bronxit, bronxial astma, qovurg'alararo nevrologiya, gipertoniya, jigar kasalliklari, ko'rishning pasayishi.

Ignasanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Standart nuqtalar.

1. Tonusni oshiruvchi - TSyuy – tsyuan' (F -8)
2. Tinchlantiruvchi - Sin – tszYAN' (F 2)
3. Manba - Tay – chun (F 3)
4. Mo'tadillovchi - Li – gou (F 5)
5. Signal nuqta - TSi – men' (F 14)
6. Og'riq qoldiruvchi - CHjun – du (F6)
7. Hamdard - Gan' – shu (V 18)

XIII. Orqao'rtameridian (VG)

Orqao'rtameridian barcha «YAN» meridianlarini funktsional bog'lab turadi. Meridianning tashqiyo'li orqachiqaruv yo'li davomida VG 1 nuqtasidan boshlanib, belning o'rtasidagi chizig'i, umurtqalar bo'y labensagacha, keyin boshning o'rtasidagi chizig'i bo'y lab peshona, burundano'tib, yuqorilabning bog'lam chasio'rtasida tugaydi (rasm 25).

Meridianning ichkiyo'li VG

16

nuqtasidan ensasuyagivabirinchibo'y inumurtkasio'rtasidan boshlanadi, keyin boshmiyagakiradivatashqiyo'lini takrorlaydi.

Orqao'rtameridian bilan bog'liq bo'lgan asosiy patologik simptomlar: VG-1 – VG-4 nerv, ichak vasiyidikiyo'li, jinsiya'zolar sistemasika kasalliklari; VG-5 – VG -8 nerv sistemasi, oshqozon ichak yo'li kasalliklari; VG-9 – VG-14 nerv sistemasika kasalliklari, nafas olisha'zolarika kasalliklarivaisitma holatlari; VG-15 – VG-16 ensasohasi, burun, til, tomoq kasalliklari, psixika kasalliklar va nerv sistemasibuzilishlari; VG-17 – VG-24 bosh, ko'z, burun va quلاق kasalliklari, nerv sistemasika kasalliklarivapsixika kasalliklarivapsixik buzilishlar; VG-25 – VG-28 psixika kasalliklar, nerv sistemasika kasalliklari, burunsohasidagi patologik sindromlar, og'izbo'shlig'ivatishka kasalliklari. Orqao'rtameridianning 28 taakupunkt nuqtasimavjud.

CHan-tsyan' (VG1) – orqachiqaruv yo'li davomida azao'rtasida joylashgan.

Ko'rsatma: gemorroy, to'g'ri ichaktushishi, oraliqdagi qichish, siydikchiqishining buzilishi, impotentsiya, pollyutsiya, belchigalinevrologiyasi, epilepsiya, maniakal holat.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-15 minut.

Yao-shu (VG2) -

dumsuyagivadam'azao'rtasida,

dumsuyagikanaligakirisherida joylashgan.

Ko'rsatma: belvadum, siydik – tanosilsistemi, yo'g'onichakvaanuskasalliklari, oyoqlarningsovuqqotishi.

Ignasanchishchuqurligi 1 sm, kuydirish 15-20 minut

Yao-yan – guan' (VG3) - IV-Vbelumurtkalario'tkiro'simtalario'rtasidajoylashgan.

Ko'rsatma: bel – dumg'azanervlarinevralgiyasi, yo'g'onichakkasalliklari, impotentsiya, pollyutsiya, hayztsikliningbuzilishi, oqmalar, ishias.

Ignasanchishchuqurligi 1 sm, kuydirish 10-20 minut.

Min-men' (VG4) - II- III – belumurtkalario'tkiro'simtalario'rtasidajoylashgan.

Ko'rsatma: kuchliboshog'rig'i, umurtqamushaklaritortilishi, beldagiog'riq, patologikpollyutsiya, impotentsiya, okmalar, siydiknitutolmaslik, oyoqlarningsovuqqotishi, isitma holatlari, epilepsiya, quloqlardashovqin, uyquningbuzilishi.

Ignasanchishchuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Syuan'-shu (VG5) - I- IIbelumurtqalario'tkiro'simtalario'rtasidajoylashgan.

Ko'rsatma: belmushaklarikontrakturasivaog'rig'i, qorinmushaklarispazmi, ichaksanchig'i, o'tkirenterokolit, impotentsiya, ayollarjinsiya'zolarikasalliklari.

Ignasanchishchuqurligi 1 sm, kuydirish 10-20 minut.

TSzi-chjun (VG6) -XI-XIIko'krakumurtkalario'tkiro'simtalario'rtasidajoylashgan.

Ko'rsatma: umurtqapogonasidagivaelkadagiog'riqlar, qonliqushish, qorindashish, diareya, ichakkasalliklari, ishtahaningpasayishi, to'g'riichaktushishi, gemorroy, sariqlik, psixozlar, epilepsiya.

Ignasanchishchuqurligi 1-1,5 sm, kuydirisho'tkazilmaydi.

CHjun-shu (VG7) - X-XIko'krakumurtqalario'tkiro'simtalario'rtasidajoylashgan.

Ko'rsatma: oshqozon – ichakyo'likasalliklar, belvaekadagiog'riq, grippvaisitma holatlari, harorat, buyrakkasalliklari, ko'risho'tkirliginingpasayishi.

Ignasanchishchuqurligi 1,5 sm, kuydirish 10-15 minut.

TSzin'-so (VG8) - IX – Xko'krakumurtkalario'tkiro'simtalario'rtasidajoylashgan.

Ko'rsatma: belvaekadagiog'riqlar, elkavaensadagitoniktiroqlar, gastralgiya, epilepsiya, maniakal holat.

Ignasanchishchuqurligi 1 – 1,5 sm, kuydirish 10-20 minut.

CHji-yan (VG9) - VII – VIII – ko'krakumurtqalario'tkiro'simtalario'rtasidajoylashgan.

Ko'rsatma: elkavayuraksohasidagiog'riqlar, qovurg'alararonevralgiya, yo'tal, nafasqisishi, bronxit, plevrit, bronxialastma, gepatit, sariqlik, holetsistit, epilepsiya.

Ignasanchishchuqurligi 1 sm, kuydirish 10-15 minut.

Lin-tay (VG10) -VI – VII –ko'krakumurtqalario'tkiro'simtalario'rtasidajoylashgan.

Ko'rsatma: ensatortilishi, elkasohasidaog'riq, gastralgiya, yo'tal, bronxialastma, surunkalibronxit, pnevmoniya, holetsistit, gepatit.

Ignasanchishchuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

SHen'-dao (VG11) -V-VIko'krakumurtqalario'tkiro'simtalario'rtasidajoylashgan.

Ko'rsatma: elkamushaklarikontrakturasivaog'rig'i, umurtkadagiog'riq, nafasolishsistemasiyurakkasalliklari, qovurg'alararonevralgiya, xotiraningpasayishi, malyariya, boshog'rig'i, isitma holati, bolalardatutqanoq, xavotirli holat.

Ignasanchishchuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

SHen'-chju (VG12) - III – IVko'krakumurtkalario'tkiro'simtalario'rtasidajoylashgan.

Ko'rsatma: umurtqadavaekadaog'riq, ko'ngilaynishivaqusishbilanbo'ladiganboshog'rig'i, bolalardatutqanoq, bo'yinda harakatningbuzilishi, yuqoriisitma, oyoqvaqo'llarningsovuqqotishi, yogbezlariyallig'lanishi.

Ignasanchishchuqurligi 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Tao-dao (VG 13) - I – IIko'krakumurtqalario'tkiro'simtalario'rtasidajoylashgan.

Ko'rsatma: umurtqadagi og'riq, miyadaqonaylanishining buzilishi, boshog'rig'i, boshaylanishi, psixozlar, nevrasteniya, epilepsiya, malyariya, gripp, kechqurungi isitma, uyqudako'ptirlash.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Da – chjuy (VG 14) -

VII bo'yin va I ko'krak umurtqalar o'tkiro'simtalari o'rtasida joylashgan.

Ko'rsatma: bo'yin va ensa mushaklarining rigidligi va og'rig'i, boshog'rig'i, isitmani tushirish, gripp, malyariya, yo'tal, bronxit, bronxial astma, sariqlik, qusish, psixoz, burundan qon ketish.

Ignasanchish chuqurligi 1 – 1,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

YA-men' (VG 15) -I – II bo'yin umurtqalar o'rtasida, socho'sish orqachegarasidan 0,5 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: ensadagi og'riq, burundan qon ketish, kuchli boshog'rig'i, meningit, laringit, ovozning birdanigayo'qolishi, umurtqadagi og'riq va rigidlik, no'tk buzilishi, psixik buzilishlar, epileptik

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish o'tkazilmaydi.

Fen-fu (VG 16) - ensa suyagi va I bo'yin umurtqasi o'rtasida, soch o'sish orqachegarasidan 1 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: bosh og'rig'i, rinit, burundan qon ketish, laringit, gripp, sariqlik, malyariya, xotiraning pasayishi, quloqdagi shovqin, psixik buzilishlar, epileptik tutqanoq, ensada og'riq, ensa mushaklari regidligi.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish o'tkazilmaydi.

Na-xu (VG 17) - ensa do'mbog'ining yuqori qirrasida joylashgan.

Ko'rsatma: bo'yin va ensadagi rigidlik, bosh og'rishi, bosh aylanishi, nevrasteniya, ko'rish o'tkirligining buzilishi, kon'yuktivit, epilepsiya, sariqlik, ko'zdagi og'riq.

Ignasanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

TSyan-tszyan' (VG 18) - boshning o'rta chizig'i bo'yicha soch orqachegarasidan 4 sun' yuqorida joylashgan, T 16 va T 20 nuqtalar o'rtasida.

Ko'rsatma: bosh og'rig'i, bosh aylanishi, nevrasteniya, qusish, ko'z kasalliklari, uyqusizlik, bolalarda tutqanoq

Ignasanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Xou-din (VG 19) - T 20 nuqtasidan 0,5 sun' pastda joylashgan, T 18 va T 20 nuqtalar o'rtasida.

Ko'rsatma: bosh aylanishi, migren', bo'yin ensa mushaklari kontrakturasi, epilepsiya, gemorragik insul't, kuchli psixik o'zgarishlar, depressiya, epileptik tutqanoqlar.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Bay-xuey (VG 20) - boshning o'rta chizig'i bo'yicha soch orqachegarasidan 7 sun' yuqorida va soch old o'sish chegarasidan 5 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: bosh og'rig'i, bosh miya anemiyasi, hushdan ketish, xotiraning yomonlashishi, apatiya holati, nevrasteniya, burunning bitishi, gemorroy, to'g'ri ichakning tushishi, ayollarda bepustlik, bachadon va qin tushishi, chayqalishdan keyingi bosh og'rig'i, quloqda shovqin, yurak sohasidagi noxush holatlar, eklampsiya, siydik tutilishi, bolalarda tutqanoq, bolalarda kechasi bo'ladigan qo'rquv hissi.

Ignasanchish chuqurligi 0,8 sm, kuydirish 5-10 minut.

TSzyan'-din (VG 21) - boshning o'rta chizig'i bo'yicha T 20 nuqtasidan 1,5 sun' oldinda joylashgan.

Ko'rsatma: bosh og'rig'i, bosh aylanishi, bosh miyaga qon aylanishining etishmovchiligi, bo'yin va yuzdagi nevrologik og'riqlar, yuzning shishishi, rinit, burundan qon ketishi, burun polipi, quloq kasalliklari, bolalarda epileptik tutqanoq, eklampsiya.

Ignasanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Sin-xuey (VG 22) - boshning o'rta chizig'i bo'yicha, bosh old sochli qismidan 2 sun' yuqorida, bosh liqildog'iga to'g'ri keladi.

Ko'rsatma: bosh og'rig'i, bosh aylanishi, burundan qon ketish, rinoreya, burun bitishi, uyquchanlik, bolalarda dispepsiya.

Ignasanchish chuqurligi 0,3 sm, kuydirish 3-5 minut. 3 yoshgacha bolalarga mumkin emas.

SHan-sin (VG 23) – bosh o'rta chizig'i bo'yicha bosh old sochli chegarasidan 1 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: bosh og'rig'i, 3 shoxli nerv nevrалgiyasi, burunning bitishi, burundan qon ketishi, rinoreya, ko'z yosh bezlari yallig'lanishi, kuchli qo'zg'alish, tutqanoq, kon'yuktivit, maniakal holat.

Ignasanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

SHen'-tin (VG 24) – bosh o'rta chizig'i bo'yicha, bosh old soch chegarasidan 0,5 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: o'tkir rinit, epilepsiya, bosh aylanishi, 3 shoxli nerv nevrалgiyasi, rinoreya, burun bitishi, qusish, yosh bezlari yallig'lanishi, ko'p ko'z yoshi chiqishi, yurak tez urishi.

Ignasanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Su-lyao (VG 25) – burun uchi markazida joylashgan.


Ko'rsatma: burundan qon ketish, tumor, burun polipi va furunkuli, shok.

Ignasanchish chuqurligi 0,3-0,5 sm, kuydirish o'tkazilmaydi.

Jen'-chjun (VG 26) – burun devori ostida, burun - lab oralig'i yuqorigi 1/3 qismida joylashgan.

Ko'rsatma: hushdan ketish, yurak tomir kollapsi, isteriya, shok, epilepsiya, bolalardagi komatoz holatlar, yuz nervi falajlanishi, trizm, nutqning buzilishi.

Ignasanchish chuqurligi 0,3 – 0,5 sm, kuydirish 5-10 minut.



Rasm 25. Orqa o'rta meridian

Duy-duan' (VG 27) – yuqorilabo'rtasida teriningshilliqkavatiga o'tisherida joylashgan.

Ko'rsatma: gingivit, stomatit, xeylit, sariqlik, epilepsiya, burundanqonketish, burunpolipi, burundannafasolishningbuzilishi, og'izshilliqmushaklarispazmiva tutqanoq.

Igna sanchishchuqurligi 0,5 sm, kuydirisho'tkazilmaydi.

In'-tszyao (VG 28) – yuqorilabshilliqqavatimilkka o'tishchegasida joylashgan.

Ko'rsatma: gingivit, stomatit, tish kasalliklari, rinit, burun polipi, tutqanoq, psixoz.

Igna sanchish chuqurligi 0,3 sm, kuydirish o'tkazilmaydi.

Orqa o'rta meridian standart nuqtalarga ega emas, CHan – tsysan' (VG 1) nuqta umumiy mo'tadillovchi LO punkt hisoblanadi.

XIV. Oldingi o'rta meridian (VC)

Oldingi o'rta meridian barcha «IN'» meridianlarni funktsional bog'lab turadi. Meridianning tashqi yo'li oraliqdan, orqa chiqaruv yo'li va jinsiy a'zolar o'rtasidan boshlanib, qorinning o'rta chizig'i bo'ylab ko'krak, bo'yindan o'tib iyakka VC 24 nuqtada tugaydi (rasm 26). SHu erda meridian 2 ta simmetrik shoxcha beradi, ular lablarni aylanib o'tib orbitagacha boradi.

Meridianning ichki yo'li oralikdan qorin bo'shlig'iga kirib tashqi yo'lni takrorlaydi. Ichki yo'l quyidagi nuqtalarni o'zaro bog'lovchi anastomozlar hosil kiladi: VC 17 va VC 12; VC 12 va VC 9; VC 17 va R 1.

Oldingi o'rta meridian bilan bog'liq bo'lgan asosiy patologik simptomlar: VC 1 - VC 8 siydik-tanosil sistemasi va ichak kasalliklari, VC 10 - VC 15 oshqozon-ichak trakti va nerv sistemasi kasalliklari, psixik kasalliklar, VC 16 - VC 24 – nafas olish sistemasi kasalliklari, qizilo'ngach, halqum, hiqildoq, og'iz bo'shlig'i va tish kasalliklari. Oldingi o'rta meridianning 24 ta nuqtasi mavjud.

Xuey-in' (VC 1) - tashqi chiqaruv yo'li va jinsiy a'zolar o'rtasida joylashgan.

Ko'rsatma: tashqi jinsiy a'zolar kasalliklari – olat boshchasida og'riq, katta uyatli lablardagi shishlar, oraliqda terlash, jinsiy a'zolarida qichish, siydik chiqishi qiyinlashishi, dismenoreya, qin va bachadonning tushishi, vaginit, impotentsiya, to'g'ri ichak kasalliklari, gemorroy, ich qotishi, patologik pollyutsiya.

Igna sanchish chuqurligi 0,5-1 sm, kuydirish 10-15 minut.

Ko'rsatma: uretrada og'riq, tug'ruqdan keyingi bachadon involyutsiyasining ushlanishi, pollyutsiya, tashqi jinsiy a'zoldagi qichish va og'riq, siydik chiqishi qiyinlashuvi, tsistit, tsistalgia, endometrit, bachadon bo'yni eroziyasi, impotentsiya, orxit, churra og'riqlari.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, homiladorlik vaqtida o'tkazilmaydi, kuydirish 10-15 minut.

CHjun-tszi (VC 3) – kindikdan 4 sun' pastda aniqlanadi.

Ko'rsatma: hayz vaktida qorinda og'riq, yo'ldosh ajralishining qiyinlashishi, patologik pollyutsiya, organizmning umumiy qarshiligining pasayishi, dismenoreya, tashqi jinsiy a'zoldagi og'riq, qichish, vaginit, bepushtlik, bachadondan qon ketish, impotentsiya, siydikni tutolmaslik, ishuriya, shishlar.

Igna sanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 10-30 minut.

Guan'-yuan' (VC 4) – kindikdan 3 sun' pastda joylashgan.

Ko'rsatma: hayz tsiklining buzilishi, gormonal bepushtlik, kechkurungi pollyutsiya, impotentsiya, epididimit, qorinning pastki qismida og'riq, qonli ich ketish, pollakiuriya, ishuriya, gematuriya, ichakdan qon ketishi.

Igna sanchish chuqurligi 2,5-4 sm, kuydirish 20-30 minut.

SHi-men' (VC 5) – qorinning o'rta chizig'ida, kindikdan 2 sun' pastda.

Ko'rsatma: qorinning pastki qismida og'riq, kindik atrofida og'riq, bachadondagi og'riq, metrorragiya, astsit, dispepsiya, ich ketishi.

Igna sanchish chuqurligi 1,5-2,5 sm, kuydirish 10-15 minut.

TSi-xay (VC 6) – qorinning o'rta chizig'i bo'ylab kindikdan 1,5 sun' pastda joylashgan.

Ko'rsatma: dismenoreya, metrorragiya, kolit, enterokolit, kindik atrofida og'riq, ichakdan qon ketishi, erkaklarda kichik chanoq a'zolarida og'riq, gematuriya, anuriya, uremiya, arterial gipertenziya, og'riqli siyish, umumiy shish, uykning buzilishi, siydikni tutolmaslik.

Ignasanchish chuqurligi 2,5 sm, kuydirish 20-30 minut.

In'-tszyao (VC 7) – qorinning o'rta chizig'i bo'yicha kindikdan 1 sun' pastda joylashgan.

Ko'rsatma: siydik-tanosil sistemasi kasalliklari, ayollarda uretrit, endometrit, dismenoreya, metrorragiya, tug'ruqdan keyin uzoq vakt ajrilmalar kelishi, churrada, urug'don sohasida, kindik atrofida og'riq.

Ignasanchish chuqurligi 2,5 sm, kuydirish 5-20 minut.

SHen'-tsyue (VC 8) – kindik markazida joylashgan.

Ko'rsatma: hushdan ketish, qorindagi og'riq, meteorizm, qusish va ich ketishi natijasida tananing suvsizlanishi, to'g'ri ichak tushishi.

Ignasanchish o'tkazilmaydi, kuydirish 10-15 minut, kindikka tuz sepilgan holda.

SHuy-fen' (VC 9) – qorinning o'rta chizig'i bo'yicha kindikdan 1 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: oshqozon-ichak sistemasi surunkali kasalliklari, astsit, kindik atrofida shish va og'riq.

Ignasanchish chuqurligi 1,5-2 sm, kuydirish 20-30 minut.

Sya-van' (VC 10) – qorin o'rta chizig'i bo'ylab kindikdan 2 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: qorin sohasida og'riq, oshqozondagi og'riq, qusish, anoreksiya, enterokolit, meteorizm, gematuriya, astsit, oriqlash.

Ignasanchish chuqurligi 1,5-2,5 sm, kuydirish 10-30 minut.

TSzyan'-li (VC 11) – qorinning o'rta chizig'i bo'yicha kindikdan 3 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: oshqozon sohasida og'riq, ko'ngil aynishi, qusish, kekirish, meteorizm, dispepsiya, astsit, peritonit.

Ignasanchish chuqurligi 1,5-2,5 sm, kuydirish 10-30 minut.

CHjun'-van' (VC 12) – qorin o'rta chizig'i bo'yicha kindikdan 4 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: o'tkir va surunkali gastrit, oshqozon yarasi, gastroenterit, hiqichoq, meteorizm, sariqlik, ichburug'.

Ignasanchish chuqurligi 1,5 – 2,5 sm, kuydirish 10-20 minut.

SHan'-van' (VC 13) – qorin o'rta chizig'i bo'yicha kindikdan 5 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: oshqozon kasalliklari, dispepsiya, meteorizm, hiqichoq, bronxit, plevrit, ichak kolikasi, surunkali entrokolit, epilepsiya, yurak tez urishi.

Ignasanchish chuqurligi 1,5 – 2,5 sm, kuydirish 10-30 minut.

TSzyuy-tyue (VC 14) – qorin o'rta chizig'i bo'yicha kindikdan 6 sun' yuqorida joylashgan.

Ko'rsatma: oshqozon kasalliklari, diafragma spazmi, ko'ngil aynishi, qusish, ishtaha pasayishi, oshqozon yarasi, yurak tez urishi, xotira pasayishi, epilepsiya, qo'rquv hissi.

Ignasanchish chuqurligi 1,5 – 2 sm, kuydirish 10-30 minut.

TSzyu-vey (VC 15) – qorin o'rta chizig'i bo'ylab kindikdan 7 sun' yuqorida, xanjarsimon o'simtadan 0,5 sun' pastda joylashgan.

Ko'rsatma: epigastral sohada og'riq, hiqichoq, nafas qisishi, yurak tez urishi, isteriya.

Ignasanchish chuqurligi 1,5 sm, kuydirish 5-15 minut.

CHjun-tin (VC 16) – to'sh suyagi va xanjarsimon o'simta birikkan erida, VII qovurg'a bo'g'imi chizig'i sathida joylashgan.

Ko'rsatma: ko'krakdagi og'riq, kekirish, hiqichoq, o'pka shishi, bronxial astma, bo'g'ilish, qizilo'ngach spazmi, oshqozon sohasida og'riq.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-10 minut.

Tan-chjun (VS 17) – ko'krak o'rta chizig'i bo'yicha to'shning markazida, IV qovurg'a oralig'i sathida joylashgan.

Ko'rsatma: bronxial astma, yo'tal, bronxit, nafas qisishi, gipogalaktiya, qizilo'ngach spazmi va torayishi, qovurg'alararo nevrologiya.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 10 – 20 minut.

YUy-tan (VC 18) – ko'krak o'rta chizig'i bo'yicha III qovurg'a oralig'ida joylashgan.

Ko'rsatma: ko'krakdagi og'riq, yo'tal, bronxial astma, bronxit, plevrit, nafas etishmovchiligi, o'pkadan qon ketishi.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

TSzi-gun' (VC 19) – ko'krak o'rta chizig'i bo'yicha II qovurg'a oralig'ida joylashgan.


Ko'rsatma: ko'krak va yurak sohasida og'riq, nafas qisishi, bronxit, yo'tal, plevrit, oshqozondan qon ketish.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 – 1 sm, kuydirish 5-15 minut.

Xua-gay (VC 20) – ko'krak o'rta chizig'i bo'yicha I qovurg'a oralig'ida joylashgan.

Ko'rsatma: bronxit, bronxial astma, ovoz bog'lamlari spazmi, ko'krak va qovurg'alar ostida og'riq, faringit, laringit, yutinishning buzilishi, chekishga qarshi.

Igna sanchish chuqurligi 0,5 – 1 sm, kuydirish 5-10 minut.



Rasm 26. Oldingi o'rta meridian

Syuan-tszi (VC 21) – ko'krakning o'rta chizig'i bo'yicha bo'yinturuq kemtigidan 1 sun' pastda joylashgan.

Ko'rsatma: yo'tal, nafas qisishi, ko'krak va qovurg'a ostidagi og'riq, bronxit, ko'kyo'tal, qovurg'alararo nevrologiya, havoli kekirish, yutinishning buzilishi, faringit, laringit, halqum shishi.

Igna sanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-15 minut.

Tyan'-tu (VC 22) – to'sh bo'yinturuq kemtigi yuqori qirg'og'i markazida joylashgan.

Ko'rsatma: tomoq og'rig'i, afoniya, ovoz bo'g'ilishi, quruq yo'tal, bronxit, bronxial astma, o'pkadan qon ketishi, qizilo'ngach spazmi, halqum spazmi, qusish, kalqonsimon bez kasalliklari, bo'yin adeniti.

Ignasanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Lyan'-tsyuan' (VC 23) – bo'yinning o'rta chizig'i bo'yicha kalqonsimon togay yuqori qirg'og'ida, til osti suyagi pastki qirg'og'i va qalqonsimon tog'ay yuqori qirg'og'i orasida hosil bo'luvchi chuqurchada.

Ko'rsatma: tilning harakatsizligi, til tonusi pasayishi, disfagiya, gipersalivatsiya, nafas qisishi, bo'yinning oldingi yuzasida og'riq, afaziya.

Ignasanchish chuqurligi 1 sm, kuydirish 5-15 minut.

CHen-tszyan' (VC 24) – o'rta chiziq bo'yicha lab iyak chizig'i markazida, pastki lab ostida joylashgan.

Ko'rsatma: og'iz burchagi tushishi, ovozning birdaniga yo'qolishi, tish og'rig'i, tishlar kariesi, gingivit, yuz yumshoq to'qimasi shishi, yuz nervi parezi, kollaps, tez yordam ko'rsatish.

Ignasanchish chuqurligi 0,5 sm, kuydirish 5-10 minut.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gavaa Luvsan. Traditsionno'e i sovremenno'e aspekto' vostochnoy refleksoterapii - Moskva. "Nauka", 1990, 574 s.
2. Ovechkin A.M. Osnovo' chjen-tszyu terapii - Saransk "Golos", 1991, 416
3. Li B.N. Xalq tibbiyoti. Darslik. 2011 yil. 232 bet.
4. Tabeeva D.M. Rukovodstvo po iglorefleksoterapii – Moskva: «Meditsina», 1980 g.
5. Soy R.D. Spravochnik po refleksoterapii – Tashkent, 1994 g.
6. Xoang Bao Tyau Igloukalo'vanie – Moskva: «Meditsina», 1989 g
7. X.N. Qayumov, Z.I. Tuksanova «Ignaterapiya» o'quv qo'llanma – Buxoro, 2017 y

Ma'ruza №3

Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi

3-mavzu	Sharq tabobatida terapevtik usullar
3.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli	
Mashg'ulot vaqti-80 daqiqa	Talabalar soni: 16-18 ta
Mashg'ulot shakli	Kirish - axborotli ma'ruza.
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Davolash amaliyotida refleksoterapiya usullarini qo'llash bo'yicha ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. 2. Kasalliklarning sharq tabobati bo'yicha etiopatogenezi 3. Kasalliklarda ignarefleksoterapiya, nuqtalar topografiyasi
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Davolash amaliyotida refleksoterapiya usullarini qo'llash bo'yicha ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar, kasalliklarning sharq tabobati bo'yicha etiopatogenezi, nuqtalar topografiyasini tushuntirish.	

Pedagogik vazifalar: - absolyut va nisbiy ko'rsatmalar va qarsi ko'rsatmalarni tushuntirish; - har bir kasalliklarda ta'sir etiladigan nuqtalar topografiyasini ko'rsatib o'tish; - kasalliklardagi ta'sir usullari va ularning variantini aytish		O'quv faoliyati natijalari: - Bugungi mavzu maqsadi va vazifalari haqida tushunchalarni sharhlab berish; - akupunktur nuqtalarga ta'sir qilish usullari varianlarini aytib o'tish; - kasalliklardagi ta'sir etiladigan usullar, nuqtalar topografiyasini birma-bir tushuntirish.
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat	
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy	
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, proektor, kompyuter	
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya	
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob	

3.2. Sharq tabobatida terapevtik usullar ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Ma'ruza uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Mavzuni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	
1 - mavzuga kirish (15daqqa)	Bugungi ma'ruza mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. Talabalar bilimini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida o'tilgan mavzu bo'yicha savollar beriladi.	Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2 – asosiy bosqich (60 daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi. 2.3. Talabalar bilimlarini mustahkamlash maqsadida mavzuga oid qisqa savol javob o'tkaziladi.	Tinglaydilar, yozadilar. Berilgan savollarga javob beradilar.
3- yakuniy bosqich (5 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2. O'tilgan o'quv materialini o'rganib kelish vazifasini beradi.	Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.

Mavzu: Sharq tabobatida terapevtik usullar

Reja

1. Davolash amaliyotida refleksoterapiya usullarini qo'llash bo'yicha ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar.
2. Ignaterapiya usulida davolash
3. Kasalliklarning sharq tabobati bo'yicha etiopatogenezi
4. Kasalliklarda ignarefleksoterapiya, nuqtalar topografiyasi

Ta'sirusullari

Ta'sir xarakteri, kuchliligi va davomiyligiga qarab igna sanchishning asosiy ikki usuli tafovut qilinadi: tormozlovchi va qo'zg'atuvchi. Bular har ikkisi ham ikki xil variantda (kuchli va kuchsiz) bo'ladi. Bu ikki uslub bir-biridan ta'sir xarakteri va kuchi, davomiyligiga ko'ra farq qilinadi.

Tormozlovchi usul. Tormozlovchi usulda asta-sekin kuchayuvchi, kuchli ta'sir qilinadi. Igna effekti asosan og'riqsiz va o'ziga xos sezgilar paydo bo'lishi (zirqirash, bosim, uvushib qolish, issiqlik, tok urishi va boshqalar) bilan xarakterlanadi. Bu sezgilar mahalliy bo'lmasdan, balki igna kiritilgan joydan ancha uzoqqa, proksimal yoki distal tarafda uzatilishi mumkin. Tormozlovchi usulning birinchi variantida igna asta-sekin aylanma harakat bilan ancha chuqurlikka (1-10 sm) kiritilib, to'qimada 30-60 minut vaqtga, ba'zi hollarda bir necha soatga qoldiriladi. Kuchli og'riqlar, spazmlar va tirishishlarda igna 24-48 soatgacha qoldiriladi. Bunda alohida T-simon ignalar yoki mikroignalar qo'llaniladi. Igna sanchiladigan nuqtalar 4-6 tagacha bo'ladi. Bu usul asosan o'rta va balog'at yoshidagilarga qo'llaniladi.

Tormozlovchi usulning ikkinchi variantida igna sekin aylanma harakat bilan kiritiladi. Ignaning kiritilish chuqurligi biroz kamroq bo'lib, sezgilar kuchi kamroq, ya'ni zirqiroq og'riq, engil bosim, tortishib og'rish bo'lmaydi. Ignalar to'qimalarda 15-20 minutgacha qoldiriladi, ta'sir qilish nuqtalar soni 4-6 tagacha, asosan keksalarda va astenik bemorlarda muolajadan oldin qo'rquv hissiyoti bo'lgani uchun tormozlovchi usulning ikkinchi varianti davolanish boshida qo'llaniladi. Davolash amaliyotida ba'zan tormozlovchi usulning oraliq varianti qo'llaniladi. Qo'zg'atish kuchi birinchi variantga va ikkinchi variantning davomiyligiga teng bo'ladi, qachonki ikkinchi variantning intensivligi birinchi variant davomiyligiga teng bo'lganda.

Qo'zg'atuvchi usul. Qo'zg'atuvchi ta'sir yuzaki, kuchli va qisqadir, ta'sir navbatma-navbat, ko'p vaqtlarda engil og'riq hissi va elektr toki urganday bo'lguncha beriladi. Qo'zg'atuvchi usulning birinchi variantida ta'sir asosan birta igna yordamida teriga va teri osti yog' qatlamiga yuzaki (0,3-0,6 sm) navbatma-navbat 8-10 ta nuqtalarga kiritiladi (10-15 sekunddan 1-2 minutgacha), igna to'qimaga qoldirilmaydi.

Qo'zg'atuvchi usulning ikkinchi variantida ta'sir 2-3 ta igna bilan navbatma-navbat 6-8 nuqtaga qisqa vaqt ichida (3-5 minut) qoldirilib va qayta punkturlash yo'li bilan ta'sir etiladi. Bu usul quyidagi hissiyotlar: kuchsiz og'riq, uvushish va elektr toki o'tishi bilan kechishi kerak. Ikkala variant ham kattalarda va bolalarda harakat, sezish va sekretor funktsiyalar pasayganda qo'llaniladi. Kollapsda, shok va hushdan ketganda tez yordam berishda yaxshi natija beradi.

Asosiy ko'rsatmalar

Nerv tizimi va sezgi a'zolari kasalliklari

Vegetativ (avtonom) nerv tizimi kasalliklari. Idiopatik periferik vegetativ nevropatiya .

Migren, atipik yuz og'rig'i (shu bilan bir qatorda Sluder, Sharlen, Xorton sindromlari). Yuz nervi kasalliklari.

Bosh chanog'i nervlarining boshqa kasalliklari. Nerv tomirchalari va chigallari kasalliklari. Elka chigallarining zararlanishi.

Ruhiy va nevroitik buzilishlar, nevrozlar

Surunkali alokogolizm, tamaki chekish

Nafas olish a'zolari (psixogen hiqichoq, yo'tal, esnash va b.).

Yurak-tomir tizimi (yurak nevrozi va boshqa psihogen yurak-tomir buzilishlari).

Teri (psixogen qichima)

Ovqat yo'li (aerofagiya, psihogen vaqti-vaqti bilan qayt qilish).

Duduqlanish va tutilib qolish. Tiklar . Enurez

Ko'z kasalliklari

Refraktsiya va akkomadatsiyaning buzilishi . Keratit. Nevrotrofik keratokon'yunktivit.

Surunkali kon'yunktivit . Blefarokon'yunktivit (allergik). Blefarit (allergik).

Ko'rish nervi nevriti (ko'rishning o'rtacha pasayishi bilan)

Quloq va so'rg'ichsimon o'simta kasalliklari

Mener kasalligi. Quloq shang'illashi. Otalgiya.

Eshitish nervi kasalliklari (eshitishning o'rtacha pasayishi bilan nevrit).

Qon aylanishi tizimi kasalliklari

Essentsial gipertoniya, gipertoniya kasalligi (I va II bosqich).

Stenokardiya (reflektor).

Surunkali yurak ishemik kasalligi (gipertoniya kasalligining I va II bosqichi bilan yoki gipertoniya kasalligi haqida ajralib turmaydigan EKG o'zgarishlari.

Yurak urushining buzilishi (ekstrasistologiya, yurak muskullarining og'ir patologiyasi bilan bog'liq bo'lmagan).

Ateroskleroz (erta bosqichi). Reyno sindromi (erta bosqichi).

Obliteratsiyaga olib boradigan trombangiit.

Boshqalar (akrotsianoz, akroparesteziya, eritromelalgiya)

Flebit va tromboflebit (asoratsiz).

Oyoq yuza tomirlari. Oyoq venalarining varikoz kengayishi yara bilan.

Gipononiya

Endokrin tizimi, ovqatlanish, modda almashuv va immunitetning buzilishi

Tireotoksikoz, buqoq va boshqa sabablar haqida eslatib o'tilmaydi. (o'rtacha ifodalangan).

Gipofiz kasalligi va gipotalamo-gipofizar boshqaruvning buzilishi.

Tuxumdonlar disfunktsiyasi (kam miqdorda ifodalangan).

Moyaklar disfunktsiyasi (o'rtacha ifodalangan).

Nafas olish a'zolari kasalliklari

Surunkali rinit. Surunkali faringit. Surunkali sinuit. Surunkali laringotroxeit.

Allergik rinit. Surunkali bronxit. Bronxial astma.

Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari

Surunkali gingivit. Parodontoz. Stomatit. Glossodiniya, glossalgiya. qizilo'ngach diskeneziiyasi.

Oshqozon yarasi. O'n ikki barmoq ichak yarasi.

Gastrit va duodenit. Oshqozon faoliyatining buzilishi. Axlorgidriya.

Odatiy qayt qilish. Noinfeksion etiologiyada gastroenterit va kolit.

Qabziyat. Funktsional diareya. Anal sfinktor spazmi.

Ichak faoliyatining surunkali buzilishi.

Orqa chiqaruv teshigining yorilishi. O't yo'llari diskeneziiyasi.

Siydik-tanosil tizimi kasalliklari

Surunkali sistitlar. Tsistalgiya . Surunkali salpingit va ooforit. Tservitsit va endotservitsit. Vaginit va vulvit. Hayz davrining buzilishi va ayollar jinsiy a'zolaridan boshqa anormal qon ketishi.

Tug'ish va tug'ishdan keyingi davr. Normal tug'ish..

Yiringli bo'lmagan mastit. Laktatsiyaning yo'qligi. Kam (sezilar-sezilmas) laktatsiya.

Teri va teri osti klechatkalari kasalliklari.

Seboreya dermatiti (ekzema). Psoriaz va psoriazga o'xshash kasalliklar. Qichima va shunga o'xshash holatlar. Angionevrotik shishish.

Suyak-muskul tizimi va birlashtiruvchi to'qimalar kasalliklari.

Revmotoid artrit (bo'g'imlar faoliyati buzilishining I va II bosqichi).

Osteoartroz. Spondilez. Umurtqalar orasi diski kasalliklari. Elka nevriti yoki radikulit.

Lyumbago. Ishias. Ko'krak yoki bel-dumg'aza nevriti yoki radikulit.

Nisbiy ko'rsatmalar.

Tireotoksikoz buqoq bilan yoki buqoqsiz. Qandli diabet.

Neyroendokrin almashuv va neyrotrofik buzilishlar ifodalanmagan gipotalamik sindromlar. Podagra. Entsefalit, mielit va entsefalomeilit. O'tkir poliomielit oqibatlari. Muskul distrofiyasining zo'rayishi. Parkinson kasalligi.

Bolalar serebral falaji. Epilepsiya. Siringomieliya. To'r parda perefirik degeneratsiyasi.

Qarshi ko'rsatmalar

Xavfli va xavfsiz o'smalarda refleksoterapiya ko'rsatmalari bo'yicha boshqa kasalliklarni davolash uchun o'tkazilishi mumkin; keskin og'riq sindromlari mavjudligida og'riqsizlantiruvchi ta'sir usuli sifatida.

1. Xavfli va xavfsiz yangi o'smalar paydo bo'lishi.
2. Qon va qon yaratuvchi a'zolar kasalliklari: irsiy gemorragik kamqonlik
- Qon ivishining buzilishi. Purpura va boshqa gemorragik holatlar.
3. Homiladorlik.
4. O'tkir infeksiyon kasalliklar va noaniq etiologiyaning isitma ko'tarilishi holatlari.
5. Surunkali yuqumli kasalliklarning zo'rayish bosqichida (sil, brutsellez va b.).
6. Yurak, o'pka va boshqa ichki a'zolar kasalliklarining dekompensatsiyasi.
7. Engil qon ketishiga moyil bo'lgan pnevmoskleroz.
8. Miokard infarkti.
9. Faol revmatizm.
10. Vena trombozlari va emboliya o'tkir davrida.
11. Keskin ozish.
12. Jismoniy zo'riqish.
13. Quloq suprachasini sovuq oldirish va yallig'lanish jarayonlari.
14. Tayanch-harakat apparatining o'tkir yallig'lanish jarayonlari.
15. Markaziy nerv tizimining tug'ma nuqsoni.

Ignaterapiya usulida davolash

Ignasanchish usulida davolash ishlarini olib bormoqchi bo'lgan vrachlar quyidagilarni o'zlashtirishi kerak:

1. Ignalarni terapevtik ta'sir mexanizmini.
2. Igna bilan davolashning asosiy qoidalarini.
3. Akupunktur nuqtalarga ta'sir usullarini.
4. Igna sanchish seanslarida bemorlar holatini va ta'sir dozasini.
5. Davo seansi davomiyligini.
6. Igna sanchishda bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlarni va ularni bartaraf etishni.

Ignalarni terapevtik ta'sir mexanizmi an'anaviy tasavvurlarga ko'ra sirkulyatsiya qilayotgan energiya harakatini regulatsiya qilish va organizmdagi kasallik energiyasini siqib chiqarishdan iborat bo'ladi. In va Yan energiyalar nisbatini tiklash asosiy maqsad hisoblanadi. Barcha kasalliklarda ignaterapiya qanchalik barvaqt qo'llanilsa, shunchalik yuqori effekt olish mumkin. Igna sanchishni regulativ ta'siri bilan bir qatorda og'riqsizlantiruvchi ta'siri ham katta ahamiyatga ega. Meridianlarda energiyani sirkulyatsiyasi buzilishi natijasida mahalliy qismlarda og'riq simptomi paydo bo'ladi. Og'riqli nuqtalarga igna sanchish energiya harakatini normallashtirishga va og'riqsizlanishiga olib keladi. Bunda og'riq qaerdan boshlanishiga, energiya harakati buzilgan meridiandagi sohani topish katta ahamiyatga ega.

Sharq tabobatining nazariy qontsepsiyalariga asosan kasalliklar o'zining namoyon bo'lishiga ko'ra bir qancha xususiyatlarga ega, bular:

- patologik jarayonning joylashganligiga ko'ra - tana yuzasida yoki chuqur, ichki organlarda;
- kasallik harakteriga ko'ra - sovuq yoki issiq, bo'shlik yoki to'lalik natijasida bo'lishi, yan yoki in kasallikka kirishi;
- kasallik bosqichiga ko'ra - boshlang'ich yoki surunkali formasi;
- bemor yoshiga ko'ra - bolalar yoki katta yoshdagilar kasalligi.

Igna sanchish usulini butun afzalliklarini ko'rsata olish uchun vrach ko'p asrlik amaliyotda aniqlangan igna sanchishni asosiy qoidalarini o'zlashtirishi kerak, bular:

1) Agar kasallik keltirib chiqaruvchi omil organizmga chuqur kirmagan bo'lsa, yuza sanchish qilinadi, chuqur kirgan bo'lsa igna chuqur sanchiladi.

2) Agar kasallik sovuq faktor ta'siridan kelib chiqqan bo'lsa, u chuqur joylashgan bo'ladi, bunda ignani chuqur sanchib igna effektiga erishish kerak bo'ladi.

3) Agar kasallik issiq faktor ta'siridan kelib chiqqan bo'lsa, kasallik yuzada bo'ladi va igna yuzaki sanchilib, uzoq qo'yilmaydi.

4) Agar kasallik bo'shlik hisobidan bo'lsa, igna bilan quvvatlovchi (tonuslovchi) ta'sir ko'rsatish kerak. Aksincha kasallik to'lalik hisobidan bo'lsa igna bilan taqsimlovchi (tinchlantiruvchi) ta'sir ko'rsatiladi.

5) Kasallik «in» holatiniki bo'lsa igna chuqur sanchiladi, «yan» holatiniki bo'lsa, yuzaki sanchiladi.

6) Agar kasallik surunkali bo'lsa, meridianlarda dimlanish ko'rinishi bo'ladi, demak kasallik keltirib chiqaruvchi energiya meridianga kirgan. Bunda igna sanchishda qon chiqarish tavsiya etiladi, energiyani haydash, og'riqni olish, zararli omilni yo'qotish kerak bo'ladi.

7) Agar bemor baquvvat, terisi va musqo'llari elastik bo'lsa igna chuqur sanchiladi va ma'lum bir vaqtga qoldiriladi. Aksincha bemor oriq, holsiz bo'lsa igna yuzaki sanchilib, uzoq qo'yilmaydi. Bolani davolashda igna ingichka bo'lishi, ta'sir vaqti kam bo'lishi kerak.

Nuqtalarni qo'llashning qanchalik yaxshi usulini vrach ishlatasa, shunchalik ta'siri yaxshi natija beradi. Bu uchun vrach quyidagi 3 ta asosiy printsiplarni egallashi kerak bo'ladi:

A. Har xil nuqtalarni qo'llashga ko'rsatmalar:

- Oyoq va qo'llardagi 5 antik nuqtalar, ular asosan ichki organ kasalliklarida qo'llaniladi.
- Manba nuqtalar 5 parenximatoz va 6 bo'shlik organlar kasalliklarida qo'llaniladi.
- Mo'tadillovchi nuqtalar juft meridianlarda bog'liqliklar buzilishida ishlatiladi.
- Kovak nuqta ichki organlarning o'tkir kasalliklarida ishlatiladi.
- 8 mo'jizaviy meridianlar nuqtalari og'ir surunkali kasalliklarda ishlatiladi.
- Hamdard nuqtalar qo'shimcha sifatida tegishli ichki organ kasalliklarida qo'llaniladi.
- Og'riqsizlantiruvchi nuqtalar meridian yo'llari bo'ylab og'riq bo'lganda ishlatiladi.
- 8 ta bog'liq nuqta, har qaysi ma'lum organlar kasalliklarida yaxshi effekt beradi.
- Spesifik ko'rsatmasi bo'lgan nuqtalar ko'rsatmasiga ko'ra ishlatiladi.

B. Nuqtalarni tanlash printsiplari:

1. Agar kasallik o'zining joylashishiga ko'ra bir yoki bir necha meridian yo'li sohasida bo'lsa, meridian printsiplari tanlanadi.

2. Simptomatik printsiplari - kasallik simptomlari umumiy harakterga ega bo'lganda nuqtalar ko'rsatmalarga ko'ra tanlab olinadi.

3. Yuqoridagi ikki printsiplarni birgalikda ishlatish.

Meridian printsiplari nuqtalarni tanlash asosiy bo'lgani uchun vrach unga katta e'tibor berishi kerak. Bu printsiplarni 3 turi tafovut qilinadi:

- 1) patologik jarayon joylashgan tana qismidan o'tgan meridian mahalliy nuqtalari.
- 2) patologik jarayon joylashgan joy yaqin atrofidan kesib o'tgan meridian nuqtalari.
- 3) patologik jarayon joylashgan joydan kesib o'tadigan meridianning periferik nuqtalari.

V. Nuqtalarni birgalikda tanlab olish printsiplari:

- Meridian nuqtalarini birgalikda olish, bu printsiplari meridianlardan kelib chiqqan holda nuqtalarni tanlashga asoslangan:

- Hamdard nuqtalar bilan signal nuqtalarni birgalikda olish:

- O'zgarish bo'lgan meridianning 5 element nuqtalarini birgalikda olish:

- Yoriq nuqtalarni parenximatoz va bo'shlik organlarning 8 ta bog'liq nuqtalari bilan birgalikda olish:

Ignaterapiyada bemor holati, ta'sir dozasi

Seans vaqtida bemorning holati unga qanday darajada ta'sir ko'rsatilishiga, nuqtalar joylashgan tana qismiga, ko'p vaqt bir holatda turishini e'tiborga olgan holda belgilanadi.

Ta'sirning 3 darajasi tafovut qilinadi:

- tarqatuvchi (kuchli)
- quvvatlovchi (engil)
- yarim taqsimlovchi (o'rta)

Bularning barchasida albatta «igna effekti» ga erishish zarur bo'ladi. Ta'sir dozasi esa quyidagilarga bog'liq holda belgilanadi:

-«to'lalilik» sindromida - ignani kuchli aylantirish va to'qimada qoldirib, har 5-10 daqiqada aylantirish, ignani tez sug'urib olib, teshikni yopmaslik;

-«bo'shlik» sindromida - ignani engil suqish, sekin aylantirish, ignani sekin aylantirib sug'urish va teshikni yopish;

-«to'liq ham bo'shlik ham bo'lmagan» sindromda - igna o'rta intensivlik bilan sanchiladi, sug'urish ham o'rta intensivlikda bo'ladi.

Ignaterapiya davomiyligi kasallik harakteriga bog'liq bo'ladi. Agar o'tkir og'riqli kasallik bo'lsa ignaterapiya effekti tez namoyon bo'ladi. Bir kunda 1-2 seans o'tkazish mumkin. Surunkali kasalliklarda ta'sir kursi 10-15 seansgacha davom ettiriladi va yana takrorlanishi mumkin.

Ignaterapiyada mumkin bo'lgan asoratlar:

- ignalarni to'qimalarda qisilib qolishi;
- ignaning egri bo'lishi;
- ignaning sinishi;
- akupunktur shok;
- ichki organlar shikastlanishi;
- katta qon tomirlar shikastlanishi;
- teri ostiga gematoma yuzaga kelishi;
- ignani nerv tolasiga ta'siri.

Koma

Koma - bu hayot uchun muhim funktsiyalar va trofik jarayonlar buzilmagan holda bemorning hushidan ketishidir.

Etiologiya va patogenez. Etiologiyasi murakkab bo'lib, sabablari ko'pincha shamol faktorining ichki organlarni zararlantirishi, issiqlik faktorining perikardga kirishi, issiqlikning zararlantiruvchi energiyasining «Yurak yoriqlarini» balg'am bilan to'ldirilishi yoki bemor ruhiy holati holdan toyishiga olib keluvchi og'ir kasallikning oxirgi bosqichi (ruh oxirati) dir.

Simptomatikasi. Komaning 2 formasi kuzatiladi.

1. Engil-yuzaki koma bo'lib, «yopiqlik» sindromiga kiritiladi, buni ichki shamol keltirib chiqaradi. Bemor savolga javob bermaydi, lekin og'riqni sezadi, chimchilashni sezadi, og'izga qo'yilgan suyuqlikni yutadi. Qorachiqalar yorug'likka reaksiyasi saqlangan, qo'l barmoqlari musht holatida, nafas olishi me'yorida.

2. Og'ir-chuqur koma, energiya kamayishi sindromiga mos keladi, buni shamol faktori keltirib chiqaradi, bemor chimchilashni sezadi, lekin suyuqlikni yutmaydi. Qorachiqalar reaksiyasi manfiy, og'iz va ko'zlar ochiq, qo'llar tekis, nafas olganda xirillash eshitiladi.

Ignaterapiya.

Engil formasi. Davolash printsipi: davolash asosan tana yoriqlarini ochish, bemorlarni hushga keltirish, issiqlik faktorini yo'qotishga qaratilgan.

ta'sir nuqtalari: 26 VG, 3 F, RS-86.

Qo'shimcha: 6 MC, 40 E

Og'ir formasi. Davolash printsipi: YaN energiyasini qayta tiklashga qaratilgan.

ta'sir nuqtalari: 8VC, 6VC, 4VC, 25VG, 9R.

Nuqtalarning terapevtik effekti: 26VG va txap-tuen (RS 86) «tana bo'shliqlarini ochish», bemorni o'ziga keltirish, issiqlik sindromini organizmdan chiqarish uchun; 4GI, 3F - issiqlikni haydash; 6MC va 40E - olov faktorini va balg'amni yo'qotish; 8VC - YaN energiyasini tiklash; 6VC va 4 VC - organizmdagi energiyani mustahkamlash uchun, 26VG va 9R nuqtalariga tana yoriqlarini ochish va meridianlar o'tkazuvchanligini normallashtirish uchun ta'sir etiladi. Aurikuloterapiya. Yurak, AR55, miya (gipofiz), simpatik nerv sistemasi nuqtalariga ta'sir etiladi.

Igna 10-30 minut qoldiriladi. Igna har 5 minutda aylantirib turiladi.

Hushdan ketish

Hushdan ketish bu - bemor hushining yo'qolishi va kollaps bilan kechadigan holat hisoblanadi. Hushdan ketgan bemorda nafas olish funksiyasi, Yurak faoliyati keskin pasayadi. Qiska vaqt o'tgandan so'ng bu funktsiya normallashtirilib, bemor hushiga keladi.

Etiologiya va patogenezi. Hushdan ketish ko'pincha jismoniy zo'riqishda, emotsional labillikda, astenik konstitutsiyali kishida kuzatiladi. Og'ir ruhiy va jismoniy zo'riqishda energiyaing qisqa muddatli funktsional buzilishiga olib keladi, energiya va qonning miyada harakati, YaN energiyaing oyoq qo'lga harakatlanishi buziladi. Natijada hushdan ketish kuzatiladi.

Simptomatikasi. Hushdan ketish es hushning to'satdan yo'qolishi bilan namoyon bo'ladi. Bemor yuzi oqaradi, qo'l-oyoqlar sovuq bo'ladi, mushaklar tonusi va arterial bosim pasayadi. Qorachiqalar toraygan, puls ingichka, kichik, biroz vaqt o'tgandan keyin bemor hushiga keladi. Ignaterapiya.

Davolash printsiplari. Asosiy maqsad bemorni hushiga keltirish, energiya sirkulyatsiyasi va ruhiy holatini yaxshilashga qaratilgan.

Ta'sir etish nuqtalari: 26 VG, RS 86 (meridiandan tashqari).

Punktsiya harakteri: Igna sanchishda navbatma-navbat ignani aylantirish bilan ta'sir etiladi. Ta'sir bemor hushiga kelguncha qilinadi, keyin esa 36 E va 6 MC nuqtalariga ta'sir etiladi.

Nuqtalarning terapevtik effekti: 26VG, RS86 nuqtalari «tana yoriqlarini ochish», bemorni hushiga keltirish, 6 MC va 36 E nuqtalar ruhiy holatni yaxshilash, energiyaing funktsional holatini yaxshilash uchun qo'llaniladi.

Aurikuloterapiya. Yurak, AR55, bo'yurak usti bezi nuqtalariga ta'sir etiladi. Intensiv ravishda qo'zg'atiladi, igna koldirilmaydi.

Shok

Shok – bu o'tkir patologik holat bo'lib, qon umumiy hajmining birdaniga kamayishi bilan harakterlanadi. Klinikada arterial bosimning birdaniga pasayishi kuzatiladi. Sharq tabobatida «Kuet» (hushdan ketish, rangpar qo'l-oyoqlarning sovishishi) va YaN yoki IN energiyaing yo'qolishi sindromi shokning holatlaridan hisoblanadi.

Etiologiya va patogenezi. IN-energiya yo'qolishi sindromida ko'p terlash, qusish, tez-tez defekatsiya, tana suyuqligining kamayishi, defekatsiya yoki qusishda qon ketish kuzatiladi, bu esa YaN suyuqlikning kamayishiga olib keladi. YaN – IN energiya va qon bir-biriga bog'liq, shuning uchun IN energiyaing susayishi YaN energiya kamayishiga, qon kamayishi esa tana suyuqligining ozayishiga, bu esa orttirilgan energiya susayishiga olib keladi, natijada YaN energiya yo'qoladi.

Simptomatikasi. 3ta formasi tafovut qilinadi.

1. Asosiy simptom-YaN energiyaing yo'qolishi: rangparlik, ko'p terlash, qo'l va oyoqlarning sovishi, puls yuMChok, bo'sh. Bu simptomlar bilan birga nafas olish susayishi, til shishishi, lablarning ko'karishi kuzatiladi, sistolik bosim 80 mm.s.u. dan yuqori emas.

2. Asosiy simptom-IN energiyaing yo'qolishi: yuqoridagi simptomlarga chanqoqlik, bezovtalik, tilda oq karash bo'lishi, puls kam va sust bo'lishi qo'shiladi. Odatda ko'p qon yo'qotilganda kuzatiladi.

3. YaN va IN energiya yo'qolishi: koma holati, nafas deyarli yo'q, puls aniqlanmaydi.

Ignaterapiya.

Davolash printsipli. Energiya sirkulyatsiyasini normallashtirish va YaN energiyani tiklashga qaratilgan.

Ta'sir nuqtalari: 26 VG, 25 VG.

Qo'shimcha: 36 E, 20 VG, 6 VS, 4 VC.

Nuqtalarning terapevtik effekti: 26 VG, 25 VG nuqtalarga energiya sirkulyatsiyasini me'yorlashtirishga, 36 E, 20 VG, 6 VS, 4 VC nuqtalarni kuchaytirish YaN energiya tiklashga qaratilgan.

Aurikuloterapiya. Buyrak usti bezi , AR 55, simpatik nerv sistemasi nuqtalariga ta'sir etiladi.

Bronxit

Bronxit tez-tez uchrab turadigan nafas yo'llari kasalligi bo'lib, bronx devorlarining infektsiyali yallig'lanishi bilan kechadi. Uning ikki formasi: o'tkir va surunkali formasi tafovut qilinadi. Sharq tabobatida bronxit «balg'am bilan yo'tal» va «shilliq» sindromiga kiritiladi.

Etiologiya va patogenezi. Bronxit tashqi yoki ichki kasallik keltirib chiqaruvchi patologik energiya ta'sirida yuzaga keladi. Tashqi faktorlarga ekologik faktorlar (ayniqsa «sovuq» va «shamol») kirs, ichki faktorlarga 5 qattiq organlar energiyalari harakatini buzilishi (asosan o'pka, taloq va buyrak) kiradi.

Simptomatikasi. Bronxitning 2 ta formasi tafovut qilinadi.

1. Tashqi faktorlar ta'siridan yuzaga kelgan bronxitda: quruq va xiripli yo'tal yoki balg'am bilan, tana haroratini oshishi, varaja, bosh og'rig'i, burun bitishi, tanada og'irlik, tilda yupqa oq karash, puls yuzaki yoki tez.

2. Ichki faktorlar ta'siridan yuzaga kelgan bronxitda: kunduzgi va kechqurungi doimiy yo'tal, ertalabki umumiy holsizlik, ishtahaning pasayishi, balg'am ko'pligi va yopishqoqligi, nafas olish qiyinligi, nafas etishmasligi, ko'krak qisishi hissiyoti, ich ketishi yoki me'yorida, til ko'kimtir, oq qalin karash bilan qoplangan, oyoq tovonni issiq, tomoqda quruqlik, oriqlash, teri quruq bo'ladi.

Ignaterapiya.

